

**N.M. MAHMUDOV, A. NURMONOV,
A.SH. SOBIROV**

ONA TILI

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING
9-SINFI UCHUN DARSLIK

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan nashrga
tavsiya etilgan, qayta ishlangan va to'ldirilgan 4-nashri*

9

TOSHKENT
«TASVIR» NASHRIYOT UYI
2019

UO‘K: 811.512.133(075.3)

KBK 81.2 O‘zb-922

M 37

SHARTLI BELGILAR



– savollar va topshiriqlar



– esda saqlang



– eslab qoling



– iqtidorli o‘quvchilar uchun

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ijara uchun chop etildi.

Ushbu nashrga doir barcha huquqlar muhofaza qilinadi va nashriyotga tegishlidir. Undagi matn va rasmlarni nashriyot roziligesiz to‘liq yoki qisman ko‘chirib bosish taqiqlanadi.

ISBN 978-9943-5797-0-5

© N.M. Mahmudov va boshq., 2010, 2014, 2019

© «TASVIR» NASHRIYOT UYI, 2010, 2014, 2019

KIRISH

Aziz o‘quvchilar!

Shu kungacha Sizlar «Ona tili» fanining fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis bo‘limlari bo‘yicha izchil ma’lumot oldingiz.

Fonetika bo‘limida tovush va harf, ularning o‘zaro munosabati, so‘z tarkibida yonma-yon kelgan tovushlarning bir-biriga ta’siri, talaffuzi va imlosi, leksikologiya bo‘limida so‘zlarning ma’nolari, bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar, ma’nodosh, shakldosh va zid ma’noli so‘zlar, iboralar, morfologiya bo‘limida so‘zning shakllari, so‘z turkumlari, sintaksis bo‘limida so‘zlarni bir-biriga to‘g‘ri bog‘lash va gap tuzish qoidalari bilan tanishdingiz. Gaplarning tuzilishiga ko‘ra sodda va qo‘shma gaplarga bo‘linishi haqida ma’lumot oldingiz va sodda gapning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritdingiz.

IX sinfda sintaksisni o‘rganishda davom etasiz. Unda sodda gap bilan qo‘shma gapning farqi, qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalar, qo‘shma gapning turlari, bir fikrni qo‘shma gapning turli ko‘rinishlari bilan ifodalash mumkinligi, ularda tinish belgilaringning ishlatalishi bo‘yicha bilimga ega bo‘lasiz.

Ona tilimizning keng imkoniyatlarini o‘rganishda Sizga omad yor bo‘lsin!



AYTGIL, DO'STIM, NIMA QILDIK VATAN UCHUN?

Boshing egib, ta'zim ayla, shukrona ayt,
Seni guldek erkalagan chaman uchun.
Osmonlarda yurgan bo'lsang, tuproqqa qayt,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?
Eldan ketib, el bo'lganni kim biladi?
Don axtargan go'shtxo'r larga yem bo'ladi.
Dil qonasa, ona tuproq em bo'ladi,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?
Qachongacha qorning o'ylab o'tadirsan?
Qachongacha ko'kdan chalpak kutadirsan?
Axir, Vatan bitta, sen ham bittadirsan!
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?
Buncha bino qo'yma zarrin choponlarga,
Saratonda yaproq bo'lgin dehqonlarga.
Suyangani tayoq bo'lgin cho'ponlarga,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?
Hech kimdan kam emassan, kam bo'lmagaysan,
Yerda qolsang, oftob bo'lib kulmagaysan,
Qachon belni mahkam tortib bog'lagaysan?
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?
Shu soylarda suvlar urgil yuzingga sen,
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,
Shu savolni berib ko'rgin o'zingga sen,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

(Iqbol Mirzo)

1-dars. DUNYO TILLARI ORASIDA O'ZBEK TILI

1-topshiriq. She'rni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

2-topshiriq. Vatanimiz ravnaqi uchun, mustaqilligimizni mustahkam-lash uchun nimalar qilmoqchililingizni ayting.

3-topshiriq. Matnni o'qing.

*Mustaqillik sharofati bilan respublikamiz dunyoning barcha mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqa qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Vatandoshlarimiz turli mamlakatlarda bo'lib, o'rganib-o'rgatib qaytmoqdalar. Agar siz Toshkentdan poyezdga o'tirib, Moskva va u orqali Parijga safar qilsangiz, yo'lingizda qozoq, tatar, boshqird, rus, belorus, fransuz singari tillardagi gaplarni eshitasiz. Bu jarayonda ularning ayrimlari ona tilingizga qaysi bir jihat bilan yaqin, shu bilan birga, nimasi bilandir farqli ekanligi, ayrimlarining esa tamomila boshqa, ona tilingizga o'xshamasligining guvohi bo'lasiz. Bir-biriga yaqin, umumiy jihatlari ko'p bo'lgan tillar qarindosh; bir-biridan uzoq, umumiy jihatlari bo'limgan tillar qarindosh bo'limgan tillar hisoblanadi. Hozirgi kunda yer yuzida mavjud bo'lgan 7000 ga yaqin til **hind-yevropa, turkiy, xom-som, xitoy-tibet** singari bir necha til oilalariga bo'linadi. Masalan, o'zbek, turk, turkman, qirg'iz, qozoq, tatar, uyg'ur, boshqird, ozarbayjon, qaraqalpoq, bolqor singari tillar bir oilaga mansub bo'lib, ular **turkiy tillar oilasi** nomi bilan yuritiladi. Qarindosh kishilar bir ajdoddan tarqalgani kabi qarindosh tillar ham bir ajdod tilidan kelib chiqqandir.*

Ko'rinish turibdiki, o'zbek tili dunyo tillari tizimida turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Davlat tili sifatida erkin rivojlanib, o'sib bormoqda.

1-mashq. Gaplarni o'qing, tilning inson hayotida tutgan o'rni haqida suhbatlashing.

1. Til millat ma'naviyati va madaniyatining toshoynasidir. Modomiki, millatning o‘z tili bor ekan, demak, uning dunyoga aytar so‘zi ham bordir. (*V.Rahmonov*) 2. Ko‘ngil maxzanining qulfi til va ul maxzanning kalitin so‘z bil. (*Alisher Navoiy*) 3. Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur. (*Abdulla Avloniy*) 4. O‘z Vataningga bo‘lgan muhabbatining o‘z tilingga muhabbatingsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. (*K.Paustovskiy*) 5. Din, tibbiyat, tarix, huquq va astronomiya sohalarida Amir Temur o‘ta biluvchan edi. Ko‘p o‘qigan, Osiyoning eng unumli uch (turkiy, arabi, fors) tilini juda mukammal bilgan hukmdor edi. (*Alfons de Lamartin*)

2-mashq. Matnni ko‘chiring, so‘zning qudrati haqida fikrlashing.

So‘z – benihoya qudratli narsa. Uni o‘z o‘rnida ishlata bilish uchun farosat, malaka va ziyraklik zarur. «Qobusnomá»da shunday bir hikoyat bor: Xalifa Xorun ar-Rashid tush ko‘radi. Tushida barcha tishlari to‘kilib ketgan emish. Xalifa tushni ta’bir qiluvchidan tushining ma’nosini so‘raydi. U shunday deydi: «Sendan oldin barcha yaqinlaring, qarindosh-urug‘laring o‘ladi. Sendan boshqa hech kim qolmaydi». Bu so‘zni eshitgan Xorun ar-Rashid: «Sen mening yuzimga bunday qayg‘uli so‘zni aytding. Mening barcha qarindosh-urug‘larim o‘lsa, so‘ngra men qanday ishga yaratman-u, qanday yashayman?» – deydi darg‘azab bo‘lib va unga yuz darra urishni buyuradi. Keyin boshqa bir ta’birchini chaqirib, undan tushining ma’nosini so‘raydi. U bunday deydi: «Sening umring barcha qarindoshlaring umridan uzun bo‘ladi». Shunda Xorun ar-Rashid: «Barcha aqlning yo‘li birdir va ikkala ta’birning negizi bir yerga boradi, ammo bu ibora bilan u iboraning orasida farq bag‘oyat ko‘pdir», – deydi va unga yuz tillo berishni buyuradi.

3-mashq. Alisher Navoiyning «Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz» degan hikmatli so‘zini sharhlab, kichik hikoya tuzing.



1. Dunyodagi qaysi tillarni bilasiz?
2. Til oilalari deganda nimani tushunasiz?
3. O‘zbek tilining dunyo tillari tizimidagi o‘rni haqida gapiring.

4-mashq. *Uyga vazifa.* «Ona tilim – jon-u dilim» mavzusida matn tuzing.

2-dars. MUSTAHKAMLASH. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

1-topshiriq. Matnni o‘qing, ko‘p kitob o‘qishning inson hayotida tutgan o‘rni haqida so‘zlab bering.

So‘zlash odobi oila, maktabdan boshlanadi. Inson nechog‘lik uzoq umr ko‘rmasin, bu odobga o‘rganishning adog‘iga yetib bo‘lmaydi. Kichiklik chog‘idan to‘g‘ri talaffuzga, so‘z va iboralarni, ismlar, joylar, turfa xil nomlarni to‘g‘ri ifoda qilishga o‘rgatilgan, kitob bilan do‘sst tutingan, xalq ertaklarini ko‘p va xo‘b o‘qigan, sarguzasht dostonlarni miriqib tinglagan bolalarning nutqi boshqa tengdoshlariga nisbatan mukammal, ayni chog‘da, shirali bo‘ladi.

Yoshligida ko‘p ertak tinglagan, kattalar ovoz chiqarib kitob o‘qiganida, diqqat bilan eshitgan bolalar voyaga yetgach, faqat o‘zlarining emas, boshqalarning ham fikrini e’tiborga oladigan bo‘lishadi. (*A.Meliboyev*)

2-topshiriq. Matnga sarlavha qo‘ying va qayta hikoya qiling.

Kichkina bolakay yo‘lda yiqilib tushdi. O‘rnidan shart turdi-da, kulib qo‘ydi. Bir odam unga yaqinlashib, cho‘ntagidan pul chiqarib, uzatdi:

- O‘g‘lim, bir duo qil, men ham sendek bo‘lib yuray.
- Onasi beixtiyor haligi kishiga qarab dedi:
- Aka, nimaga unday qilyapsiz?
- O‘g‘lingizga havasim keldi, yiqilgach, o‘z kuchi bilan turdi ham kulib qo‘ydi... (*Nuriddin Ziyo*)

3-topshiriq. *Tafakkur* so‘zining ma’nolariga diqqat qiling, uning ishtirokida gaplar tuzing.

TAFAKKUR 1 Obyektiv vogelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in’ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati; fikrlash. **2** O’ylash, fikr yuritish, muhokama; o’y.



4-topshiriq. Atoqli yozuvchi Asqad Muxtorning «Yosh do’stlarimga» kitobidan olingan parchani o’qing. Umringiz haqida o’ylab ko’rganmisiz? Uni qanday foydali ishlarga sarf qilyapsiz?

Behuda o’tgan umrni eslashdan ham katta fojia bormi?

Bekor o’tgan soatlarni-ku uncha eslamaymiz, ular unutiladi. Aslida, ular ham har biri kichik bir fojia. Chunki ularni yig‘ib kelsangiz, umrning o’zi bo‘lmasa ham, uning ma’lum bir qismi zoye ketganini anglaysiz. Umrning «ma’lum qismi»da kimdir ilmiy ish yoqlaydi, kimdir jahonni kezib chiqadi, kimdir arab tilini o’rganib oladi, kimdir...

Umr bitta. Odamning biladigan, o’rganadigan, kashf etadigan narsalari esa behisob. Ma’noli o’tgan umr bir mo’jizadir.

5-topshiriq. Yuqoridagi matn yuzasidan bahs uyuştiring.



1. Ona tilining inson hayotida tutgan o’rni haqida so‘zlab bering.
2. Til oilalari deganda nimani tushundingiz?
3. Turkiy tillar oilasiga qaysi tillar kiradi?
4. Ingliz, fransuz, nemis tillari qaysi til oilasiga mansub?

6-topshiriq. Uyga vazifa. «Toshkentning yangi qiyofasi» mavzusida hikoya yozib kelting.



3-dars. TAKRORLASH. SO‘Z BIRIKMASI VA GAP BO‘LAKLARI BO‘YICHA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

Topshiriq. Abdulla Qahhor tomonidan aytilgan fikrga munosabat bildir. Gapdagi so‘z birikmalari va gap bo‘laklarini aniqlang.

Nima uchun ko‘cha harakati qoidasini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi?

5-mashq. Quddus Muhammadiyning shogirdlari bilan bo‘lgan suhbatiga diqqat qiling. Ajratilgan gapdagi so‘z birikmalari va gap bo‘laklarini aniqlang. Siz ham tabiatdagi jonzotlarga shunday munosabatda bo‘lasizmi?

Ustoz bizning «Qo‘ying!» deyishimizga qaramay, dasturxon tuzadi, choy damlab keldi.

Dasturxonga qo‘yilgan noz-ne’matlar orasida shakar borligini sezibmi, qayerdandir chumolilar paydo bo‘ldi. Hatto yuzimda ham o‘rmalayotganini sezdim. Hamza ham sezdi, shekilli, ikkalamiz xuddi kelishib olgандay, chumolini olib tashlashga qo‘l cho‘zdik.

– Qo‘yaveringlar. Tegmanglar, ozor bermanglar. O‘zları tushib ketadi. Ular ham biz kabi jonzot. **Ularning ham biz kabi o‘z uyi, oilasi, bolalari bor.** O‘ldirib qo‘ysak, inson nomimizga dog‘ tushadi, – dedi ustoz. (*H. Murodov*)

6-mashq. Vatan va vatanparvarlik to‘g‘risidagi matnni ko‘chiring. Gap bo‘laklari va so‘z birikmalariga e’tibor qiling. Siz ham vatanparvarmisiz? Shu haqda bahslashing.

Vatan tuyg‘usi eng ulug‘, eng mo‘tabar tuyg‘ulardan biridir. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan Onadek muqaddas. Uni qadrlash, e’zozlash, uning shodlik

va quvonchiga sherik bo‘lish, g‘am-hasratini baham ko‘rish farzandning burchidir. (*Abdulla Avloniy*)

7-mashq. Abdulla Qahhor hikmatlariga munosabat bildiring. Ulardagi so‘z birikmalari va gap bo‘laklarini aniqlang.

Odamzod hasad qilmasligi kerak. Havas qilishi kerak. Havas qilgan odam murodiga yetadi. Inson hamma yerda ulug‘... Uning ulug‘ligi qo‘lidan kelgan ishlarda yaratuvchanligida ko‘rinib turadi. Yaxshi tarbiya ko‘rgan odamning xislatlaridan biri shuki, bunday odam o‘z faoliyatida boshqalardan bir qadam oldinga o‘tsa, darrov orqaga qaraydi, sheriklariga yordam qo‘lini uzatadi, safini kengaytirib, yangi g‘alabani ko‘zlaydi.

 **8-mashq.** Matnni o‘qing. Siz ham yaqinlaringizning sha’ni uchun kurasha olasizmi? Oxirgi xatboshidagi gap bo‘laklari va so‘z birikmalarini aniqlang.

Shukurga alam qildi. Ermatga qo‘lini musht qilib ko‘rsatdi.

– Sen bilan yanagi to‘yda olishaman! – dedi.

Ermat bakovul ro‘parasiga o‘tirishi bilan bir talay bola chopib kelib yoniga cho‘kkaladi. Shukurga tarafkash bolalar bir-biriga so‘z bermay talashdi, bakovulga elandi:

– Bova, Ermat polvon bilan meni olishtiring, u qalin oshnamni yiqitdi.

– Yo‘q, Ermat polvon bilan men olishaman. Shukur xolamning ulti!

– Bova, Ermat polvonga meni chiqaring, Shukur bizning hamsoyamiz! (*Tog‘ay Murod*)



1. So‘z birikmasi deb nimaga aytildi?
2. So‘z birikmasi tarkibidagi hokim va tobe so‘zlarga ta’rif bering.

3. Gap bo‘laklari qanday turlarga bo‘linadi?
4. Gapda kesimning tutgan o‘rni bo‘yicha o‘z mulohazangizni ayting.
5. Aniqlovchi, hol, to‘ldiruvchi ishtirokida gaplar tuzing.

9-mashq. *Uyga vazifa.* Gaplarni ko‘chiring va gap bo‘laklarini aniqlang.

1. Men bilmasligimning bilimdoniman. Bilishga intilmaslik – uyat. (*Abu Ali ibn Sino*) 2. Kitobni tushunib mutolaa qilish kerak. Ba’zan tushunib mutolaa qilishning o‘zi kifoya qilmaydi. Fikrlar tez unutilishi mumkin. Bunday hollarda ayrim zarur fikrlarni yod olish kerak bo‘ladi. (*Abdulla Qodiriy*) 3. Kitob bilan muomala odamlar bilan muomalaga tayyorlaydi. Ikkisi ham birday zarur. (*N. Karamzin*) 4. Kitob – fikrning tolmas qanotlari. (*Oybek*)

4-dars. UYUSHIQ VA AJRATILGAN BO‘LAKLAR BO‘YICHA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

Topshiriq. Gapni ko‘chiring, qaysi bo‘laklar uyushib kelayotganini ayting. *Kimki adovat-u xusumat eksa, albatta, u tashvish-u mashaqqat o‘radi.* (*Zamaxshariy*)

10-mashq. O‘z shahringiz (qishlog‘ingiz)da amalga oshirilayotgan buniyodkorlik ishlari haqida suhbatlashing. Uyushiq bo‘laklar ishtirokida og‘zaki gaplar tuzing.

11-mashq. Matnni o‘qing, uyushiq bo‘laklar va ajratilgan bo‘laklarga izoh bering.

Hamma ham do‘stilarini, yaqin kishilarini e’zozlaydi, ularning ko‘p bo‘lishini istaydi. Ayniqsa, har bir odam o‘zining oqil, obro‘-e’tiborli, iste’dodli, sadoqatli do‘stilari – safdoshlari bilan faxrlanadi, ammo do‘silik mezoni faqat shular bilan o‘lchanmaydi. Har bir

odamning do'stlari oldida burch va mas'uliyatlari borki, ularni ado etolmasa, do'stlari uning do'stligini e'tirof etmaydilar, tan olmaydilar. Har bir odam do'stlaridan shu burch va mas'uliyatlarini ado etishni talab qiladi. (*M. Mahmudov*)

12-mashq. Gaplarni ko'chiring, ajratilgan va uyushiq bo'laklarni aniqlang. «Buyuk ipak yo'li» tushunchasi nimani anglatadi? Uning qayta tiklanishi xalqimizga qanday naf keltiradi?

1. Xalqaro savdo yo'li – Buyuk ipak yo'li Temur va Temuriylar davrida juda serqatnov bo'lgan. (*B. Ahmedov*)
2. O'zbekiston – ona diyor, bag'ri to'la hikmatdir. (*Sayyor*)
3. Turnalar arg'imchog'i g'ira-shira osmon ortiga – bulutlar bag'riga singiydi. (*X. Eshonqulov*)
4. Endi sizlar – aziz onalar, opa-singillar, yurt egalari, kelajak sohiblari yo'lchi yulduz, mayoq singari istiqbolimizni yoriting, aqlimizni peshlang, ongimizni boyiting. (*A. Muxtorov*)
5. Insonni ehtiros emas, uning buyuk bisoti – aqli, tafakkuri boshqarishi kerak. (*E. Vohidov*)



1. Uyushiq bo'laklar deb qanday gap bo'laklariga aytildi?
2. Ajratilgan bo'laklarga misollar keltiring.
3. Uyushiq bo'laklar orasida qanday tinish belgilari ishlatiladi?

13-mashq. *Uyga vazifa.* Gaplarni ko'chiring, uyushiq bo'laklarni aniqlab, ularni izohlang.

Bizning ayollar hazrat Navoiyning kulliyotini tokchalarga terib qo'yadilar, g'avvos bo'lib bu ummondan fikr gavharini teradilar. Fuzuliy, Bedil va Mashrab devonini yostiqlari ostiga qo'yib ugraydilar. Xirmon sayli, qovun sayli, gul bayrami, Mehrjon bayrami, Navro'z shodiyonalari she'rsiz, bahr-u bayt va o'lanlarsiz o'tmagan. Piyolalar gardiga, belbog'lar, dastro'mollar hoshiyalariga mehr-muhabbat, saodat baytlarini yozganlar, kashta qilib tikanlar. (*Muzayyana Alaviya*)

5-dars. UNDALMALI, KIRISH SO‘ZLI GAPLAR BO‘YICHA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

Topshiriq. She’riy parchani o‘qing. Undalma va kirish so‘zlarni aniqlab, tinish belgilarining qo‘yilishini tushuntiring. She’rdagi g‘oya haqida gapiring.

Ona tilim, sen borsan, shaksiz,
Bulbul kuyin she’rga solaman.
Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to‘ti bo‘lib qolaman. (*A.Oripov*)

14-mashq. Undalmalar va kirish so‘zlarni toping, tinish belgilarining ishlatilishini izohlang.

1. Yurtim, dalalaring bebafo, tuprog‘ing tabarruk. (*Tog‘ay Murod*)
2. Kamol, Kamoljon, uxlab qoldingmi? Kel, o‘g‘lim, ovqating sovib qoldi. (*S. Abdullayeva*)
3. Bu vidolashuv, ayniqsa, Ulug‘bekka qattiq ta’sir qildi. (*B. Ahmedov*)
4. O‘zimning bulbulim, nega to‘xtab qolding, bulbuljon? (*Yo‘ldosh Sulaymon*)
5. Afsuski, hayotimizda o‘zgarishlarga to‘g‘anoq bo‘layotgan kimsalar hamon uchramoqda. (*E. Vohidov*)
6. Yaxshi, bolam, yaxshi! Ko‘pning nazaridan qolma. (*Shuhrat*)

15-mashq. Gaplarni o‘qing, undalmalarni toping, ularda tinish belgilarining ishlatilishiga diqqat qiling.

1. Ey ko‘ngil, boqmagil jahon ishiga, Ki jahon qilmadi vafo kishiga. (*Alisher Navoiy*)
2. Ey bo‘tam, tilingni yomon so‘zlardan saqla! (*Zamaxshariy*)
3. Birodar, bu dunyo hech kimga qolmas, Qolur yaxshi noming jahonda, shu bas. (*Abulqosim Firdavsiy*)
4. Ko‘karmagan daraxtni, albatta, kesish va o‘rniga yangisini ekish kerak. (*Abdulla Qodiriy*)

5. Bu qasidam senga, xalqim,
Oq sut-u tuz hurmati,
Erkin o‘g‘lingman, qabul et,
O‘zbegin, jon o‘zbegin. (*E.Vohidov*)

 **16-mashq.** Undalmalarning qo'llanishiga va tinish belgilarining ishlatalishiga e'tibor bering. Navoiy dahosi deganda nimani tushunasiz? Shu haqda bahslashing.

1. Ey Navoiy, eldan bir chaqa ham tama qilma, aksincha, o'zing elga bersang, buni «karam» deydilar. 2. «Ey barcha fanlarni bilguvchi olim, bu ish xayolingga yaxshi kelibdi. Bu yoqimli ishga hoziroq kirish», – dedi. 3. Suhayl o'ziga kelib qarasa, qo'l-oyog'i bog'langan. Jobir unga qarab: «Ey mening asirim, jangda bo'sh kelmading, – dedi. – Men minglab odamlar bilan urishdim, lekin senga o'xshagan dovyurakni hech ko'rmaganman». 4. Mas'ud dedi: «Ey ochiqko'ngilli kishi, sening savolningga javob berish shart». 5. Muqbil dedi: «Ey shoh, men sizning umringiz uzoq, martabangiz osmon bo'lishini istayman». («Xamsa» asaridan)

17-mashq. Parchani o'qing, siz ham Alisher Navoiy avlodi ekanligingizdan faxrlanasizmi? Uning ijodini qanchalik o'rgandingiz? Shu haqda suhbatlashing. Matndagi undalmalarni aniqlang.

O'zbekiston Xalq shoiri Erkin Vohidov talabalik yillarda Mirtemir domlani ko'rish, suhbatlaridan bahramand bo'lishga boribdilar.

Suhbat qilib o'tirgan xonalaridagi ish stoli ustida Pushkinding rasmi turgan ekan. Anchadan so'ng suhbat ichkari uydagi kutubxonada davom etibdi. Ittifoqo Erkin akaning ko'zi kitob javonidagi Mir Alisher Navoiyning suratiga tushibdi va beixtiyor savol beribdilar:

– Ustoz, nega Pushkinding rasmini ko'rindigan joyga – ish stolingizga qo'ygansiz-u, bobomiz Alisher Navoiyning rasmlari ichkarida?

Mirtemir domla shunday javob beribdilar:

– Erkinjon, men hazrat Alisher Navoiyning avlodi, ul zot qoldirgan ma'naviy merosning merosxo'ri ekanim bilan faxrlanaman-u, biroq, afsuski, Pushkinni o'qib tushunganchalik

hazrat Navoiyni tushuna olmayapman, ma'nolar olamiga kirolmayapman. Binobarin, hazratdan uyalganim, yuzlariga qarashga xijolat bo'layotganim tufayli shunday qilganman. ("Ibratli hikoyalari va xislatli hikmatlar" kitobidan)



1. Undalma deb nimaga aytildi?
2. Undalmalar gapning boshida, o'rtasida, oxirida kelganda, tinish belgilari qanday qo'yildi?
3. O'z nutqingizda kirish so'zlar va birikmalardan foydalanasizmi?

18-mashq. *Uyga vazifa.* Gaplarni ko'chiring. Undalmalar va kirish so'zlarning ostiga chizing.

1. Rosti, dunyoda inson bolasidan ham aziz va ardoqli zot bo'lmasa kerak. (*B. Utemurodov*) 2. Bilasizmi, ma'naviyat urug'i inson bolasiga, eng avvalo, ona suti, uning allasi, oila va keng jamoatchilik ta'siri bilan singadi. (*Q. Qodirov*) 3. Aslida, yuragida milliy iftixor tuyg'usi, Vatan muhabbatni jo'sh urgan bilimdon, dono, tadbirkor insonlar har bir mamlakatning salohiyati, kelajagini belgilay oladigan katta kuch hisoblanadi. (*U. Jumayev*) 4. Do'st yomon kunda bilinadi, deyishadi. Menimcha, ularning qandayligi yaxshi kunda ham bilinadi. (*Ch.Aytmatov*)

6-dars. MATN VA LUG'AT USTIDA ISHLASH

Topshiriq. Matnni ko'chiring. Qaysi gap bo'laklari uyushib kelayotganini aniqlang. Matndagi g'oyaga o'z fikringizni bildiring.

*Quyosh buloq suviga ham, mag'zavaga ham baravar nur sochaveradi.
Yer chuchmoman ni ham, chaqirtikanakni ham baravar o'stiraveradi...
Ota-onaga bolaning yaxshi-yomoni yo'q... (O'.Hoshimov)*


19-mashq. Mustaqillik bayramini qanday nishonlaganiningizni o'rtoqlaringizga so'zlab bering.

20-mashq. Quyidagi so‘zlarni lug‘at daftaringizga ko‘chiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

IFTIXOR 1 Shon-sharaf hissi, faxr. **2** Shon-sharaf keltiruvchi, faxrlansa arziydigan ish.

G‘URUR 1 Insonning o‘z qadr-qimmatini bilish, uni hurmat qilish hissi; izzat-nafs. **2** Faxrlanish, mammunlik tuyg‘usi; faxr, iftixor. **3** Faxrlanishga asos bo‘ladigan kimsa, narsa va shu kabilar. **4** Kibrlanish tuyg‘usi; mag‘rurlik, kibr-havo.

21-mashq. Rasm asosida «O‘zbekistonda oltin kuz» mavzusida matn tuzing. Matnda uyushiq bo‘laklar va ajratilgan bo‘laklardan foydalaning.



22-mashq. Uyga vazifa. Gaplarni ko‘chiring. Ulardagi undalma va kirish so‘zlarning ma’nolarini izohlang.

1. Axir, oriyat o‘zbekning vijdoni emasmi? (*P. Qodirov*)
2. Ayol kishiga, avvalo, ona deb qarasak, hammasi joy-joyiga tushadi. (*O. Yoqubov*)
3. Komila, nihoyat, tavakkaliga bir qovunni uzdi-da, hidlab olib chiqdi. (*Oybek*)
4. Umuman, odam bolasi tug‘ilibdiki, nimanidir himoya qilib yashaydi. (*A. Oripov*)
5. Kuchli shovqin nafaqat katta yoshdagи kishilar, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatiga ham zarar keltiradi. (*M. Saidov*)

7-dars. SODDA VA QO'SHMA GAPLAR

Topshiriq. Quyidagi gaplarni o'qing va ularning tuzilishiga ko'ra qanday gap ekanligini aniqlang.

1. *Jaloliddin Manguberdi mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda jasorati tufayli buyuk vatanparvar va milliy qahramon sifatida Sharq-u G'arbda dong taratdi. (B. Ahmedov)*
2. *Quvonarlisi shundaki, Fitratning kitobi yangi milliy musiqashunosligimizga asos soldi. (R.Inog'omov)*



Bilib oling. Bitta kesimlik belgisiga, mazmuniy va ohang tugalligiga ega bo'lgan gap *sodda gap*, ikki yoki undan ortiq sodda gapning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan, ohang tugalligiga ega bo'lgan butunlik *qo'shma gap* sanaladi.

! Esda saqlang. Gap uchun muhim belgi kesimlikdir. Kesimning nechталиги gaplarni sodda va qo'shma gaplarga ajratishga asos bo'ladi. Masalan: *Men o'quvchiman* – sodda gap; *Olim bo'lsang, olam seniki* – qo'shma gap.

23-mashq. Gaplarni ko'chiring va tuzilishiga ko'ra turlarga ajrating.

1. Badbaxt ul kishidirki, anga so'z ta'sir qilmas. (*Mahmudxo'ja Behbudi*)
2. Diyonat va nomus har oilaning saodati va intizomi uchun emas, balki bir mamlakatning saodati va barqarorligi uchun ham zarur va lozimdir. (*Fitrat*)
3. Har kishikim quyosh chiqquncha uyquda bo'lsa, rizqi kam bo'lur. ("Qobusnoma"dan)
4. Qilmoq bila parvarish tikan gul bo'lmas, ham tarbiyat ila zog' bulbul bo'lmas. (*Ogahiy*)
5. Har bir kitob xazina, lekin ular orasida beباho xazinalar ham bor. Shulardan biri – "Farg'ona tong otguncha"ning ikkinchi kitobi. (*Tohir Malik*)

24-mashq. Matnni o‘qing. Avval sodda gaplarni, so‘ng qo‘shma gaplarni ko‘chiring. Ularning o‘zaro farqini aytинг.

Odam borki, fikr yuritish qobiliyatiga ega. Mutafakkir so‘zining o‘zagi ham fikrdir, lekin har bir fikr yurita oladigan kishiga nisbatan «mutafakkir» so‘zini qo‘llab bo‘lmaydi. Yuksak, teran va atroficha fikr yurita oladigan va ijtimoiy faoliyatidan el-yurtiga naf yetadigan siymolarnigina mutafakkir deyish mumkin. Amir Temur, Husayn Boyqaro va Bobur faoliyatida davlat tafakkuri ustunlik qilgan bo‘lsa, Ulug‘bek faoliyatida ilmiy tafakkur yetakchi edi. («*Vatan tuyg‘usi*» kitobidan)

25-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Sodda va qo‘shma gaplar o‘rtasidagi farqni izohlang.

1. Haqiqiy do‘stlarning sadoqati boshga ish tushganda bilinadi. (*Oybek*) 2. Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo‘ldi. (*Abdulla Qahhor*) 3. Jaholat bilan g‘azab odamga ashaddiy dushmandir, bu ikkala dushman dastidan jon hamisha azob tortadi. (*Yusuf Xos Hojib*) 4. G‘ayratlining yuragi qaynar, G‘ayratsizning yuragi o‘ynar. (*Maqol*) 5. Bilim bilan saodat yo‘li ochiladi, shunga ko‘ra, ilmli bo‘l, baxt yo‘lini izla. (*Ahmad Yugnakiy*)

26-mashq. Berilgan gaplarni davom ettiring. Ularda ilgari surilgan g‘oya to‘g‘risida suhbatlashing.

1. Bola aziz... 2. Yomg‘ir bilan yer ko‘karar... 3. Aql ko‘pga yetkazar... 4. Tilingda bo‘lsa boling... 5. Yaxshi topib gapiradi...



1. Sodda gap deb qanday gaplarga aytildi?
2. Qo‘shma gaplar deb nimaga aytildi?
3. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar qaysi grammatic vositalar orqali bog‘lanadi?


27-mashq. Uyga vazifa. «*Kim bo‘lsam ekan?*» mavzusida hikoya yozing. Unda qo‘shma gaplardan foydalaning. Sodda va qo‘shma gaplar o‘rtasidagi farqni izohlang.

8-dars. QO'SHMA GAP QISMLARI VA ULARNI BOG'LOVCHI VOSITALAR

1-topshiriq. Quyida berilgan qoliplarga mos keladigan gaplarni qo'yib, ularni daftaringizga ko'chiring. Qo'shma gap qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'langanini ayting.

1) 

4) 

2) yo 

5) 

3) goh 

2-topshiriq. Bog'lovchilar qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga yana qanday vazifani bajarishini aniqlang.



Bilib oling. Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar qo'shma gap qismlari sanaladi. Bu qismlarni bog'lash uchun xizmat qiladigan vositalar esa bog'lovchi vositalar hisoblanadi. Qo'shma gap qismlari quyidagi bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi: 1. Bog'lovchilar: a) teng bog'lovchilar (*va, hamda, ammo, lekin, biroq, yo, yo..., yo, dam..., dam...*); b) ergashtiruvchi bog'lovchilar. 2. Bog'lovchi vazifasidagi vositalar: a) *bo'lsa, esa, deb;* b) *-u (-yu), -da, -ki* yuklamalari; d) nisbiy so'zlar; e) *shuning uchun, shu tufayli, shu sababli* singari ko'makchili qurilmalar; f) shart mayli qo'shimchasi *(-sa)*. 3. Ohang.

28-mashq. Ko'chiring. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalarni aniqlang.

1. Do'stlikdan o'tadigan hech narsa yo'q, shuning uchun do'st orttirish imkoniyatini sira qo'ldan boy berma. («*Hikmatnomा*»dan)
2. Bilim har qanday muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tishga zamin yaratadi, shuning ushun farzandlarimiz yuksak bilimga ega bo'lislari kerak. («*Vatan ravnaqi*» risolasidan)
3. Shuni bilki,

odamlar do'stlik tufayli baxtiyordir. («Qobusnama»dan) 4. Yaxshi fikr tiniq uslubni talab qiladi, uslub esa fikr libosidir. («Tafakkur gulshani»dan) 5. Tabiat kimga aql-idrok, bilim bersa, u ezgu ishlar qilishga qo'l uradi. (*Yusuf Xos Hojib*)

29-mashq. *Ammo, lekin, biroq bog'lovchilari ishtirokida qo'shma gap hosil qiling. Qo'shma gapni qismlarga ajrating.*

30-mashq. Gaplarni ko'chiring, qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalarni tushuntiring.

1. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u mehr kattalar ko'nglida abadiy qoladi. (*Alisher Navoiy*)
2. Fikr ravshan bo'lsa, albatta, uning shakli ham ravshan bo'ladi. (*P. Qodirov*)
3. Haqiqiy olim o'zining ilmi bilan maqtanmaydi, chunki u o'zidan ham zo'r olim va fazil borligini biladi. («Hikmatnama»dan)
4. Badanning quvvati – ovqat, aqlning kaliti – hikmat. (*Maqol*)
5. Kimning qalbi pok bo'lsa, u to'g'ri va baxtli hayot kechirishga haqli. (*H. Razzoqov*)

31-mashq. Sodda gaplarning orasiga bog'lovchi vositalardan mosini qo'yib, ularni qo'shma gaplarga aylantiring.

1. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya tajriba bilan amalga oshiriladi. (*Forobiy*)
2. Aslida, qo'shiq aytishning shukuhi o'zgacha. Kishi qo'shiq aytganda ruhan yengil tortadi. (*E. Vohidov*)
3. Men Abdulla Oripov she'rlarini yaxshi ko'raman. Uning fikrlash tarzidagi o'ziga xoslik menga yoqadi. (*E. Vohidov*)
4. Kitob insondan hech narsa tilamaydi. U odob-axloqning, bilimning bulog'idir. («Otalar so'zi»)
5. Kitob – bir bog'. Yozuvlar uning gullaridir. (*Qayum Nosiriy*)
6. Ilm – bir daraxt. Odob uning mevasidir. (*Maqol*)

32-mashq. Ayiruv bog'lovchilari ishtirokida qo'shma gap hosil qiling. Qo'shma gapni qismlarga ajrating.



- 1.Qo'shma gap qismlari deganda nimani tushunasiz?
- 2.Qo'shma gap qismlari qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi?
- 3.Bog'lovchi vositalarning har bir turiga misollar keltiring.

33-mashq. *Uyga vazifa.* O'qiyotgan badiiy asaringizning bir sahifasida uchragan qo'shma gaplarni ko'chiring. Qo'shma gap qismlari qanday bog'lovchi vositalar bilan bog'langanini aniqlang.

9-dars. QO'SHMA GAPLAR TASNIFI

1-topshiriq. Teng bog'lovchilar haqida gapiring va ular ishtirokida ikkita qo'shma gap tuzing.

2-topshiriq. *Chunki, shuning uchun bog'lovchi vositalari ishtirokida bittadan qo'shma gap tuzing.*

3-topshiriq. Berilgan gap qismlari o'zaro qanday bog'langanini ayting, uni bog'langan va ergashgan qo'shma gaplarga aylantirishga harakat qiling. *Kuz keldi, yig'im-terim boshlandi.*



Bilib oling. Qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra qo'shma gaplar uch guruhga bo'linadi: 1.Bog'langan qo'shma gaplar. 2. Ergashgan qo'shma gaplar. 3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

34-mashq. Gaplarni o'qing. Qo'shma gaplarni topib ko'chiring. Ularni guruhlarga ajratting. Gaplarni nima asosida guruhlarga ajratganingizni ayting.

1. Baraka top, jiyan. Sen borsan, ko'nglim to'q. Shu, mashina haydashni o'rganib olsang, juda soz bo'lardi. Qatorda noring bo'lsa, yueling yerda qolmaydi, deydilar. (*Hakim Nazir*) 2. Goh kechalari shamol bo'riday uvullab chiqardi, goh sharros yomg'ir quyib qolardi. (*E. Usmonov*) 3. Guli yo'q bo'stondan yaproq yaxshi, foydasi yo'q yo'ldoshdan tayoq yaxshi. (*Maqol*) 4. Dunyo

ko‘rgan odam bilan hamsuhbat bo‘lsang, bahri diling ochiladi. (*O‘. Hoshimov*)

35-mashq. Matnni o‘qing, qo‘shma gap qismlarini aniqlab, ularni izohlang.

O‘qishli kitob go‘zallikdir, lekin go‘zallikda ham go‘zallik bor. Qorong‘i kechada otilgan mushak ham go‘zal, quyoshga qarab xandon tashlab turgan gul ham go‘zal. Osmonda sochilib ketgan rang-barang olov va oqish izlar go‘zalligi ko‘zni qamashtirsa ham, puch go‘zallik, shuning uchun bebaqodir. Gulning go‘zalligi esa to‘q go‘zallik, chunki uning bag‘rida hayot bor, shuning uchun abadiy go‘zallikdir. G‘uncha guldan ham go‘zalroq, chunki uning bag‘rida ikki hayot – o‘z hayoti va yana gul hayoti bor. (*Abdulla Qahhor*)

36-mashq. Gaplarni o‘qing, ularni qo‘shma gap, ergashgan qo‘shma gap, bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarzida uch guruhga bo‘lib ko‘chiring.

1. Shogirdlar qancha ko‘p bo‘lsa, ko‘ngil qafasi shuncha ravshanroq bo‘ladi. (*G‘afur G‘ulom*) 2. Og‘ziga kelganini demoq – nodon ishi va oldiga kelganini yemoq – hayvon ishi. (*Alisher Navoiy*) 3. Oqil gar so‘z bila so‘zni yopar, Orif o‘shal so‘zda o‘zini topar. (*Haydar Xorazmiy*) 4. Hunar o‘rgan, chunki hunarda ko‘p sir, Yopiq eshiklarni ochar birma-bir. (*Nizomiy*) 5. Jahonda hammadan to‘g‘rilik a’lo, Egrilikdan ortiq yo‘qdir hech balo. (*Firdavsiy*)

37-mashq. Sodda gaplarni qo‘shma gaplarga aylantiring.

Biz ham uning ketidan bozorga kirdik. Zarafshon vodisida yetishtiriladigan ho‘l-u quruq noz-ne’matlar bari shu yerda. Ranglar-chi, tabiiy ranglar. Tog‘ora-yu savatlarda katta Minorga o‘xshatib terib qo‘yilgan pomidorlar, anjirlar, xirmon qilib uyib tashlangan

qovun-tarvuzlardagi oq-u qora, ko‘k-u zangor – olamdagи hamma rang bir-biri bilan rang talashadi. Ulardan taralayotgan muattar hidchi?! Quyoshning nuri, yerning sharbatini shimb pishgan zilday bosvoldini qo‘lingizga olib bir hidlasangiz, bemalol qovun polizga borib qaytganning savobini topasiz. (S. Anorboev)

38-mashq. Qo‘shma gaplardan foydalanib, «Kuz keldi – rizq keldi» mavzusida matn tuzing.

-  1. Qo‘shma gaplar qaysi belgisiga ko‘ra turlarga bo‘linadi?
- 2. Qismlari teng bog‘lovchilar yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar qanday qo‘shma gap sanaladi?
- 3. Qismlari ergashtiruvchi bog‘lovchilar yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar qanday qo‘shma gap hisoblanadi?
- 4. Qismlari ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar qanday qo‘shma gap sanaladi?

39-mashq. *Uyga vazifa.* Qo‘shma gaplardan foydalanib, «Hashar» mavzusida insho yozing.

10-dars. MUSTAHKAMLASH. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

1-topshiriq. Gaplarni ko‘chiring, tuzilishiga ko‘ra turlarini va bog‘lovchi vositalarni aniqlang.

- 1. Qandak o‘rigimizning uchida allaqanday qizilbosh qushcha bilan sariqbosh sa’va galma-galiga chuldur-chuldurlab yotibdi, hovuz bo‘yida bulbul chax-chaxlab qo‘yadi. (M.Mansurov)
- 2. Arzigelning gapiga kimdir pastdan javob qaytardi, lekin uni Mashrab eshitolmadi. (*Shuhrat*) 3. Chang osmonga chiqsa ham, qiymati hech qachon oshmaydi. (*Tohir Malik*) 4. Onasiz o‘choqda olov o‘chadi, uy yemiriladi. (*R.Hamzatov*) 5. So‘zimizning qadrini oshira olsak, o‘zimizning qadrimiz oshadi. (A.Alimbekov)

2-topshiriq. Pahlavon Mahmud haqidagi rivoyatni o‘qing, uni qayta hikoya qiling.

Xalq orasida og‘izdan og‘izga ko‘chib yurgan bir rivoyat bor. Pahlavon Mahmud Hindistonga borib, kurashga tushishi kerak. Biroq hamma biladiki, u bilan tenglashadigan polvon yo‘q. Pahlavon Mahmud bellashuv oldidan bir ziyoratgohga borib qoladi. U yerda bir ayolning zor yig‘lab, Xudodan iltijo qilib o‘tirganini ko‘radi. Pahlavon Mahmud ayoldan sababini so‘raganda, ayol javob qiladi: «Xivadan Pahlavon Mahmud kelibdi, u bilan o‘g‘lim kurashga tushishi kerak. Men o‘g‘limga Xudodan omad tilab o‘tiribman».

Pahlavon Mahmud onaizorning bu iltijosidan ta’sirlanib, kurashda ayolning o‘g‘lidan yiqligan ekan.

✓ **3-topshiriq.** Gaplarni ko‘chiring, tuzilishiga ko‘ra turlarini aniqlang, sodda gaplarni bog‘lovchi vositalarni toping. Gaplarda ilgari surilgan g‘oya to‘g‘risida bahslashing.

1. Hayot bo‘lmasa, boshqa biror narsa bo‘lmaydi. (*Fitrat*)
2. Hayot kishining diydasini qattiq qiladi. Lekin tabiatning hikmati shundan iboratki, u inson bolasini har qanday quvonchga ham, iztirobga ham tayyor holda ro‘baro‘ qilishga oshiqadi. (*A. Oripov*)
3. Ayol borki, bola kulgisi, bola ingasi kabutar kabi olam uzra qanot qoqib jahon kezadi. (*T. Nafasov*)
4. Kalon har safar og‘iz juftlaganida dam onasining qanday ahvolga tushishidan xavotirlanar, dam nazarida yangasi bilan jiyanlari undan umidvor bo‘lgandek iltijoli ko‘zlarini unga qadab turgan bo‘lishardi. (*X. Do‘stmuhhammad*)
5. Ona tilimiz shunday qudratli, jarangdor, boy, shu sababli adabiyotimiz bardavom rivojlanmoqda, yangilanmoqda. (*O.Suyundiqova*)

4-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning izohini lug‘at daftaringizga ko‘chiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

IZTIROB Ruhan ezilish, siqilish holati; ruhiy azob.

LUTF 1 Iltifot, marhamat, olижаноблик. **2** Со‘з yoki gapni bir necha ma’noda ishlatishga asoslangan со‘з о‘йни; qochirim.

5-topshiriq. Rasm asosida «О‘zbekistonning qadimiy shaharlari» mavzusida og‘zaki matn tuzing. Matnda sodda va qo‘shma gaplardan foydalaning.



- 1. Kesimlik belgisi deb nimaga aytildi?
- 2. Sodda gaplarning asosida nechta kesim bo‘ladi?
- 3. Qo‘shma gaplar necha turli bo‘ladi? Misollar keltiring.
- 4. Sodda gaplar bir-biri bilan qanday vositalar orqali bog‘lanadi?

6-topshiriq. *Uyga vazifa.* Gaplarni davom ettiring, bog‘lovchi vositalarni aniqlab, ularni izohlang.

- 1. Kimning bilimi sayoz bo‘lsa...
- 2. Qayerda ahillik bo‘lmasa...
- 3. Toki yuraging urib turar ekan...
- 4. Hamma yoqni oppoq qor qopladi va ...

11-dars. BOG'LANGAN QO'SHMA GAP HAQIDA MA'LUMOT

1-topshiriq. Berilgan gaplarni qismlarga ajrating. 1. *Shu onda chiroq o'chdi va birdaniga o'q uzildi. (Abdulla Qahhor)* 2. *Mana, sen ketding-u, bo'ldim xayolkash. (Zulfiya)* 3. *Yo'lovchining o'zi ichkariga kirdi-yu, ikki ko'zi tashqarida qoldi. (Omon Muxtor)*

2-topshiriq. Gap qismlarini bog'lovchi vositalarni aniqlang.

 **Bilib oling.** Qismlari teng bog'lovchilar, *bo'lsa, esa so'zlari, -u (-yu), -da yuklamalari yordamida bog'langan gaplar bog'langan qo'shma gaplar* hisoblanadi. Ularning qolipi *teng bog'lovchilar* orqali ifodalanadi.

40-mashq. O'qing. Berilgan gaplardagi bog'lovchi vositalarni aniqlang.

1. Sarbon shundog' dedi-da, quchog'ini ochib Abu Bakr tomon kela boshladи. 2. To'lagan ro'molchasini cho'ntagidan oldi va boshqatdan qatladi-da, yana cho'ntagiga solib qo'ydi.
3. Uzun bir yog'och topdi-da, asta olmani o'ziga tomon «hayday» boshladи, ammo olma quvlik qilib yigitni aldar, yog'och uchi tegishi bilanoq suvgaga bir sho'ng'ib, yana «qochib» qolardi.
4. Yo'q, faqat meni bilishmaydi, lekin boshqalarni, jumladan, seni ham yaxshi bilishadi.
5. Hujrasiga qaytdi-yu, o'lay boshladi.
6. Asalxon e'tibor bilan tingladi-yu, javob berish o'rniqa indamay yo'lida keta berdi. (*Muhammad Ali*)

41-mashq. Berilgan fe'llar ishtirokida bog'langan qo'shma gaplar hosil qiling.

1. Oqardi, to'kildi.
2. Bukildi, salom berdi.
3. Nigoron bo'ldi, nasib qilmadi.
4. Hayron bo'ldi, nafasi tiqildi.
5. Yiqildi, shikastlandi.
6. Azoblandi, qiynaldi.
7. Kezdi, uyg'ondi.
8. Aynidi, yog'a boshladi.
9. Qo'msadi, yig'ladi.
10. Yuraverdi, g'oyib bo'ldi.

42-mashq. Gaplarni o‘qing, bog‘langan qo‘shma gaplarni aniqlang. Sodda gaplarning o‘zaro bog‘lanishini izohlang.

1. Goh kechalari shamol bo‘riday uvullab chiqardi, goh sharros yomg‘ir quyib qolardi. (*E. Usmonov*) 2. Vijdonli kishini ta’qib etish mumkin, ammo sharmanda qilish mumkin emas. (*F. Volter*) 3. Uning so‘zлари jonli chiqdi-yu, lekin savollar shoshirib qo‘ydi. (*Hakim Nazir*) 4. Oyim gapiryapti-yu, mening ko‘zlarim Kimsan akamda. (*O’. Hoshimov*) 5. Umrlar o‘tar-u, kitoblar yashar. (*G‘afur G‘ulom*)

43-mashq. Qo‘shma gaplar orasiga qavs ichida berilgan vositalardan mosini qo‘yib, ko‘chiring.

1. Dushman nasihatiga qarab ish tutmoq xato, (*yo, ammo, va*) nima deganini bilib qo‘ymoq ravo. (*Abdulla Qodiriy*) 2. Har bir narsa aqlga muhtoj, (*lekin, yoxud, esa*) aql tajribaga muhtojdir. 3. Tong cho‘qqidan oshdi (*biroq, va, lekin*) qishloq uzra quyildi. (*T. Sodiqova*) 4. Biz shahar havosidan qochib, tabiatda jon asragimiz keladi (-yu, *biroq, ammo*) sho‘rlik tabiatning o‘zi bizdan bezillaydigan bo‘lib qolibdi. (*O’. Hoshimov*)

44-mashq. Quyida berilgan sodda gaplarni davom ettirib, bog‘langan qo‘shma gaplar hosil qiling.

1. Pomir tog‘larining cho‘qqilarida doim qor bo‘ladi... 2. Salima dam olish kuni teatrga bormoqchi edi... 3. Cho‘l tabiatni bahorda juda chiroyli bo‘ladi... 4. T. Malikning «Alvido, bolalik!» asarini o‘qib chiqdim... 5. Yigit kishiga qirq hunar oz deyishadi...

-  1. Bog‘langan qo‘shma gap deb qanday gaplarga aytildi?
- 2. Qismlari *bo‘lsa, esa* so‘zлари yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar tuzing.
- 3. Qismlari -u (-yu), -da yuklamalari yordamida bog‘langan qo‘shma gap tuzing.

45-mashq. *Uyga vazifa.* «Kuz manzaralari» mavzusida matn tuzing. Unda bog‘langan qo‘shma gaplardan foydalaning.

12-dars. BIRIKTIRUV BOG‘LOVCHILARI YORDAMIDA BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAPLAR

1-topshiriq. Ko‘chiring. Biriktiruv bog‘lovchisining tagiga chizing va qanday vazifa bajarayotganini ayting. 1. *Ro‘paradagi g‘orning bag‘ridan qora tutun ko‘tarildi va u yerdan yo‘tal tovushi eshitildi.* (Oybek) 2. *Anor so‘zlar va Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirar.* (Hamid Olimjon)

2-topshiriq. Biriktiruv bog‘lovchisining vazifalarini aniqlang.



Bilib oling. Biriktiruv bog‘lovchisi qo‘shma gapning payt, sabab-natija munosabatlarida bo‘lgan qismlarini bog‘lab keladi.

Qismlari o‘rtasida sabab-natija munosabati ifodalangan qo‘shma gaplarda ikkinchi qism oldidan *natiжada* so‘zini qo‘yish mumkin bo‘ladi. Masalan: *Anor so‘zlar va Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirar.* (Hamid Olimjon) // *Anor so‘zlar, (va) natiжada Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirar.*

! Esda saqlang. Ba’zan *-u (-yu), -da* yuklamalari ham biriktiruv bog‘lovchilari bajargan vazifalarni bajaradi.

46-mashq. Ko‘chiring. Qismlari biriktiruv bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarni aniqlab, bu qismlar o‘rtasida qanday mazmuniy munosabatlar borligini ayting.

1. U har uch qadamda bir to‘xtab, nafasini rostlay-rostlay tepaga zo‘rg‘a yetdi, qopni ag‘dardi-yu, muvozanatni saqlay olmay o‘tirib oldi.
2. Gulchehra «piq» etib kului-da, cho‘zilib tugunni oldi.
3. Mashhur qora qashqa ayg‘irining chilvirini xirmondagи bolalarga tutqazdi-da, dabdurustdan chollar bilan gaplashib turgan Komilaga yuzlandi.
4. To‘satdan eshik sharaqlab ochildi va ostonada Ertoyev paydo bo‘ldi.
5. Inobat qizishib ketib, pisandaga o‘tganini endi payqadi va uyalib yerga qaradi. (O. Yoqubov)

47-mashq. Va, hamda bog‘lovchilari yordamida gaplar tuzing.

48-mashq. Nuqtalar o‘rniga bog‘lovchilardan mosini qo‘yib, ko‘chiring.

1. Dekabr oyining boshida bir qor yog‘di..., keyin yana oftob charaqlab, havo ilib ketdi. (*P. Qodirov*) 2. Ko‘pirar tomirlarda qon... portlar hademay bu o‘tli vulqon. (*G‘afur G‘ulom*) 3. Kuzning o‘rtalarida havo bir-ikki daf‘a aynidi..., vodiya qalim tuman tushdi. (*Said Ahmad*) 4. Keta boshladim..., u notanish odamning qayoqqa borgani meni qiziqtiraverardi. (*Sh. Xolmirzayev*) 5. Bu yerda uzumzor va yong‘oqzorlar ko‘p edi, ... tog‘ manzarasi ham boshqacha edi.

49-mashq. Va bog‘lovchisi ishtirokida 4 ta qo‘shma gap tuzing. Qo‘shma gap qismlari o‘rtasida qanday mazmuniy munosabat ifodalananayotganini ayting.



1. Biriktiruv bog‘lovchilari qanday munosabatda bo‘lgan qo‘shma gap qismlarini bog‘laydi?
2. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lab kelgan va bog‘lovchisi o‘rnida qaysi hollarda -u (-yu), -da yuklamalarini qo‘llash mumkinligini aniqlang.

50-mashq. Uyga vazifa. O‘zingiz o‘qiyotgan badiiy asardan bog‘langan qo‘shma gaplarga 6 ta misol toping. Ularning bog‘lovchi vositalarini aniqlang.

13-dars. ZIDLOV BOG‘LOVCHILARI YORDAMIDA BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAPLAR

1-topshiriq. Ko‘chiring. Gaplar tarkibidagi zidlov bog‘lovchilarini topib, ularning vazifalarini ayting. 1. *Dilimizda orzu balandroq edi, lekin ko‘klam biroz noqulay keldi.* (*Oybek*) 2. *Kechasi yana qor yog‘gan, biroq havo unchalik sovuq emas edi.* (*Said Ahmad*) *Yo‘lning ikki chetidagi g‘alla tovlanardi, ammo ular o‘tgan yillardagi kabi baland emas edi.* (*Oybek*)

2-topshiriq. Bog‘lovchilarning qanday mazmuniy munosabat ifodalayotganini ayting. Tinish belgilarini tushuntiring.



Bilib oling. Zidlov bog‘lovchilari bog‘langan qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan birga ular o‘rtasida zidlik munosabati mavjudligini ham ifodalaydi. Zidlov bog‘lovchilari qo‘shma gapning ikkinchi qismi boshida qo‘llanadi va qo‘shma gap qismlari vergul bilan ajratiladi.

! Esda saqlang. -*u*(-*yu*), -*da* yuklamalari bog‘langan qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan birga ular o‘rtasida zidlash, ketma-ketlik munosabati mavjudligini bildiradi.

51-mashq. Ko‘chiring. Zidlov bog‘lovchilarini aniqlab, ularning qanday vazifa bajarayotganini ayting.

1. Ashula nihoyasiga yetdi, lekin bir zumdan keyin yana yangi tovush parvoz qildi. (*Oybek*) 2. Bu daraxtning bo‘yi baland, lekin mevasi kam. (*Oybek*) 3. Hammasini tinglardim, ammo O‘xshashini topmasdim aslo. (*Hamid Olimjon*) 4. Oy yoritadi, lekin isitmeydi. 5. Maqtamasman moziyni, biroq O‘tmishingni o‘ylayman bir zum. (*A. Oripov*)

52-mashq. Ko‘chiring. Zidlov bog‘lovchilari bilan -*u* (-*yu*), -*da* yuklamalarini almashtirish mumkin bo‘lgan gaplarni aniqlang va buning sababini tushuntiring.

1. Soni ko‘p, lekin salmog‘i yo‘q. (*Abdulla Qahhor*) 2. Mayli, siz yashirdingiz, ammo men yashirmayman. (*Oybek*) 3. Men o‘z fikrimni aniq tushuntirib berishga harakat qilyapman, lekin siz uni eshitishni xohlamayapsiz. (*Olimjon Xoldor*) 4. Termometr hamshiraning qo‘lidan tushib ketdi-yu, bir tomchi simob yaltirab polga dumaladi. (*Said Ahmad*)

53-mashq. Gaplarni ko‘chiring, zidlov bog‘lovchilarini topib, ularni izohlang.

1. To‘g‘ri so‘z har narsadan yaxshi, biroq yolg‘onchi va chaimchidan eshitilgan to‘g‘ri so‘z ham yoqimsizdir. 2. Mol-u puling ketsa-ketsin, ammo vaqtingni zoye ketkizma. 3. Odam umrining lazzati – farzand, lekin noqobil farzand ota-onaning umrini qisqartiradi. 4. Do‘sst yomon kuningda asqotadi, biroq qo‘rqoq do‘sst yaxshi kuningda ham dushmanidan xavflidir. («*Hikmatnoma*»dan)

54-mashq. Gaplarni o‘qing, zidlov bog‘lovchilarini yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarni aniqlab, ularni izohlang.

1. Kishini tabiat vujudga keltiradi, ammo uni jamiyat kamol toptiradi. (V.G. Belinskiy) 2. Qilgan xatolaringni o‘lguningcha ko‘z o‘ngingda tut, ammo qilgan yaxshiliklarining unut. (Muhammad Zehniy) 3. Xalqqa xayr-u ehson qilish naqadar ulug‘ fazilat, biroq bu xayr-u ehson beg‘araz bo‘lsa, yana ham yaxshi. (Abdibek Sheroziy) 4. O‘ylamoq yaxshi narsa, biroq ko‘p o‘ylab, xayolparast bo‘lish zararlidir. (Abay)

55-mashq. Zidlov bog‘lovchilarini toping. Ularning o‘rniga -u (-yu), -da yuklamalarini qo‘ying.

1. Jondan ortiq narsa yo‘q, lekin do‘stlar uchun jonimiz fido. (Tolib Yo‘ldosh) 2. Bir oycha fizika, matematika fanlarini o‘qidi, ammo xayoli boshqa yoqda bo‘lgani uchun kallasiga hech vaqo kirmadi. (O‘. Hoshimov) 3. Ular bir necha kun yurishdi, biroq hamon chegara ko‘rinmasdi. (S. Siyoyev) 4. Oradagi masofa yiroq, ammo mehr bizni bog‘lab turardi. (Mirmuhsin)



1. Zidlov bog‘lovchilarini qanday munosabatda bo‘lgan qo‘shma gap qismlarini bog‘lab keladi?
2. Zidlov bog‘lovchilarini o‘rnida -u (-yu), -da yuklamalarini qo‘llab ko‘ring.
3. Zidlov bog‘lovchilaridan oldin qanday tinish belgisi qo‘yilishini tushuntiring.

56-mashq. Uyga vazifa. «*Do‘sstlik yoshlikdan boshlanadi*» mavzusida matn tuzing. Qanday qo‘shma gaplardan foydalanganingizni ayting.

14-dars. AYIRUV BOG‘LOVCHILARI YORDAMIDA BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAPLAR

1-topshiriq. Berilgan gaplarni ko‘chiring, ularning qismlarini bog‘lovchi vositalarni aniqlang.

1. *Yo siz keling, yo men boray. (Qo‘shiq)* 2. *Dam jahlim chiqadi, dam kulgim qistaydi. (Oybek)* 3. *Goh osmonni tutib ashula yangraydi, goh allaqayerdan garmon tovushi eshitiladi. (Oybek)*

2-topshiriq. Qo‘shma gap qismlari o‘rtasida qanday mazmuniy munosabat ifodalananayotganini ayting.



Bilib oling. Ayiruv bog‘lovchilari qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan birga ularda ifodalangan voqealardan salarning galma-gal ro‘y berishini yoki ulardan faqat bittasining yuzaga chiqishini ta’kidlaydi.

Yo (yoki) bog‘lovchisi yolg‘iz holda ham, takror holda ham qo‘llanishi mumkin. Qolgan ayiruv bog‘lovchilari takror holda qo‘llaniladi va yozuvda takror qo‘llanayotgan bog‘lovchidan oldin vergul qo‘yiladi.

57-mashq. Ko‘chiring. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalarni va qismlar o‘rtasidagi mazmuniy munosabatlarni aniqlang.

1. Uzoqlardan keng vodiy quchog‘ida goh ko‘m-ko‘k o‘t bosib yotgan yaylovlari ko‘rinadi, goh qop-qorong‘i daralar ko‘zga tashlanadi. (*Oybek*) 2. Tansiq goh shap-shup suv kechib yuradi, goh uning oyoqlari yelimday loyga botadi. (*Oybek*) 3. Mashinaning nuqsoni bo‘lsa, tuzatiladi yo yana yaxshirog‘i yasaladi. (*Abdulla Qahhor*) 4. Yo zardo‘zi to‘ning to‘zibmi qoldi, Yoki so‘kildimi suvsar telpaging. (*M. Lermontov*)

58-mashq. *Yo..., yo...; goh..., goh...; ba’zan..., ba’zan...; dam..., dam...; yo; yoki bog‘lovchilarining har biri ishtirokida gaplar tuzing.* Qismlar o‘rtasidagi mazmuniy munosabatni tushuntiring.

Namuna: Xona ichida goh pashshaning g‘o‘ng‘illagani eshitiladi, goh xonadon sohibining ohista yo‘talgani qulorra chalinadi. (*Sh. Xolmirzayev*)

59-mashq. Ko‘chiring, qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalarni aniqlang va ular o‘rtasida qanday mazmuniy munosabat borligini aytинг.

1. Dam kun birdan qizib ketadi, dam bulut kelib, jala quyadi. (*Qamchibek Kenja*) 2. Yo mehmon kelganini bilmaydi, yo o‘zini bilmaganlikka soladi. (*Nabi Jaloliddin*) 3. Yo urug‘ aynigan yoki agrotexnika qoidalari buzilgan. («*Xalq so‘zi*» gazetasidan.) 4. Goh qah-qah kulgi ovozi eshitiladi, goh musiqa sadosi avjiga chiqadi. (*Ismoil To‘lak*)

60-mashq. Ko‘chiring. Ayiruv bog‘lovchilarining vazifalarini aniqlang.

1. Men kuyladim goh dilda kadar, Goh sevinib she’r to‘qiymen men. (*A. Oripov*) 2. Har kuni oqshomlarda bu yo‘ldan goh paxta dalasidan qaytayotgan terimchilar o‘tib qoladi, goh paxta ortgan traktorlar u yoqdan bu yoqqa g‘izillaydi. (*O. Yoqubov*) 3. Dasturxon ustida dam o‘zbek kuylari yangrardi, dam hind qo‘shiqlari ijro qilinardi. (*Qamchibek Kenja*) 4. Ba’zan qurbaqalarning qurullashi qulossenra chalinib, kishiga rohat beradi, ba’zan itlarning vovullashi bu ovozlarni bosib ketadi. (*Asqad Muxtor*)

-  1. Qaysi hollarda qo‘shma gap qismlarini *goh..., goh...; dam..., dam...; ba’zan..., ba’zan...* singari bog‘lovchilar bog‘lab keladi?
2. Qaysi hollarda qo‘shma gap qismlarini *yo..., yo...; yoki..., yoki... bog‘lovchilar bog‘lab keladi?*
3. *Yo, yoki bog‘lovchilar qanday tinish belgisi bilan yoziladi?*

61-mashq. Uyga vazifa. *Yoki..., yoki...; yo..., yo...; goh..., goh... bog‘lovchilar ishtirok etgan to‘rtta sodda gap va to‘rtta qo‘shma gap yozing, yo, yoki bog‘lovchilar bilan goh..., goh...; ba’zan..., ba’zan... bog‘lovchilar o‘rtasidagi mazmuniy farqni tushuntiring.*

15-dars. INKOR BOG'LOVCHISI YORDAMIDA BOG'Langan QO'SHMA GAPLAR

Topshiriq. Ko'chiring. Gaplar tarkibidagi *na...*, *na...* bog'lovchisining vazifasini aniqlang.

1. *Oradan uch kun o'tdi hamki, Mahmuda na birovga biron ish aytdi, na murod-u maqsadini surishtirdi. (Nabi Jaloliddin)*
2. *Ko'kda na bitta yulduz ko'rinishi, na undan tushishi mumkin bo'lgan bir qatim nur. (Ulug'bek Hamdam)*



Bilib oling. Inkor bog'lovchisi bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ularda ifodalangan harakat-holat yoki belgining inkorini ham bildiradi. Shuning uchun bunday bog'langan qo'shma gaplarda kesimlar bo'lishli shakldagi fe'llar yoki *bor*, *mavjud* kabi so'zlar orqali ifodalansa-da, mazmun inkor tarzida anglashiladi. Yozuvda takror qo'llanayotgan bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi.

62-mashq. Matnni ko'chiring, *na...*, *na...* bog'lovchisi qaysi gaplarda uyushiq bo'laklarni, qaysi gaplarda qo'shma gap qismlarini bog'lab kelayotganini aniqlang.

1. Xuddi birov ko'kragimga ming pudli tosh bostirib qo'ygandek na qo'limni, na oyog'imni qimirlata olaman. (*Murodjon Mansur*)
2. Na ko'nglimni to'ka olaman, Na o'g'limni so'ka olaman. (*Iqbol Mirzo*)
3. Na baqirganiningni birov eshitadi, na yordam deb chaqirganiningni o'zing eshitasan. (*Ulug'bek Hamdam*)
4. Yalqov va besabr bo'lma, u senga na obro', na baxt keltiradi. («*Hikmatnomaga*dan.)
5. Ilmsiz odam mevasiz yog'och kabitdir: undan na o'ziga, na xalqiga foyda bor. («*Otalar so'zi*»)
6. Na tug'ilib o'sgan yurtini, na qachonlardir uni yer-u ko'kka ishonmay ne orzu-umidlar ila katta qilgan ota-onasini, na rasadxona va na undagi do'stlari-yu xojasi Umar Xayyomni eslardi. (*Nabi Jaloliddin*)

63-mashq. Misollardagi *na..., na...* bog‘lovchisi bilan bog‘langan qo‘shma gaplarni ko‘chiring, ularda ifodalangan inkor mazmunini izohlang.

1. Na so‘zlarida ma’no bor, na ishlarida hayo bor. (*Oybek*)
2. Bu vaqt mobaynida u na yemabdi va na ichmabdi. (*Nabi Jaloliddin*)
3. Bola bo‘lmasa, kallayi saharlab ketganicha endi kirib keladimi? Na choy ichibdi, na non olibdi. (*Murodjon Mansur*)
4. Uning kelganini na Qurbon ota payqadi, na Sidiqjon. (*Abdulla Qahhor*)

64-mashq. *Na..., na...* bog‘lovchisi ishtirokida to‘rtta gap tuzing va uning qanday vazifa bajarayotganini izohlang.

65-mashq. Ko‘chiring. Inkor bog‘lovchisining qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan birga inkor mazmunining ifodalishidagi ishtirokini izohlang.

1. Sel na odamni ayadi, na dov-daraxtni tinch qo‘ydi. (*O’. Umarbekov*)
2. Bu burgut ham ko‘r, ham qari. Na ucha oladi, na ko‘ra oladi. (*O’. Umarbekov*)
3. Na biron ta odamning sharpasi ko‘rindi, na bir shitirlagan tovush eshitildi. (*O’. Umarbekov*)
4. Na unga, Begimqulga kulib boqadi, na o‘zi o‘ynab-kuladi. (*O. Yoqubov*)
5. «Tinchlikmi, yo mendan xafamisiz, na telefon qilasiz, na ko‘rinish berasiz?» – deb o‘pkaladi. (*Ahmad A’zam*)

66-mashq. *Uyga vazifa. Ishlamoq – charchamoq, ko‘rmoq – eshitmoq, yig‘lamoq – kulmoq, so‘ramoq – o‘rganmoq fe’llarini kesim vazifasida qo‘llab, na..., na... bog‘lovchisi ishtirokida to‘rtta bog‘langan qo‘shma gap tuzing.* Ularning mazmunini tushuntiring.

16-dars. BO’LSA, ESA SO’ZLARI YORDAMIDA BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAPLAR

Topshiriq. Ko‘chiring. Qo‘shma gapni qismlarga ajrating. *Bo’lsa so‘zining vazifasini aniqlang.*

Rejadagi zarur ishlarni amalga oshirishga vaqt yetkaza olmayapman, sen bo‘lsang faqat dam olaylik deysan. («Gulxan»)



Bilib oling. *Bo'lsa, esa so'zлari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida qiyoslash va zidlash munosabati mavjudligini ifodalaydi. Bo'lsa, esa so'zлari qiyoslanuvchi bo'lakdan so'ng keladi.*

67-mashq. Gaplarni ko'chiring, bog'lovchi vositalarni izohlang.

1. Tovus o'zining chiroyli patlarini ehtiyot qiladi, vijdonli odam esa o'zining sharaf-u shonini saqlaydi. 2. Egrilik insonni qabohatga yetaklaydi, to'g'rilik bo'lsa uni saodatga boshlaydi. 3. Yaxshilik qilmoqlik ulug' fazilatdir, buning qadriga yetmaslik esa illatdir. 4. Oy tunda kerak, aql esa kunda kerak. 5. To'g'ri til tosh yoradi, egri til esa bosh yoradi. 6. Yaxshidan bog' qoladi, yomondan esa dog' qoladi.

68-mashq. Gaplarni o'qing, *bo'lsa, esa* so'zlarining gapdagi vazifalarini tushuntiring.

1. Jahl – dushman, aql esa do'stdir. 2. Dono aybni o'zidan axtaradi, ahmoq bo'lsa do'stini ayblaydi. 3. Aql ko'pga yetkazadi, hunar bo'lsa insonni ko'kka ko'taradi. 4. Rostgo'ylik odamni kamolotga yetaklaydi, yolg'onchilik esa uni halokatga olib boradi. 5. So'zning yumshog'i g'azabni so'ndiradi, so'zning qattig'i esa odamni o'ldiradi.

69-mashq. *Bo'lsa, esa so'zлari bog'lovchi vazifasida kelgan to'rtta gap yozing. Qo'shma gap qismlari o'rtasida qanday mazmuniy munosabat mavjudligini aytинг.*

70-mashq. Bo'lsa, esa so'zlaridan mosini qo'yib, berilgan gaplarni davom ettirib, qo'shma gaplar hosil qiling va ularni daftaringizga yozing.

1. Halol mehnat ro'zg'orga qut-baraka olib keladi, ... 2. Bulbul navosi ko'ngillarni shod aylaydi, ... 3. Mehr-muruvvat, saxovat insonlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ... 4. Mehnat bilan har kishi murodiga yetadi, ... 5. Oqil-u donoga yo'ldosh bo'lgan kishi hech qachon yo'lidan adashmaydi, ...

71-mashq. Qavs ichida berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, ko‘chiring. Bu so‘zlarning gapdagisi vazifasini ayting.

1. Siz uni tartibga chaqirib qo‘ying, (*bo‘lsa, bo‘lmasa, esa*) ustidan arz qilaman. (*Abdulla Qahhor*) 2. Ulug‘ Navoiy o‘zigacha yashagan va o‘ziga zamondosh bo‘lgan shoirlarning baytlarini yig‘ib, «Majolis un-nafois» asarini tuzgan holda, avlodlar mulkiga aylantirdi, buyuk Sa‘diy Sheroziy (*bo‘lmasa, bo‘lsa, esa*) xalq donishmandligining nodir namunalariga o‘z iste’dodi shu’lasi bilan sayqal berib, «Guliston» va «Bo‘ston»larni yarattdi. (*E. Vohidov*) 3. Aql – eskirmas kiyim, bilim (*bo‘lmasa, esa, bo‘lsa*) tunganmas buloqdir. 4. Yaxshi yaxshiga yondashtiradi, yomon (*bo‘lsa, esa, bo‘lmasa*) yo‘ldan adashtiradi. (*Maqol*)

-  1. *Bo‘lsa, esa* so‘zlari qanday munosabatda bo‘lgan qo‘shma gap qismlarini bog‘laydi?
2. -*u* (-*yu*), -*da* yuklamalari qanday munosabatda bo‘lgan qo‘shma gap qismlarini bog‘laydi?
3. Qaysi hollarda -*u* (-*yu*), -*da* yuklamalari o‘rnida va bog‘lovchisini qo‘llash mumkin?
4. -*u* (-*yu*), -*da* yuklamalari o‘rniga *lekin, ammo* bog‘lovchilarini qo‘yib ko‘ring. Qaysi hollarda ularni almashtirib qo‘llash mumkinligini izohlang.
5. -*u* (-*yu*), -*da* yuklamalarining imlosini izohlang.

72-mashq. *Uyga vazifa.* O‘zingiz sevgan badiiy asardan oltita bog‘langan qo‘shma gap topib, ko‘chiring. Bog‘lovchi vositalarni tushuntiring.

17-dars. MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Va bog‘lovchisi ishtirokida to‘rtta gap tuzing, u ikkitasida uyushiq bo‘laklarni, ikkitasida qo‘shma gap qismlarini bog‘lasin.

2-topshiriq. *Bo‘lsa, esa* so‘zlari, -*u* (-*yu*), -*da* yuklamalari ishtirokida oltita gap tuzing. Ularning vazifalarini tushuntiring.

3-topshiriq. O‘qing. Bog‘lovchi vositalariga qarab, gaplarni quyidagi tartibda yozing:

- 1) biriktiruv bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar;
- 2) zidlov bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar;
- 3) ayiruv bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar;
- 4) inkor bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar;
- 5) *bo‘lsa, esa, -u (-yu), -da* yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar.

1. Nuri goh sevinib, shirin xayollarga botadi, goh butun vujudini titroq bosadi. (*Oybek*) 2. Kechqurun otam keldi va unga butun voqeani aytib berdim. (*Oybek*) 3. Bu sohaning ustasi o‘z so‘zini aytar, lekin biz o‘ylagan imorat, taxminan, shu shaklda bo‘ladi. (*Oybek*) 4. Mashina to‘xtadi-da, undan bir kishi tushdi. (*P. Qodirov*) 5. Na turmushida halovat bor, na yemishida rohat bor. (*Ulug‘bek Hamdam*)

4-topshiriq. *Ham..., ham...; dam..., dam...; ba’zan..., ba’zan...; yo..., yo...* bog‘lovchilarini ishtirokida gaplar tuzing. Ularning vazifasi va ma’nolarini tushuntiring.

5-topshiriq. Rasm asosida «O‘zbekiston tulporlari» mavzusida matn tuzing. Matnda bog‘langan qo‘shma gaplardan foydalaning.



6-topshiriq. *Uyga vazifa.* Gaplarni o‘qing, *bo‘lsa, esa* bog‘-lovchilarining tagiga chizing. Gaplarni zidlov bog‘lovchilarini yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarga aylantiring.

1. Bulbul gulzorni izlaydi, boyo‘g‘li esa doim xarobani ko‘zlaydi. 2. Ahmoqning yuragi og‘zida, aqllining tili esa yuragida bo‘ladi. 3. Yomon ot o‘z egasini chohga qulatadi, yaxshi ot esa o‘z sohibini halokatdan qutqaradi. 4. Nodon mol-dunyo yig‘adi, aqli odam bo‘lsa boshqalarga yordam berib, bundan rohatlanadi. 5. Sabrning boshi achchiq, oxiri esa shirindir.

Namuna: Ahmoqning yuragi og‘zida, lekin aqli odamning tili yuragida bo‘ladi.

18-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

73-mashq. Atoqli yozuvchi Shuhrat qalamiga mansub parchani o‘qing. Sodda gaplarning bir-biriga bog‘lanishiga diqqat qiling. O‘z qishlog‘ingiz (shahringiz)da tong otishini kuzatganmisiz? Taassurotingizni hikoya qilib bering.

Yum-yumaloq to‘lin oy qishloqni o‘zining nurli yo‘rgagiga o‘rab, uyquga, shirin tong uyqusiga chorlaydi, unda-munda yulduzlar mudraydi, ammo qishloq allaqachon uyg‘ongan. Tong yorishadi, tun qushi qop-qora qanotlarini yig‘ib, qishloq ustidan olislarga uchib ketadi-da, chor-atrof odatdagi qiy-chuvga to‘lib-toshadi.

 **74-mashq.** Gaplarni davom ettiring, kirish so‘z va kirish birikmalar bilan kengaytiring, bog‘lovchilarga e’tibor bering.

1. Ziyrak va hushyor odam omad kelganida uni mahkam ushlaydi, lekin... 2. Butun mamlakat, el-yurt, barcha yangilanish, yasharish tuyg‘usi bilan yashamoqda, biroq... 3. Yoshlar ba’zan o‘z tashabbuskorligi, fidoyiligi bilan ibrat namunalarini ko‘rsatmoqda, ba’zan... 4. Yoshlarning ta’lim olishi, ilm va hunar o‘rganishi uchun katta imkoniyatlar yaratildi va ... 5. Islohotlar o‘z samarasini bermoqda, ammo...

75-mashq. Matnni o‘qing va unga sarlavha qo‘ying. Unda ifodalangan g‘oya haqida bahslashing.

Kitobning qudratini quyoshning qudratiga qiyoslash mumkin, biroq hamma ham bu qudratni sezavermaydi. Kitob insonning ichki dunyosida yashirinib yotgan tuyg‘ularga ta’sir etadi va bu tuyg‘ular insonni yangi maqsadlar sari yetaklaydi. Eng muhim, kitob o‘qigan kishida fikr uyg‘onadi. Kitob o‘qib bo‘lingach, o‘quvchida o‘y-fikrlar bisyor bo‘lishi mumkin, ammo ular ichidan eng keraklisi hayotda asqatadi, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi. Fikrlarning ba’zilari amalga oshishi, ba’zilarining esa amalga oshmay qolib ketishi tabiiy. Biroq inson eng yaxshi, boshqalarga foydasi tegadigan fikrlarini amalga tatbiq etishi uchun kurashishi, fidoyilik qilishi shart.

76-mashq. «Har faslning o‘z ziynati bor» mavzusida og‘zaki matn tuzing. Unda bog‘langan qo‘shma gaplardan foydalaning.

77-mashq. Quyidagi so‘zlarning ma’nolarini esda saqlab qoling. Ular ishtirokida bog‘langan qo‘shma gaplarga misollar yozing.

ASQATMOQ Kerak bo‘lmoq, kuniga yaramoq, ish bermoq.

ZIYRAK Tez fahmlaydigan, fahmi tez, sezgir.

ISLOHOT Ijtimoiy hayotning biron-bir tomonini jiddiy o‘zgartirish; isloh.



1. Bog‘langan qo‘shma gaplarga misollar keltiring.
2. Biriktiruv bog‘lovchili bog‘langan qo‘shma gaplar bilan zidlov bog‘lovchili bog‘langan qo‘shma gaplar o‘rtasidagi farqni tushuntiring.
3. Ayiruv va inkor bog‘lovchili qo‘shma gaplarga misollar keltiring.

78-mashq. Uyga vazifa. Alisher Navoiyning «*Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig'*, Yor o‘lung bir-biringizgakim, erur yorlig‘ ish» baytida bayon qilingan fikrga yozma munosabat bildiring.

19-dars. ERGASHGAN QO'SHMA GAP HAQIDA MA'LUMOT

Topshiriq. Berilgan gap qismlarining qanday bog'lovchi vosita yordamida bog'langanini aniqlang. *Kamtar bo'l, chunki kamtarlik insonni kamolotga boshlaydi.* («*Tafakkur gulshani*»dan)



Bilib oling. Qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki shunday bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida bog'langan qo'shma gaplar ergashgan qo'shma gaplar hisoblanadi.

79-mashq. Gaplarni ko'chiring. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalarni aniqlab, qo'shma gap turini ayting.

1. Agar qiz bo'lsang, otingni Kimsanoy qo'yaman, agar o'g'il bo'lsang, Kimsanboy qo'yaman. (*Said Ahmad*)
2. Men bilgan yovuz kishilar u yerda bor, shuning uchun men bormayman. (*Omon Muxtor*)
3. Hunar ado bo'lmas boylikdir, shu sababli yoshlik chog'ingdan boshlab biron-bir hunarni o'rghanish payida bo'l.
4. Chin do'st yurakdan so'zlar, chunki u sening yomon bo'lishingni aslo xohlamaydi.

80-mashq. Ko'chiring. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalarni aniqlang.

1. Olloyorning eng zo'r sifati shuki, uning qo'lida yig'layotgan chaqaloqlar birdan yupanadi-qoladi. (*Murod Muhammad Do'st*)
2. Ot xo'rsinsa, bir falokat yuz beradi. (*Said Ahmad*)
3. Piyoladan bug' chiqib turmasa, choy ichganday bo'lmayman. (*O'. Umarbekov*)
4. Majlis vaqtida boshlanmadi, chunki rais ushlanib qoldi. (*Omon Muxtor*)

81-mashq. O‘qing, ergashgan qo‘shma gaplarni topib, ko‘chiring. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni aniqlang.

1. Ortiqcha g‘urur obro‘yingni yo‘q qilur, shuning uchun o‘zingni boshqalardan baland tutma. 2. Shuni unutmaginki, g‘alvirda suv turmas. 3. Kimda aql oz bo‘lsa, undagi shuhratparastlik shunchalik kuchayar. 4. Qo‘rqoq keta turib maqtansa, jasur qaytib kelib maqtanadi.

82-mashq. *Shuning uchun, chunki bog‘lovchi vositalari ishtirokida to‘rtta qo‘shma gap tuzing. Qo‘shma gap turini aytинг.*



1. Qanday qo‘shma gaplarga ergashgan qo‘shma gap deyiladi?
2. Ergashtiruvchi bog‘lovchilarga qaysi bog‘lovchilar kiradi?
3. -ki bog‘lovchi vositasining qanday yozilishini izohlang.

83-mashq. *Uyga vazifa.* Matnni ko‘chiring. Ergashgan qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalarni aniqlang. Hikmatning mag‘zini chaqishga urining.

Siringni barchaga aytishdan ehtiyyot bo‘l, chunki «mullohazakor» degan so‘z ehtiyyotkor bo‘lish degandan boshqa narsa emas. Agar siringni saqlasang, u sening asiringdir, agar oshkor bo‘lsa, sen siringning asiri bo‘lib qolasan. (*Ibn Sino*)

20-dars. BOSH VA ERGASH GAP

Topshiriq. Berilgan qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni aniqlang. 1. *Vatanimizning kelajagi shuning uchun ham buyukki, unda yashayotgan aholining katta qismini yoshlar tashkil etadi.* (*Azim Suyun*) 2. *Ertal eksang, erta o‘rasan.* (*Maqol*)



Bilib oling. Ergashgan qo‘shma gaplar tarkibida nechta gap bo‘lishidan qat’i nazar, doimo ikki qismdan tashkil topadi: 1) bosh gap; 2) ergash gap. Mazmuni izohlanayotgan gap *bosh gap*, bosh gap mazmunini izohlayotgan gap *ergash gap* hisoblanadi.

Ergashgan qo'shma gaplar, asosan,  yoki  qolipida ifodalanadi.

! Esda saqlang. Ergashgan qo'shma gaplar tuzilishiga ko'ra so'z birikmalariga o'xshaydi. So'z birikmasi tarkibidagi so'zlar nechta bo'lishidan qat'i nazar, doimo ikki qismdan: *hokim* va *tobe* so'zlardan tashkil topadi.

84-mashq. Ko'chiring. Qo'shma gap qismlarining qaysisi bosh gap, qaysisi ergash gap ekanligini aniqlang.

1. Agar arqondan qo'llari chiqib ketsa, to tuman tarqalguncha yo'l topolmay sarson bo'lib yuraveradilar. (*Said Ahmad*)
2. Shuni mammuniyat bilan ta'kidlaymanki, mening kasb tanlashimga otamning do'mbirasi sababchi bo'lgan. (*Murod Muhammad Do'st*)
3. Topgan obro'ni yo'qotmaslik shart, chunki obro' ko'yak emaski, yangisini bozordan olsang. (*Omon Muxtor*)
4. Birinchi qaldirg'och parvozini ko'rgan kishi qanday sevinsa, Avaz ham bundan shunday quvonadi. (*S. Siyoyev*)

85-mashq. Matnni o'qing. Tarkibidagi qo'shma gaplarni ajratib yozing va qo'shma gap turini aniqlang.


Ravshanlik tilning asosiy fazilatidir. Fikr tiniq bo'lsa, nutq ravon va chiroyli bo'ladi. Shoshilib, uzuq-yuluq gapirgan odam so'z ustasi sanalmaydi. Shuni bilingki, bunday odamlar, ko'pincha, maqtanchoq va yolg'onchi bo'ladi. Demak, o'z fikrini o'ylab, bosiqlik bilan gapirgan odam har doim yutadi.

86-mashq. Gaplarni o'qing, bosh va ergash gaplarni aniqlang.

1. Shuni bilingki, bitta so'zning tig'i yuzta shamshirdan o'tkirroqdir.
2. Inson qanchalik kamtar bo'lsa, u shunchalik maqtovga loyiqdir.
3. Kimning yuragida yaxshilik bo'lsa, u doimo boshqalarga yaxshilikni ravo ko'radi.
4. Hamisha to'g'rilar

yonida bo‘linglar, chunki ular hech qachon sizni noto‘g‘ri yo‘lga boshlamaydi. 5. Til tinch bo‘lsa, bosh salomat bo‘ladi. («Otalar so‘zi»)

87-mashq. Quyidagi qo‘shma gap qolipida to‘rtta gap tuzing. Qo‘shma gap turini ayting.



- 1. Ergashgan qo‘shma gaplar necha qismdan tashkil topadi?
- 2. Qanday gapga bosh gap deyiladi?
- 3. Qanday gapga ergash gap deyiladi?
- 4. Ergashgan qo‘shma gap qismlari bilan so‘z birikmasi qismlari o‘rtasidagi o‘xhashlik haqida so‘zlang.

88-mashq. *Uyga vazifa.* Maqollarning tushirib qoldirilgan qismini tiklang va qo‘shma gapni izohlang, bog‘lovchi vositalarini tushuntiring.

- 1. Ona yurting omon bo‘lsa, ...
- 2. Ish quroling soz bo‘lsa, ...
- 3. Birni kessang, ...
- 4. Er boshiga ish tushsa, ...
- 5. Qozonga yaqin yursang, ...
- 6. Yaxshi bilan yursang, ...

21-dars. ERGASH GAPNI BOSH GAPGA BOG‘LOVCHI VOSITALAR

1-topshiriq. Quyidagi qo‘shma gap qolipida gaplar tuzing.

1) Agar

2)

3)

4)

2-topshiriq. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni aniqlang.



Bilib oling. Ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar yordamida bog‘lanadi: 1) ergashtiruvchi bog‘lovchilar; 2) ko‘makchili qurilmalar (*shuning uchun, shu sababli, shu tufayli*)

va boshqalar); 3) -ki yuklamasi; 4) nisbiy so‘zlar (*kim – o‘sha, nima – shu, qayer – shu yer* va boshqalar); 5) *deb* so‘zi va boshqalar.

89-mashq. Ko‘chiring. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalarni aniqlang.

1. Shunday yaxshi odatlarimiz borki, ularga hurmat bilan qarash lozim. (*Said Ahmad*) 2. Tilagim shuki, tog‘a, ayam bilan ukalarim kishilarga muhtoj bo‘lmasin. (*Oybek*) 3. Ikkinci masala ancha jiddiy, shuning uchun u maxsus o‘rganishni talab qiladi. (*Murod Muhammad Do‘st*) 4. Agar shu topshiriqni bajarmasa, obro‘yi bir pul bo‘ladi. (*Olimjon Xoldor*)

90-mashq. Matnni o‘qing. Qo‘shma gaplarni ko‘chiring. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalarni aniqlang.

Ongli kishi deyilsa, ongga ega, aql-idrokli odam tushuniladi. Ongli hayot desak, bir maqsadga yo‘naltirilgan turmush ifodalanadi. «Ongli» so‘zi shunday odamlarni bildiradiki, ular voqelikni, ijtimoiy hayotni, o‘zining mavqeyi hamda tarixiy va fuqarolik burchini yaxshi tushunadilar. («*Vatan tuyg‘usi*» darsligidan)

91-mashq. O‘qing, ergashgan qo‘shma gaplarni topib, ko‘chiring.

1. Dalalarga chiqing, bahri dilingiz ochilsa, quvvatga kirib ketasiz. (*Oybek*) 2. Hayotimda kim uchundir foydali inson bo‘lsam, bu mening eng katta yutug‘imdir. 3. Shuni bilingki, vaqtning qadriga yetish, uni behuda o‘tkazmaslik lozim. 4. Ikkovi ham men bilan qadrdonlardek so‘rashdi, shuning uchun darrov suhbatimizga jon kirdi. (*Abdulla Qahhor*)

92-mashq. Qismlari o‘zaro *chunki*, *shuning uchun* bog‘lovchi vositalari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarga to‘rtta misol keltiring. Bosh va ergash gaplarni aniqlang.



1. Ergash gap bosh gapga qanday bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘lanadi?
2. -ki bog‘lovchi vositasi qaysi gapning tarkibida qo‘llanadi?

3. *Shu sababli, chunki bog'lovchi vositalari qaysi gap tarkibida qo'llanadi va qanday tinish belgisi bilan yoziladi?*
4. *Nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplarga misollar keltiring.*

93-mashq. *Uyga vazifa.* Gaplarni ko'chiring. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalarni aniqlang.

1. Amir Temur o'g'lining qilich tutgan qo'li baquvvat bo'lsin deb, kecha-kunduz mashq qildirdi, farosatli bo'lsin deb, kitobga oshna qildi. (*Xurshid Davron*)
2. Hasanali bekning yechinib yotishini kutib turardi, chunki uni yotqizib, yoqilgan shamni o'zi bilan narigi hujraga olib chiqmoqchi edi. (*Abdulla Qodiriy*)
3. Tojixon safardan ikki kun kechikib qaytibdi, shuning uchun brigadasidan hech ko'ngli tinchimayotgan ekan. (*Abdulla Qahhor*)
4. Mabodo men chiqolmay qolsam, qo'ni-qo'shnilariga o'zing bosh bo'lib, borib kelaveringlar. (*Xurshid Do'stmuhammad*)

22-dars. ERGASHTIRUVCHI BOG'LOVCHILI ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR

1-topshiriq. Qismlari o'zaro *agar*, *chunki*, *toki* so'zlarini yordamida bog'langan uchta qo'shma gap tuzing.

2-topshiriq. Bosh gapga yuqoridagi so'zlar yordamida bog'langan ergash gaplar bosh gapning qanday belgilarni bildirishini ayting.



Bilib oling. Bosh gapda ifodalangan mazmunning sababi, maqsadi, sharti kabilarni bildirgan ergash gaplar bosh gapga sabab (*chunki*, *negaki*), maqsad (*toki*), shart (*agar*, *agarda*, *basharti*, *mabodo*) ergashtiruvchi bog'lovchilari yordamida bog'lanadi.

Sabab, maqsad bog'lovchilari ergash gap boshida qo'llanadi va ergash gap bosh gapdan so'ng keladi. Bunday vaqtda yozuvda ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi.

Shart bog‘lovchilari gap boshida keladi. Ergash gap kesimi shart maylidagi fe’llar bilan ifodalanadi. Bunday ergash gaplar bosh gapdan oldin keladi. Ko‘pincha shart bog‘lovchilari qo‘llanmasa ham, shart mayli shakli qo‘shma gap qismlarini bog‘layveradi.

94-mashq. Bosh gapga *agar bog‘lovchisi* yordamida bog‘langan ergashgan qo‘shma gapga to‘rtta misol topib, *agar bog‘lovchisini basharti, mabodo bog‘lovchisiga almashtirib ko‘ring*.

Namuna: *Agar boshingga qilich kelsa ham, to‘g‘ri gapir // Basharti boshingga qilich kelsa ham, to‘g‘ri gapir // Mabodo boshingga qilich kelsa ham, to‘g‘ri gapir.*

95-mashq. Gaplarni o‘qing, ergashtiruvchi bog‘lovchilar yordamida bog‘langan ergashgan qo‘shma gaplarni aniqlang va ularga izoh bering.

Kishida odob bo‘lsa, ilm ham bo‘lishi lozim. Odob shunday tojki, u aqli, farosatli odamlar boshini bezaydi. Odobli odam tabibga o‘xshaydi, chunki u bilan suhbatlashish ko‘ngildagi g‘amni quvadi. Ilm bir daraxt, odob esa uning mevasidir. Odob ulug‘lik va yuksaklik qasrining narvonidir, shuning uchun u orqali barcha maqsad va manzillarga yetish mumkin. Qaysi yerda ilm-u ma’rifat kuchli bo‘lsa, o‘sha yer baxt maskanidir. («*Sharq hikmatlari*»dan.)

96-mashq. Quyida berilgan gaplarni davom ettiring va bog‘lovchi vositalarning gapdagi vazifalarini tushuntiring.

1. Donishmandlar so‘zni javohirga o‘xshatadilar, chunki...
2. Aytar so‘zingni bilib ayt, chunki... 3. So‘zning lazzati uni gapirishda emas, shuning uchun... 4. Til shirinligi ko‘ngilga yoqimli, shuning uchun... 5. Har bir kishining so‘zi aqliga yarasha bo‘ladi, shu sababli...

97-mashq. Quyida sodda gap juftliklari va ergashtiruvchi bog‘lovchi vositalar berilgan. Sodda gaplarni bog‘lovchilarning har biri bilan bog‘lab qo‘shma gaplar tuzing. Zarur bo‘lganda, gaplarning o‘rnini, so‘zlar va ularning shakllarini o‘zgartiring.

1. Orif aka ko‘targan mavzu chuqurroq edi. Ko‘pchilik indamay o‘tirdi.

2. Baxtim bor. Har narsa go‘zal ko‘rinadi mening ko‘zimga.

Bog‘lovchi vositalar: *shuning uchun, shu sababli, shu bois, shu tufayli, chunki, negaki, -ki,*



1. Qanday bog‘lovchilarga ergashtiruvchi bog‘lovchilar deyiladi?
2. Qanday gaplarga ergashtiruvchi bog‘lovchili ergashgan qo‘shma gaplar deyiladi?
3. Ergashtiruvchi bog‘lovchili ergashgan qo‘shma gaplarga misollar keltiring.

98-mashq. *Uyga vazifa.* Gaplarni ko‘chiring. Bog‘lovchilarni aniqlang.

Shuni yodda tutingkim, dilda e‘tiqod butun bo‘lsa, aslo naslimiz yo‘qolmagay, tilimiz unutilmagay. E‘tiqod susaysa, til emas, imon ham unutilgay. (*Xurshid Davron*)

23-dars. KO‘MAKCHILI QURILMALAR YORDAMIDA ERGASHGAN QO‘SHMA GAPLAR

1- topshiriq. Bosh gapga *shuning uchun, shu sababli, shu tufayli* ko‘makchili qurilmalari vositasida bog‘langan ergashgan qo‘shma gaplarga uchta misol yozing.

2- topshiriq. Bog‘lovchi vositalarning qaysi gap tarkibida qo‘llanayotgani va qanday tinish belgisi bilan yozilayotganini izohlang.



Bilib oling. Bosh gapda ifodalangan mazmunning sababini bildiruvchi ergash gaplar bosh gapga *shuning uchun, shu sababli, shu tufayli* singari ko‘makchili qurilmalar vositasida bog‘lanadi. Ular bosh gap tarkibida keladi.

99-mashq. Ko‘chiring. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni aniqlang. Qanday tinish belgisi qo‘yilganini va buning sababini izohlang.

1. Uning bunday odati yo‘q edi, shuning uchun yigit hayron bo‘lib, biroz qarab turibdi. (*Abdulla Qahhor*)
2. Yozi bilan tinimsiz mehnat qildik, shu sababli mo‘l hosil oldik. (*Olimjon Xoldor*)
3. Ammo shu tobda hordiq chiqarishga fursat yo‘q edi, shu bois tag‘in jiddiy ishga kirishib ketdilar. (*O.Yusupov*)
4. Saodat ko‘pdan beri ashula aytmagan edi, shuning uchun ham u jaranglagan ovozlarga qo‘silib ashula aytgisi keldi. (*Ibrohim Rahim*)
5. O‘zimiz juda cho‘llab kelgan edik, shuning uchun kechirdik. (*Abdulla Qodiriy*)

100-mashq. Berilgan gaplardagi *shuning uchun, shu sababli, shu tufayli* kabi bog‘lovchi vositalar tarkibidagi ko‘rsatish olmoshini chiqarib tashlab, ko‘makchi holida qo‘llang. Ergash gap kesimi tarkibida qanday o‘zgarish bo‘lganligini izohlang.

1. Maktabimizda sport klubi faoliyat olib bormoqda, shuning uchun klub a’zolari turli musobaqalarda yaxshi natijalarini qo‘lga kiritmoqdalar. («*G‘uncha*»)
2. Musavvirlikka menda havas uyg‘ondi, shu sababli uning sirlarini o‘rganishga astoydil bel bog‘ladim. (*Said Ahmad*)
3. Giyohvandlik – insoniyat kushandas, shu tufayli unga qarshi dunyo ahli ommaviy kurash olib bormoqda. (*Gazetadan*)
4. Beruniy ilm yo‘lidagi hamkorlikni juda qadrlardi, shuning uchun ham o‘z davrining taniqli olimlari bilan ilmiy aloqalar o‘rnatgan edi. (*Mirkarim Osim*)
5. O‘qituvchi bolalarni nazmdan xabardor etishni o‘z burchi hisoblardi, shu bois «*Guliston*» va «*Bo‘ston*» kabi kitoblarni mustaqil mutolaa qilishga ruxsat bergen edi. (*A.Qayumov*)

Namuna: *Maktabimizda sport klubi faoliyat olib bormoqda, shuning uchun klub a’zolari turli musobaqalarda yaxshi natijalarini qo‘lga kiritmoqdalar. // Maktabimizda sport klubi faoliyat olib borayotganligi uchun klub a’zolari turli musobaqalarda yaxshi natijalarini qo‘lga kiritmoqdalar.*

101-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Ergash gapning bosh gapga bog‘lanishiga diqqat qiling.

1. Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidir, shuning uchun har vaqt ilm olish ilinjida bo‘l. 2. Ilmsiz inson – mevasiz daraxt, shuning uchun hamisha ilmlilar safida bo‘lishga intil. 3. Ilm martabasi martabalarning zo‘ridir, shu sababli yoshlikdan ilm olish payida bo‘l. 4. Qog‘ozga tushirilmagan ilm unutilib ketadi, shuning uchun bilganlarining kelgusi avlodlarga yozib qoldirishga harakat qil. 5. Ilm – saodatga yo‘llovchi mash‘al, shu tufayli uning insonlar hayotidagi o‘rni nihoyatda katta. (*«Otalar so‘zi» kitobidan*)

102-mashq. *Shuning uchun, shu sababli, shu tufayli bog‘lovchi vositalari ishtirokida uchta gap yozing.* Gap qismlari qanday tinish belgisi bilan ajratib yozilganligi sababini izohlang.



1. Qanday ergash gaplar bosh gapga ko‘makchili qurilmalar yordamida bog‘lanadi?
2. Ko‘makchili qurilmalar ergashgan gapning qaysi qismida qo‘llaniladi?

103-mashq. *Uyga vazifa.* Avval *uchun, sababli, tufayli* ko‘makchilari ishtirok etgan uchta gap yozing. Bu gaplarni *shuning uchun, shu sababli, shu tufayli bog‘lovchi* vositalari yordami bilan ergashgan gapga aylantiring. Gap tarkibida qanday o‘zgarishlar bo‘lganini ayting.

24-dars. **DEB SO‘ZI YORDAMIDA ERGASHGAN QO‘SHMA GAPLAR**

1-topshiriq. Gapni ko‘chiring, sodda yoki qo‘shma gapligini aniqlang. *Ukalarim bezovta bo‘lmasin deb, To‘ng‘ich botir to‘qayning bir chekkasiga qochdi.* (*«Uch og‘a-ini botirlar» ertagidan*)

2-topshiriq. Qo‘shma gap qismlari qanday bog‘lovchi vositasida bog‘langanini va qanday tinish belgisi bilan ajratib yozilganini izohlang.

3-topshiriq. *Deb so‘zini uchun* ko‘makchisi bilan almashtirib ko‘ring. Farqni aniqlashga harakat qiling.



Bilib oling. Bosh gapda ifodalangan mazmunning maqsadini, sababini bildiruvchi ergash gaplar bosh gapga ko‘pincha *deb* so‘zi yordamida bog‘lanadi. Ergash gaplarning kesimi buyruq va shart maylidagi, shuningdek, kelasi zamon fe’llari bilan ifodalanganda, asosan, maqsad ma’nosи, o’tgan zamon fe’llari bilan ifodalanganda, ko‘proq sabab ma’nosи anglashiladi.

104-mashq. Ko‘chiring. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositani va ergash gapning qanday ma’no bildirayotganini aniqlang.

1. Gul barglari uchishadi, tushmayin deb qo‘lingga. (*Hamid Olimjon*)
2. Shu mo‘jaz uyimda yonsin deb chiroq, Ne aziz zotlarga yondashdim gohi. (*A.Oripov*)
3. Kamalakdek rango-rang Bo‘lsin deb san’at, tillar, Asrlarcha qildim jang. (*E.Vohidov*)
4. Sen otash ichida urasan javlon, Dushman qolmasin deb sevgan elimda. (*Hamid Olimjon*)
5. Yovlar yakson bo‘lsin deb, Yigitlar jang boshladi, Yovlar qocha boshladi. (*Hamid G’ulom*)

105-mashq. Bosh gapga *deb* yordamida bog‘langan ergash gaplarga to‘rtta misol keltiring. Ergash gapning kesimi qanday shaklda ekanligini tushuntiring.

106-mashq. Rasm asosida «Qish ziynati» mavzusida hikoya yozing. Unda qanday qo‘shma gaplardan foydalanganingizni, *deb* so‘zining vazifalarini ayting.





1. Qanday ma'noni bildiruvchi ergash gaplar bosh gapga *deb* so'zi yordamida bog'lanadi?
2. Bosh gapga *deb* so'zi yordamida bog'langan ergash gaplarning kesimi qanday mayl shaklidagi fe'llar bilan ifodalanadi?
3. Bosh gapga *deb* so'zi yordamida bog'langan ergash gapga ikkita misol keltiring va bu bog'lovchi vositani *uchun* ko'makchisi bilan almashtirib ko'ring. Deb va *uchuming* o'zaro almashinish sababini tushuntiring.
4. Bosh gapga *deb* so'zi yordamida bog'langan ergash gaplarda qanday tinish belgisi qo'yilishini tushuntiring.

107-mashq. *Uyga vazifa.* «Adabiyot» darsligidan xohlagan bir sahifani ochib o'qing. Unda nechta gap borligini, qaysilari qo'shma gap ekanligini aniqlang. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalarni ayting.

25-dars. SHART MAYLI VOSITASIDA ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR

1- topshiriq. Berilgan qo'shma ga plar qismlari orasidagi mazmuniy munosabatga diqqat qiling.

Alpomishga alla aytgan momolarim

Ruhini shod etay desang, xalq bo'l, elim! (Muhammad Yusuf)

Bahor osmonida chaqnasa chaqin,

Ko'ksingdan otilar olovli nafas.(A. Oripov)

2- topshiriq. Qo'shma gap tarkibidagi bosh va ergash gaplarni aniqlang. Ergash gap kesimi qanday shaklda ekanligini ayting.



Bilib oling. Ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi fe'llar orqali ifodalanganda, shart mayli qo'shimchasi ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vosita ham sanaladi. Bunday ergash gaplar bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga chiqish yoki chiqmaslik shartini, paytini bildiradi. Yozuvda ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi.

108-mashq. Ko‘chiring, bosh va ergash gaplarni aniqlang. Ergash gapning bosh gapga qanday bog‘lovchi vosita yordamida bog‘lanayotganini ayting.

1. Yerga mehringni bersang, u senga rizq beradi, seni to‘ydiradi. (*Erkin Samandar*)
2. Yomon bo‘lar, agar ko‘z yoshing tugab qolsa, kelgunicha baxt. (*Shavkat Rahmon*)
3. Esli-hushli do‘srlaringiz bo‘lsa, biznikiga olib kelarsiz. (*Murod Muhammad Do’st*)
4. Qorako‘zni yana supurgi bilan ursang, unga kosov otsang, ukalaringnikiga ketib qolaman. (*Said Ahmad*)

109-mashq.  qolipiga mos uchta ergashgan qo‘shma gap yozing. Ergash gapning bosh gapga qanday bog‘lanayotganini izohlang.

110-mashq. Siz tabiatni kuzatganmisiz? Agar kuzatgan bo‘lsangiz, bu haqda o‘z fikr-mulohazalaringizni bildiring. Berilgan gaplarni bosh va ergash gaplarga ajrating.

1. Agar daraxt shoxlari yoz faslida sarg‘aysa, kuz erta keladi.
2. Olma, olcha kabi mevali daraxtlar ikkinchi bor gullasa, bu kuzning iliq kelishidan darakdir.
3. Qaldirg‘och pastlab uchsa, yog‘ingarchilik bo‘ladi.
4. Chinnigul o‘zidan yoqimli hid taratsa, tez orada shamolni kutavering.
5. Baliq tez-tez suv betiga sapchib chiqsa, yomg‘ir yog‘adi.
6. Mevali daraxtlar ko‘p hosil qilsa, qish qattiq keladi.

111-mashq. Ko‘chiring. Ergash va bosh gaplarni aniqlab, ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni ayting.

1. Kasalini yashirsang, isitmasi oshkor qiladi. (*Maqol*)
2. Seni hurmat qilishlarini istasang, o‘zingni hurmat qil. («*Tafakkur gulshani*»dan)
3. Ichlari achimasa, menga o‘sha gaplarni gapirmas edi. (*Abdulla Qahhor*)
4. Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan. (*Maqol*)
5. Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kirar teshikdan. (*Maqol*)



1. Kesimi fe'lning shart mayli shakli bilan ifodalangan ergash gaplar qanday ma’nolarni ifodalaydi?

2. Shart mayli qo'shimchasi yordamida bog'langan qo'shma gap qismi qanday tinish belgisi bilan ajratiladi?

112-mashq. *Uyga vazifa.* Kesimi shart mayli shaklidagi fe'llar bilan ifodalangan ergash gapli qo'shma gaplardan bo'lgan to'rtta maqol keltiring. Ergash va bosh gaplarni aniqlang.

26-dars. KO'RSATISH OLMOSHILI ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR

1-topshiriq. Ko'chiring. Qo'shma gaplar tarkibidagi bosh va ergash gaplarni aniqlang. 1. *Shuni doimo yodingda tutki, biz hammaniz seni yaxshi ko'ramiz.* (*Parda Tursun*) 2. *Shunga aminmanki, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun ta'lim tizimimizni yaxshilashda tub burilish yasaydi.* (*«Ma'rifat» gazetasidan*) 3. *Umidimiz shuki, Sizlar baxtli bo'linglar.* (*Ismoil To'lak*) 4. *Shunday yashaylikki, hamma havas qilsin.*

2-topshiriq. Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshini toping va qanday gap bo'lagi vazifasida kelayotganini aytинг.



Bilib oling. Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi ma'nosini izohlash uchun qo'llangan ergash gaplar bosh gapga -ki yuklamasi yordamida bog'lanadi. Bu yuklama bosh gap kesimi tarkibida bo'ladi va ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi. Ba'zan bu bo'lak qo'llanmasligi ham mumkin, ammo uning o'rni bilinib turadi.

113-mashq. Ko'chiring. Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshini aniqlang.

1. Shunday odamlar borki, ular bilan gaplashib bahra olasan. (*Hamid G'ulom*) 2. Shunga ishonchim komilki, qasd qilganlar, albatta, past bo'ladi. (*Shuhrat*) 3. Shuni angladimki, inson qobiliyati cheksiz ekan. 4. Shunday ne'matlar borki, ularni pul birligida o'lchab bo'lmaydi. (*Azim Suyun*) 5. Odam borki, odamlarning naqshidir, Odam borki, hayvon andin yaxshidir. (*Alisher Navoiy*)

114-mashq. Gaplarni ko‘chiring, bosh gap tarkibida kelgan ko‘rsatish olmoshini aniqlang va vazifasini tushuntiring.

1. Shuni bilingki, aql bilan odob – jism bilan jon. 2. Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, aqlsizga so‘z uqtirgandan ko‘ra yelkada tosh tashish afzal. 3. Shunga amin bo‘ldimki, serjahl boshda aql bo‘lmaydi. 4. Shundan ehtiyyot bo‘lish lozimki, hamrohingiz aslo nodon bo‘lmasin. 5. Shuni doimo yodda tutish kerakki, nodon odamning gapi ko‘p bo‘ladi. (*«Sharq hikmatlari»*dan)

115-mashq. Ko‘chiring. Qo‘shma gap tarkibidagi bosh va ergash gaplarni aniqlang. Ergash gaplarni bosh gap tarkibidagi ko‘rsatish olmoshi o‘rnida keltirib, qo‘shma gapni sodda gapga aylantiring.

1. Baxtim shuki, seni uchratdim. (*Z.Saidnosirova*) 2. Shunday o‘zgarishlar bo‘lmoqdaki, aqling bovar qilmaydi. 3. Shunisi quvonarligi, sinfdagi o‘quvchilarning hammasi bir-biri bilan juda ahil. 4. Shuni bilingki, hech bir yangilik bexosiyat bo‘lmaydi. (*Asqad Muxtor*) 5. Biz shunday kutubxona bino qilaylikki, butun el qoshida manzur va mo‘tabar bo‘lsin. (*Oybek*)

Namuna: Baxtim shuki, seni uchratdim. // Baxtim – seni uchratganligim.

116-mashq. «Zukkolar» o‘yini. Iffi guruhga bo‘lining. Birinchi guruh bosh gap tarkibida ko‘rsatish olmoshi ishtirok etgan ergashgan qo‘shma gap tuzsin. Ikkinci guruh bu gaplarni sodda gapga aylantirsin. Qaysi guruh to‘xtab qolsa, yutqizgan sanaladi.

- 1. Ko‘rsatish olmoshlari qaysi gapning tarkibida qo‘llanadi?
- 2. Bosh gap tarkibida ko‘rsatish olmoshlari ishtirok etganda, uning kesimi qanday shaklda bo‘ladi?
- 3. -ki yuklamasining vazifalari haqida gapiring.

117-mashq. *Uyga vazifa*. Bosh gap tarkibida ko‘rsatish olmoshi ishtirok etgan to‘rtta qo‘shma gap yozing. Ularning har birida ko‘rsatish olmoshi xilma-xil gap bo‘lagi vazifasida kelsin. Bu gaplarni sodda gaplarga aylantiring.

27-dars. NISBIY SO‘ZLI ERGASHGAN QO‘SHMA GAPLAR

1- topshiriq. Berilgan gaplar tarkibidagi bosh va ergash gaplarni aniqlang.

1. *Kim harakat qilsa, u baraka topadi. (Maqol)* 2. *Kimning ko‘ngli ochiq bo‘lsa, uning el o‘rtasidagi martabasi ulug‘ bo‘ladi.*

2- topshiriq. Qo‘shma gap tarkibida bir-biriga nisbatlanayotgan olmoshlarni aniqlang.

3- topshiriq. Bosh gap tarkibidagi ko‘rsatish olmoshi o‘rniga ergash gapni almashtirib, qo‘shma gapni sodda gapga aylantirishga harakat qiling.



Bilib oling. Ergash gap tarkibida qo‘llanuvchi *kim, nima, qancha, qanchalik, qanday, qayer* kabi so‘roq olmoshlari va bosh gap tarkibida unga javob bo‘lib keluvchi *shu, o‘sha, shuncha, shunchalik, shunday* kabi olmoshlar bir-biriga nisbatan qo‘llanganligi, biri ikkinchisini taqozo etganligi uchun nisbiy so‘zlar hisoblanadi. Bunda ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi fe’llar bilan ifodalanadi.

118-mashq. Ko‘chiring. Bosh va ergash gaplardagi o‘zaro nisbatlanayotgan so‘zlarni toping.

1. Siz Hindistonda neniki ko‘rgan bo‘lsangiz, shularning hammasini jam etib, bir kitob yozmog‘ingiz darkor. (*A.Qayumov*)
2. Qalandarov yugurdagini «Eshon, hoy!» deb chaqirganda, Saida qanchalik xursand bo‘lgan bo‘lsa, hujrani ko‘rib shunchalik ta‘bi tirriq bo‘ldi. (*Abdulla Qahhor*)
3. Kimning ko‘ngli to‘g‘ri bo‘lsa, uning o‘zi ham to‘g‘ri bo‘ladi. (*Maqol*)
4. Kimki o‘zining yaxshi ishidan quvonsa, yomon ishidan xafa bo‘lsa, demak, u haqiqiy mo‘mindir. (*Hadis*)
5. Bu Vatanni jon bilan saqlashga, Cho‘lpon, hozir o‘l, Kimki qasd etsa anga, kiysin pushaymondin kafan! (*Cho‘lpon*)

119-mashq. Ko‘chiring. Bosh va ergash gaplardagi o‘zaro nisbatlanayotgan so‘zlarni toping. Bosh gap tarkibidagi nisbatlanayotgan ko‘rsatish olmoshining qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelayotganini aniqlang.

1. Kim chaqqon va tez harakat qilsa, yutuq o‘shaniki bo‘ladi. (*O‘. Haydarov*)
2. Sen birodaringni qanchalik yaxshi ko‘rsang, Tangri ham seni shunchalik yaxshi ko‘radi. (*Hadis*)
3. Kim birovga choh qazisa, o‘zi yiqiladi. (*Maqol*)
4. Qayerda ish to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, o‘sha yerda rivojlanish bo‘ladi.
5. Nima ro‘zg‘orga kerak bo‘lsa, dadam o‘shani bozordan keltiraverar edi. (*Oybek*)
6. Kimki boshqalarga rahm-u shafqat qilmasa, unga ham hech kim rahm-u shafqat qilmaydi. (*Hadis*)

120-mashq. Gaplarni ko‘chiring, nisbiy so‘zlarni aniqlang va ularning gapdagi vazifalarini tushuntiring.

1. Kimning aqli ko‘p bo‘lsa, ayblari yashirin va do‘satlari ko‘p bo‘ladi.
2. Kimki shoshilmay, aql-u tadbir bilan ish tutsa, u o‘z maqsadlariga oson erishadi.
3. Nimaiki senga zarar keltirsa, o‘sha narsani boshqalarga ham ravo ko‘rma.
4. Har kim o‘z og‘zining qorovuli bo‘lsa, uning nafasi hech qachon bo‘g‘ilmaydi.
5. Kimning ichi nog‘ora singari bo‘sh bo‘lsa, uning behuda so‘zleri atrofdagilarning miyasini egovlaydi. (*«Mashriqzamin – hikmat bo‘stoni» kitobidan*)

121-mashq. «Zukkolar» o‘yini. Ikki guruhga bo‘lining. Birinchi guruh nisbiy so‘zlar ishtirok etgan ergashgan qo‘shma gap tuzsin. Ikkinci guruh bu gapni sodda gapga aylantirsin. Qaysi guruh to‘xtab qolsa, yutqizgan hisoblanadi.

-  1. Qanday gaplarga nisbiy so‘zli ergashgan qo‘shma gaplar deyiladi?
- 2. Qo‘shma gap tarkibidagi qanday so‘zlar nisbiy so‘zlar sanaladi?
- 3. Nisbiy so‘zli ergashgan qo‘shma gap qismlari qanday tinish belgisi bilan ajratib yoziladi?

122-mashq. *Uyga vazifa.* Nisbiy so‘zli qo‘shma gaplarni ko‘chiring. Bosh gap tarkibidagi nisbatlanayotgan olmoshning qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelayotganini va shunga ko‘ra ergash gapning turini ayting.

1. Kimki samimiy va pokdil bo‘lsa, uning ishlari o‘ngidan kelaveradi.
2. Odamlarga qanchalik yaxshilik qilsang, el seni shunchalik e’zozlaydi.
3. Qaysi narsaga o‘z mehnating bilan erishsang, o‘sha narsa sen uchun qadrlidir.
4. Kimning yuragida o‘t-olov bo‘lsa, o‘sha odamning ishlarida tashabbus bo‘ladi.
5. Qayerda ahillik bo‘lsa, o‘sha yerda yutuq bor.

28-dars. ERGASHGAN QO‘SHMA GAPLARNING SODDA GAPLAR BILAN MA’NODOSHLIGI

1-topshiriq. Berilgan qo‘shma gaplarning bosh gaplari tarkibidagi ko‘rsatish olmoshlarini toping.

1. *Shuni sezdimki, oila a’zolari bir-biri bilan juda ittifoq ekan.*
2. *Kim oldin musht ko’tarsa, u ojiz bo‘ladi.* (*Maqol*)

2-topshiriq. Ergash gapni bosh gap tarkibidagi ko‘rsatish olmoshi o‘rniga qo‘yib, qo‘shma gapni sodda gapga aylantiriring.



Bilib oling. Tarkibida ko‘rsatish olmoshi mavjud bo‘lgan ergashgan qo‘shma gaplar tegishli sodda gaplar bilan ma’nodosh bo‘la oladi. Ergash gapni bosh gap tarkibida tegishli ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalangan gap bo‘lagi o‘rniga qo‘yish orqali sodda gapga aylantirish mumkin. Masalan:

1. *Kim ko‘p o‘qisa, u ko‘p biladi. // Ko‘p o‘qigan ko‘p biladi.*
2. *Shuni bilingki, kengga keng, torga tor dunyo. // Dunyoning kengga keng, torga torligini bilib oling.*

123-mashq. Ko‘chiring. Ergash gapni bosh gap tarkibidagi ko‘rsatish olmoshi o‘rniga qo‘yib, qo‘shma gapni sodda gapga aylantiriring.

1. Siz kimga ishonch bildirsangiz, men uni sherik qilib olishim mumkin. (*Rahmat Fayziy*)
2. Shunga xursandmizki, bolalar o‘z yo‘lini topib ketishdi. (*Yo‘ldosh Sulaymon*)
3. Kim ko‘p bilsa,

u kamgap bo‘ladi. (*Shuhrat*) 4. Tilagimiz shuki, hammangiz el xizmatiga kamarbasta farzandlar bo‘linglar. (*Qamchibek Kenja*)

124-mashq. «Zukkolar» o‘yini. Ikki guruhi bo‘lining. «Donolar» guruhi ko‘rsatish olmoshi ishtirok etgan qo‘shma gaplar topsin. «Zukkolar» guruhi bu gaplarni sodda gapga aylantirsin. Qaysi guruh to‘xtab qolsa, yutqizgan hisoblanadi.

125-mashq. Berilgan gaplarni sodda gaplarga aylantiring va ular o‘rtasidagi farqlarni tushuntiring.

1. Shuni bilingki, dunyoda tinchlikdan ulug‘roq ne’mat yo‘q.
2. Kimki mustaqil fikr yuritmasa, uni boshqalar oson egib oladi.
3. Shunga ishonch hosil qildimki, ko‘p uxlagan oz yashaydi.
4. Kimki tinch yashashni istasa, pastkash odam bilan hech qachon do‘stlashmaydi.

126-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Ularni sodda gapga aylantiring. Qo‘shma gapni sodda gapga aylantirish uchun qanday o‘zgarishlar qilganingizni aytинг.

1. Haqiqat shunday jonki, pardoz uning husnini buzadi. (*Abdulla Qahhor*) 2. Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g‘o‘ra ichiga qamab bera biladi. (*Abdulla Qahhor*) 3. Kimki qanoat qilsa, uning yaxshi-yomon bilan ishi bo‘lmaydi. (A. *Qayumov*) 4. Kim alam chekmabdi umrida bir bor, U meni anglamas, anglamas aslo. (A. *Oripov*)

-  1. Qanday ergashgan qo‘shma gaplar sodda gap bilan ma’nodosh bo‘lishi mumkin?
2. Ergash gapli qo‘shma gap qanday qilib sodda gapga aylantiriladi?
3. Bir ma’noni ifodalagan sodda va qo‘shma gaplar o‘rtasida qanday uslubiy farq mavjudligini izohlang.

127-mashq. *Uyga vazifa*. Tarkibida ko‘rsatish olmoshi ishtirok etgan to‘rtta qo‘shma gap tuzing. Ko‘rsatish olmoshining qanday gap bo‘lagi vazifasida kelayotganini aniqlang.

29-dars. MATN VA LUG'AT USTIDA ISHLASH

Topshiriq. Gapni ko‘chiring. Sodda gaplarning bir-biriga bog‘lanishiga diqqat qiling. Gapni kengaytirib, og‘zaki matn tuzing. *Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdirki, inson har vaqt shul ma’naviy nurning ziyofiga muhtojdur.* (Abdulla Avloniy)

128-mashq. Gaplarni ko‘chiring, bog‘lovchi vositalarga diqqat qiling. Bu hikmatlarni yodda tuting, ularning biridagi fikr haqida mulohazalariningizni bayon qiling.

1. Bilingki, jim turib salomat bo‘lish gapirib malomatga qolishdan afzal. 2. Shuni anglamoq kerakki, ota-onasini farzanddan ko‘ra yaqinroq kimsa yo‘q. 3. Shundan ehtiyyot bo‘lingki, birovning ota-onasini haqorat qilgan odam o‘zining ota-onasini ham haqoratlagan bo‘ladi. 4. Shuni hamisha yodingizda saqlangki, birovga yolg‘on gapirish eng katta gunohdir. 5. Shuni unutmangki, do‘sstar bilan suhbat qurmoq gullar orasida sayr qilmoqdan xushdir. («Aql aqldan quvvat olar» kitobidan)

129-mashq. Gaplarni o‘qing, ularning qismlari o‘rtasidagi bog‘lanishni izohlang.

1. Katta arava qaysi yo‘ldan yursa, kichik arava ham xuddi shu yo‘ldan yuradi. (*Maqol*) 2. Sevgi shunday navbahorki, u tikondan gul qilur. (*E.Vohidov*) 3. Kim yalqov bo‘lsa, uning qo‘lida obod yer ham xarob bo‘ladi. (*Sobir Abdulla*) 4. Men senga shunday narsalar keltirayki, ularni tushingda ham ko‘rmagansan. (*Oybek*) 5. Kimning quroli bilim bo‘lsa, uning kelajagi porloq. (*J.Abdullaxonov*)

130-mashq. Ko‘chiring. Ergash va bosh gaplarni aniqlab, ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni ayting.

1. Kasalini yashirsang, isitmasi oshkor qiladi. (*Maqol*)
2. Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, johil odam har doim o‘zini boshqalardan ustun qo‘yadi. («*Sharq hikmatlari*»dan)
3. Seni hurmat qilishlarini istasang, o‘zingni hurmat qil. («*Tafakkur gulshani*»)
4. Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan. (*Maqol*)

 **131-mashq.** Yusuf Xos Hojib tomonidan aytilgan hikmatlar mag‘zini chaqing. Ergash gaplarni bog‘lovchi vositalarni izohlang.

1. Jahl kelsa, yaxshi kishidan ham aql ketadi. 2. O‘limga qarshi dori-darmonlar foyda qilganda edi, tabiblar abadiy tirik qolgan bo‘lardilar. 3. Agar kim zo‘ravon bo‘lsa va to‘g‘rilikdan qochsa, zahar-zaqqum o‘shaning nasibasi bo‘ladi. 4. Kim yomonlik qilsa, o‘ziga qiladi, u yomonlikning mukofoti ham yomonlik bo‘ladi.

132-mashq. *Uyga vazifa.* Quyidagi so‘zlarning ma’nosini yodda saqlang va ular ishtirokida ergashgan qo‘shma gaplar hosil qilib, daftaringizga yozing.

ZAHAR-ZAQQUM 1 Og‘u singari achchiq, kishi hayotini og‘ulaydigan, azobga aylantiradigan narsa; holat. 2 Juda ham achchiq, iste’mol qilib bo‘lmaydigan. 3 Kishiga qattiq botadigan, achchiq kinoya, piching, kesatiq.

RIZQ 1 Hayot uchun zarur ozuq, ozuqa, ovqat, nasiba. 2 Biror ish, harakat va shu kabilar uchun asos bo‘lgan narsa, ozuqa, oziq. 3 Quro’ni karim, Islom diniga ko‘ra, Xudo har bir kishi, jonivor uchun atagan, o‘lchab, belgilab qo‘ygan nasiba, ulush.

30-dars. MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Gapni davom ettirib, og‘zaki matn tuzing. *Kimki mehnatsevar va g‘ayratli bo‘lsa...*

2-topshiriq. Ko‘chiring. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni aniqlang. Ergash gapning turini aytинг.

1. Masalaning mohiyati shu ekanki, bosh vrach qabulxonasiga kichkina telefonogramma tushibdi. (*Murod Muhammad Do’st*)
2. Bolalarim haftada bir marta xabar olishsa, yetti kun uyim to‘ladi. (*Said Ahmad*) 3. Yaqin borib qarasa, qoraygan yerda bolalar ko‘ylagiga qadaladigan o‘n-o‘n beshta tugma sochilib yotibdi. (*M. Hazratqulov*)

3-topshiriq. Ergashgan qo'shma gaplarga misol keltiring. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositani aniqlang. Bu gaplarning qoliplarini chizing.

4-topshiriq. Gaplarni ko'chiring, ergashgan qo'shma gap turlarini aniqlab, ularga ta'rif bering.

1. Ahmadjon faqat shuni biladiki, dushman bu tepalikni haddan tashqari qattiq o'qqa tutdi. (*Abdulla Qahhor*) 2. Qalbingiz nimani buyursa, siz menga shuni buyuring. (*P.Qodirov*) 3. Agar inson biror kasbni mukammal egallasa, mehnat unga huzur bag'ishlaydi, baxt keltiradi. (*Maqol*) 4. Jahl kelsa, aql qochadi. («*Otarlar so'zi*»)

5-topshiriq. *Uyga vazifa.* Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab kelgan ergash gaplarga to'rtta misol yozing.

31-dars. ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR YUZASIDAN TAHLIL



1. Ergashgan qo'shma gaplar deb nimaga aytildi?
2. Bosh gap deb qanday gapga aytildi?
3. Ergash gap bosh gapga qaysi bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi?

133-mashq. Matnni o'qing. Ergashgan qo'shma gaplarni aniqlab, ularni ko'chiring. Bu gaplarning qismlari va ular o'rtaсидаги bog'lanishni izohlang.

Yomg'irdan keyin osmonda paydo bo'ladigan kamalak jahondagi jamiki ranglarni yettiha ipga tortib turganga o'xshaydi. O'sha yetti ipni kim yoyib yuborsa, u olamni anvoysi gullarga burkaydiganday. Odam bolasi borki, u shu ranglardan birini o'ziniki qilib oladi, butun taqdirini, tarjimayi holini, orzu-umidlarini va nihoyat, olamni shu rang orqali ko'radi. Shu narsa ayonki, tabiat ham shu rang ta'siriga tushib qoladi. Masalan, men gunafsha rangni yaxshi ko'raman. Shu rangga ko'zim tushishi bilan butun umrim ko'z oldimga keladi. Yayrab ketaman. Bunga sabab shuki, yosligimda

gunafsha rang qog'ozdan varrak yasab uchirardim. Shunisi qiziqarli ediki, ko'm-ko'k bahor osmoni bolalar uchirgan anvoyi rang varraklarga to'lib ketardi. Ular orasida mening gunafsha rang varragim alohida ajralib turardi. (*Said Ahmad*)

134-mashq. Gaplarni ko'chiring, ularda ilgari surilgan g'oyalarga munosabat bildiring. Ahillik deganda nimani tushunasiz, shu haqda fikringizni aytинг.

1. Qayerda ahillik bo'lsa, o'sha yerda qut-baraka bo'ladi. (*«Tafakkur gulshani»*)
2. O'simlikni qancha parvarish qilsang, shuncha mo'l hosil olasan.
3. Soy qanchalik tez oqsa, u shunchalik sayoz bo'ladi. (*«Tafakkur gulshani»*)
4. Odamlar ishdan qolmasin deb, marosimni soat besh yarimga tayin qilganmiz. (*Said Ahmad*)
5. Sizni suvdan o'tkazib qo'ymasam, menga bergen noningiz harom bo'lg'ay. (*P. Qodirov*)

135-mashq. Ko'chiring. Bosh va ergash gaplarni aniqlang. Bosh gap kesimining ifodalанишими тушунтириш.

1. Endi sizlarga muborak topshiriq shuki, har biringiz alohida-alohida ketasiz. (*M. Mansurov*)
2. Toleyim shulki, jahonda bir guliston tanladim. (*Hamid Olimjon*)
3. Muhammad Yusuf ijodining o'ziga xos xususiyati shundaki, u juda oson o'qiladi, sodda, xalqchil. (*O. Sharafuddinov*)
4. Buning natijasi shu bo'ldiki, To'laganning qanshariga musht tushdi. (*Abdulla Qahhor*)
5. Keragi shuki, ana shu miqqiyni ham boqish kerak. (*G'afur G'ulom*)
6. Qizig'i shundaki, shu ko'rinishiga ovozi muloyim edi. (*F.Musajonov*)

 **136-mashq.** Yozma nutqda bosh gapning ostiga to'g'ri chiziq, ergash gapning ostiga to'lqinli chiziq chiziladi. Quyida berilgan gaplarni ko'chiring, bosh va ergash gaplar ostiga kerakli chiziqlarni chizib, ajarating.

1. O'tinni yorib bo'lib, mollarga xashak ham solib qo'ya qolay deb, og'ilxonaga kiruvdim. (*X. To'xtaboyev*)
2. Meni

ko'rib qolmasin deb, darrov yuzimga ko'rpani tortib oldim. (*X. To'xtaboyev*) 3. Otabek og'zidan nimaiki eshitgan bo'lsam, bir-bir so'zlab berdim. (*Abdulla Qodiriy*) 4. Jalol polvon yana Qo'chqor to'g'risida gapirib qolishmasin deb, asli kamgap odam bo'lishiga qaramay, uzundan uzoq gap boshladi. (*Said Ahmad*) 5. Kimki uloqni shu chuqurgacha olib kelib tashlasa, bir qo'y, ellik so'm pul, bir to'n oladi. (*Tog'ay Murod*)

137-mashq. Gaplarni o'qing, bosh va ergash gaplarni ajrating, bog'lovchi vositalarga izoh bering.

1. Eshikdan kirib kelgan bola ham biz uchun tabarruk odam, chunki u — mehmon. 2. Siz aytgan muddatda ulgurolmasam kerak, chunki ko'p so'qmoqlardan o'tishga to'g'ri keladi. Bilasizki, tog' so'qmoqlari juda tor va tik bo'ladi. 3. Bahorda, ma'lumki, o'tgan yozning mevasi tamom bo'lgan, yangisi hali chiqmagan, shuning uchun hamma narsa qimmat bo'ladi. 4. Daraxtlar borki, bir umr o'zgarmaydi. Guldasta qancha ko'p xil guldan yasalsa, shuncha chiroyli bo'ladi. (*R.Hamzatov*)

138-mashq. *Uyga vazifa.* Tushirib qoldirilgan bog'lovchi vositalarni joy-joyiga qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Dutor chalib o'tir (*deb, -ki, -sam*), tori uzilib ketdi. (*Qo'shiqdan*) 2. Kim izlan (*chunki, -sa, ekan*), u, albatta, o'z maqsadiga yetadi. («*Otalar so'zi*») 3. Toleyim shu (*ekan, -sa, -ki*), jahonda bir guliston tanladim. (*Hamid Olimjon*) 4. Kim vaqtini zoye qil (*toki, -mas, -sa*), bas, bu vaqt uning dushmanidir. (*Bahouddin Naqshband*)

32-dars. MATN VA LUG'AT USTIDA ISHLASH

139-mashq. Matnni o'qing. Ergashgan qo'shma gaplarni aniqlab, ularga izoh bering. Ona tiliga hurmat borasida suhbatlashing.

Tilimizdag'i yana bir yengillik shuki, sanog'i aytilgan narsalarni bildirgan so'zlarga ko'plik qo'shimchasi *-lar* qo'shilmaydi. Bu

mantiqan to‘g‘ri, chunki sanoqning o‘zi ko‘plikni ifoda qiladi. Rus, ingliz tillarida sanog‘i ma’lum narsalarga ham ko‘plik belgisi qo‘yiladi. Bu ikki til ta’sirida bizlarda ham o‘nta *kitoblar*, o‘n *ikkita kursilar* deguvchi chala mullalar paydo bo‘ldi. Bu hol ona tilining fazilatini bilmaslik, mensimaslikdir. (E. Vohidov)



140-mashq. O‘qing. Matn tarkibidagi qo‘shma gaplarni aniqlang. Ergashgan qo‘shma gaplarni ko‘chiring. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni izohlang.

Eshidimki, bir podshoh bir asirni o‘ldirishga farmon beribdi. Sho‘rlik asir hayotdan umidini uzibdi va podshohni boplab so‘ka boshlabdi, chunki kishi jonidan umidini uzsa, ko‘nglida borini bayon etadi.

Podshoh: «U nima deyapti?» – deb so‘rabdi. Sofdil vazirlardan biri: «Ey podshohi olam, har kim g‘azabini ichiga yutsa, u gunohkorning gunohidan o‘tadi deyapti», – deb javob beribdi.

Podshohning rahmi kelib, asirni afv etibdi. Sofdil vazirni ko‘ra olmaydigan ikkinchi vazir gapga aralashdi va vazirlar podshoh huzurida faqat rost so‘zlashlari lozimligini aytdi: «Bu asir podshohni haqorat qildi va sha’niga yomon gaplar aytdi», – debdi. Shunda podshoh jahl bilan debdi: «Sen aytgan rost gapdan ko‘ra uning yolg‘oni menga ko‘proq ma’qul tushdi, chunki uning yolg‘oni xayrixohlik yuzasidan aytilgan edi. Seniki esa jinoyatga boshlash uchun aytildi». (Sa’diy)

141-mashq. Ergashgan qo‘shma gaplarni aniqlang va ularning tuzilishiga diqqat qarating. Mavzuga o‘z munosabatingizni bildiring.

“Qoida, yo‘l-yo‘riq” ma’nosidagi *dastur* so‘zi tilimizdan mustahkam joy olayotgani — quvonchli hol. Bu yo‘lda sobitqadam bo‘lishimiz kerak. Lekin tilimizni tozalaymiz deb, xalqaro atamalarni yalpi surib chiqarish ham to‘g‘ri emas. Ular ham yangi zamonda topgan til boyligimiz. *Inson* degan so‘z yonida

odam, bashar, odamzod, jon, shaxs, zot, banda kabi atamalarimiz turganidek, dastur yonida programma, muammo yonida problema, atama, istiloh qatorida termin ham bo‘lsa, arava, ulov, markab bilan yondosh transport ham kunimizga yarab tursa, o‘zbekcha aytganda, teshib chiqmaydi. (E. Vohidov)

142-mashq. O‘.Hoshimovning quyidagi gaplarini epigraf qilib olib, “*Shirin so‘z – jon ozig‘i*” mavzusida og‘zaki matn tuzing. Matnda qo‘shma gaplardan foydalaning.

Odamlarning mushkulini oson qilish qo‘lingdan kelmasa, aqalli bir og‘iz shirin so‘z bilan ko‘nglini ko‘tar.

143-mashq. Quyidagi so‘zlarni lug‘at daftaringizga yozing, ma’nosini yodda saqlang. Ular ishtirokida ergashgan qo‘shma gaplar tuzing.

SOBITQADAM Bir gapda, maqsadda, maslakda mustahkam turadigan; og‘ishmaydigan.

SOFIDL Ko‘nglida kiri yo‘q, dili, qalbi pok, sof.

XAYRIXOH Yaxshilik tilaydigan, qo‘llab-quvvatlaydigan; iltifotli, taraf dor.

SHA’N 1 Insonga, shaxsga tegishli bo‘lgan qadr-e’tibor. **2** sharaf, shuhrat; obro‘.

144-mashq. *Uyga vazifa.* Quyidagi rasm asosida «*O‘zbekiston iftixorlari*» mavzusida matn tuzing va unda ergashgan qo‘shma gaplardan foydalaning.



33-dars. BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAP HAQIDA MA'LUMOT

Topshiriq. Berilgan qo'shma gaplar o'rtaсидаги farqlarni toping.

1. *Suv keldi – cho'llarda hayot boshlandi.* 2. *Suv keldi ya cho'llarda hayot boshlandi.* 3. *Suv keldi, shuning uchun cho'llarda hayot boshlandi.*



Bilib oling. Tarkibidagi sodda gaplar mazmunan bir-biri bilan bog'liq bo'lib, maxsus bog'lovchi vositalarsiz, faqat ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar *bog'lovchisiz qo'shma gaplar* sanaladi.

Tahlilda bog'lovchisiz qo'shma gaplar bir-biri bilan to'g'ri chiziq bilan bog'langan ikki to'rtburchak orqali ifodalanadi. Bu bog'lovchisiz qo'shma gap qolipi sanaladi.

! Esda saqlang. 1. Qo'shma gap qismlari bir paytda yoki ketma-ket sodir bo'ladigan voqeа-hodisalarni ifodalasa, ular orasida vergul qo'yiladi. (*Yigitlar daraxtlarning ostini yumshatdilar, qizlar maktab hovlisini supurdilar.*) 2. Qo'shma gap qismlari orasida o'xshatish, zidlash, shart kabi munosabatlar ifodalanganda, ular orasiga tire qo'yiladi. (*Hamal keldi – amal keldi.*) 3. Qo'shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalanganda, ular orasiga ko'pincha ikki nuqta qo'yiladi. (*Bizning qarorimiz shu: hasharda barchamiz faol ishtirok etamiz.*)

145-mashq. Ko'chiring. Qo'shma gap qismlari o'zaro qanday bog'langaniga va ular qanday tinish belgisi bilan ajratib yozilayotganiga e'tibor bering.

1. Avval ular bizga yetib olishsin, keyin birga jo'naymiz. (*X. To'xtaboyev*) 2. Yuragida qanday dard bor: mana bu menga sir. (*Oybek*) 3. Kuz keldi, yig'im-terim ishlari boshlandi. (*Qamchibek Kenja*) 4. To'rt mashina o'g'it yubordik – fermerlarga vaqtida taqsimlansin. 5. Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir: tun yarmidan og'ganda birdan uyg'onib ketasiz. (*O'.Hoshimov*)

146-mashq. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarga to'rtta misol yozing. Kesimlarining tagiga chizing. Qanday tinish belgisidan foydalanganingizni izohlang.

147-mashq. Ko'chiring. Qo'shma gapni qismlarga ajrating. Qismlari o'rtafiga vergul qo'yilish sababini ayting.

1. Yaxshi o'g'il – el obro'si, yaxshi qiz – uy obro'si. (*Maqol*)
2. Bulbul sayrar, chumchuq chirqirar, Xabar berar asl zotidan. (*Hamid Olimjon*)
3. Sidiqjon to'xtadi: orqasidan kimdir kelayotgan edi. (*Abdulla Qahhor*)
4. Sabr bila bog'liq ish ochilur, Ishda oshiqqan ko'p toyilur. (*Alisher Navoiy*)
5. Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin! (*Hadis*)

148-mashq. Ko'chiring. Qo'shma gapdag'i tinish belgilarining qo'yilish sababini izohlang.

1. Kampirning jig'ibiyroni chiqdi; ombordan olib chiqqan bir savat paxtasi bilan chig'irig'ini ko'tarib, vaysaganicha, uyiga kirib ketdi. (*Abdulla Qahhor*)
2. G'animlar duch kelar – jang bo'lar puxta. (A. *Oripov*)
3. Mening bir jaydari falsafamdir shu: Hargiz iltimosga kuning qolmasin. (A. *Oripov*)
4. Qiz uni ushlab olgani urindi, juda qiynalib ketdi: qo'llariga tikan kirdi, yuzi va bilaklari tirmalandi. (*Abdulla Qahhor*)



1. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'rtafiga qanday ma'no munosabatlari mavjud?
2. Qaysi hollarda bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari yozuvda vergul bilan ajratiladi?
3. Qaysi hollarda bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari yozuvda tire bilan ajratiladi?

149-mashq. *Uyga vazifa.* Qismlari o‘rtasida zidlik, o‘xshatish munosabati mavjud bo‘lgan qo‘shma gaplarga to‘rtta misol yozing. Ularning o‘rtasiga tinish belgisining qo‘yilish sababini tushuntiring.

34-dars. BOG‘LOVCHISIZ QO‘SHMA GAPLARDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI

Topshiriq. Berilgan gaplarda qo‘llangan tinish belgilarini izohlang.

1. Ruboiyni ichida o‘qidi, yuzini tabassum qopladi. (*Oybek*)
2. Yana uvlar dahshat shamoli, Ko‘kni qora bulut quchadi. (*Temur Fattoh*)
3. Suv keldi – nur keldi. (*Maqol*)
4. Orzum shul: o‘chmasin yongan chirog‘ing. (*A.Oripov*)

150-mashq. Parchani o‘qing. Unda ifodalangan fikrga munosabat bildiring. Sodda gaplarning bog‘lanishiga va qo‘llangan tinish belgilariga diqqat qiling.

Bizning shunday ulug‘ she’riyatimiz bor, boylikda beqiyos ona tilimiz bor. Til millatning bosh belgisi hisoblanadi. Til bor – millat bor. Til yo‘q – millat yo‘q. Istiqlol unut bo‘lgan davlatchiligidizni tikladi, yo‘q bo‘lishga mahkum qilingan tilimizni, demakki, millatimizni asradi va aziz qildi. Endi uning biz yo‘qotib ulgurgan boyligini tiklash, turlicha “izm” tamg‘alarini qo‘yib iste’moldan chiqarilgan so‘zlarni o‘rniga qaytarish, buning uchun mumtoz adabiyotimizni chuqr o‘rganish hozirgi avlod zimmasidagi sharafli burchdir. (*E.Vohidov*)

151-mashq. Ahmad Yugnakiyning o‘gitlarini o‘qing, ularga amal qilyapsizmi? Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda tinish belgilarining ishlatalishiga e’tibor qarating.

O‘ylab so‘zlagan kishining so‘zi to‘g‘ridir, o‘rinsiz ko‘p vaysagan til shafqatsiz yovdir. Ahmoq kishining tili o‘ziga dushman, ko‘p kishilarning qoni til tufayli to‘kildi. Yaxshi kishi

qo‘lidan yomonlik kelmaydi, yomon kishi yaxshilik qaytarish uchun javob topa olmaydi.



152-mashq. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda tushirib qoldirilgan tinish belgilarini joy-joyiga qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Qadr-qimmat va izzat-e’tibor bilim tufaylidir bilimsiz zakovatsiz kishining bir kaft tuproqcha ham qimmati yo‘qdir. (*Yusuf Xos Hojib*) 2. Takabburlik shayton ishi O‘zini katta olish nodon ishi. (*Alisher Navoiy*) 3. Halol-pokiza kishi doimo xotirjam-u tinchlikdadir birovga xiyonat-u yomonlik qiladigan kishi halokatga giriftordir. (*Zamaxshariy*) 4. Fikrlash hayotdagi quvonch va katta baxtdir u insonning qudratli mashg‘ulotidir. (*Aristotel*)

153-mashq. Maqollarni ko‘chiring, tinish belgilarining ishlatilishiga diqqat qiling.

1. Yaxshi so‘z – yurak yog‘i, Yomon so‘z – yurak dog‘i.
2. Yaxshi so‘z – yurakka malham, Yomon so‘z – yurakka g‘am.
3. Yaxshi so‘z qand yedirar, Yomon so‘z pand yedirar.
4. Yaxshi so‘zdan moy eriydi, Yomon so‘zdan soy quriydi.
5. Har mevaning po‘chog‘i bor, Har so‘zning o‘lchovi bor.

154-mashq. *Uyga vazifa.* Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarga to‘rtta misol toping. Ularni bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplarga aylantiring. Qanday aylantirganingizni aytib bering.

35-dars. BOG‘LOVCHISIZ QO‘SHMA GAPLARNING BOSHQA QO‘SHMA GAP TURLARI BILAN MA’NODOSHLIGI

Topshiriq. Berilgan gaplarning turlarini ayting. Ular qanday farqlanayotganini izohlang.

1. *Bir kishi ariq ochadi, ming kishi suv ichadi.*
2. *Bir kishi ariq ochadi va ming kishi suv ichadi.*
3. *Bir kishi ariq ochsa, ming kishi suv ichadi.*



Bilib oling. Zidlik, sabab, shart, payt munosabatlari bog'lovchisiz, bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar bilan ham ifodalanishi mumkin. Shunga ko'ra ular bir-biriga ma'nodosh bo'la oladi.

155-mashq. Ko'chiring. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni bog'langan va ergashgan qo'shma gapga aylantiring.

1. Qor yog'di – don yog'di. (*Maqol*)
2. Sir ko'p olam qa'rida, Mo'jizaga kon olam. (*Usmon Azim*)
3. Ayrilganni ayiq yer, Bo'linganni bo'ri yer. (*Maqol*)
4. Yurgan daryo – o'tirgan bo'yra. (*Maqol*)

Namuna: *Qor yog'di – don yog'di. // Qor yog'di, go'yo don yog'di. // Qor yog'di-yu, don yog'di.*

156-mashq. Gaplarni o'qing, bog'lovchisiz qo'shma gaplarni bog'langan va ergashgan qo'shma gaplarga aylantiring.

Bilim bilan kishining martabasi oshadi, ilmsizlik kishini tubanlashtiradi. Odamning yetugi saxiy kishidir, saxiylik kishiga sharaf keltiradi. Saxovatsiz kishi mevasiz daraxtdir, mevasiz daraxtdan ortiq naf kutma. (*Ahmad Yugnakiy*)

Namuna: Saxovatsiz kishi mevasiz daraxtdir, shuning uchun mevasiz daraxtdan ortiq naf kutma.

157-mashq. Mazmuni o'zaro yaqin, lekin har xil bog'lovchi vositalar bilan bog'langan qo'shma gaplar tuzing. Ularning orasidagi farqni izohlang.

Namuna:

1. *Eshik ochildi, xonaga rassom kirib keldi.*
2. *Eshik ochildi va xonaga rassom kirib keldi.*
3. *Eshik ochildi-da, xonaga rassom kirib keldi.*
4. *Eshik ochildi-yu, xonaga rassom kirib keldi.*
5. *Eshik ochildi hamda xonaga rassom kirib keldi.*

158-mashq. Qo'shma gaplarni bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz kabi turlarga ajratib ko'chiring. Bir qo'shma gap turini boshqasiga aylantirishga harakat qiling.

1. Sizning qistovingiz bilan ko'nishga ko'ndim-u, lekin o'sha kundan beri o'zimga kelolmayman. (*Erkin A'zam*). 2. U bir narsa demoqchi bo'lib geologlar tomonga o'girildi. Lekin ular ancha olislab ketishgan edi. (*O'. Umarbekov*) 3. Xolang — savodsiz bir narsa, ammo yurt ko'rgan xotin. (*Said Ahmad*) 4. Endi nima bo'lib shundoq bo'lganini aytib o'tirishga fursatim yo'q — idorada odamlar kutib o'tiribdi. (*Abdulla Qahhor*)



1. Nima uchun qo'shma gaplar qismlarini bog'lovchi vositalarda ma'nodoshlik va vazifadoshlik mavjud?
2. Qo'shma gaplar qismlarini bog'lovchi vositalar ma'nodoshligining lug'aviy ma'nodoshlik (*chiroyli // go'zal*), grammatik ma'nodoshlik (*akamga oldim // akam uchun oldim*) bilan qanday aloqasi bor?
3. Ohang, teng bog'lovchi va bog'lovchi-yuklamalar vazi-fadoshligiga misollar keltiring.

159-mashq. *Uyga vazifa.* Berilgan qo'shma gaplar qismlari orasiga turli bog'lovchi vositalarni qo'yib, bir necha qo'shma gap turlarini hosil qiling va yozing.

1. Zal jim, xalq parda ochilishini kutar edi. (*Abdulla Qahhor*)
2. Qo'shning tinch — sen tinch. (*Maqol*)

36-dars. MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. O'qing. Qo'shma gaplarni topib ko'chiring.

1. Har kimga ozor bera ko'rma, dunyo barchaga barobardir.
2. Yog'och polvon o'sha polvonni charxpalak qilib yerga urdiyu, yuzi yorug' bo'ldi. (*Said Ahmad*) 3. Tojiboy gapirsa, kattakichik ixlos bilan uning og'ziga qaraydi. (*Parda Tursun*) 4. Borliq

jim: har bitta darchada zangor shu'lalar porlaydi. (E. Vohidov)
5. Dunyo go'zal va unda ko'rkmajoylar ko'p. (S.Muhamedov)

2-topshiriq. O'qing. Qo'shma gaplarni toping. Ularni bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarga ajratib yozing. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalarni aniqlang.

Onam xursand bo'ldi-da, meni bag'riga bosdi.

– Juda astoydil qarabsan. Quyoshning uyg'onishi sen ta'riflagandan ham antiqa: tong nihoyatda go'zal bo'ladi. Quyosh bosh ko'tarib chiqayotganda, tabiat holatini tomosha qilsang, barcha go'zalliklar ana shu paytda namoyon bo'ladi. Dov-daraxtlar, giyohlar uyg'onadi-yu, quyoshga salom beradi. Bilsang, tabiat u bilan tirik.

Tabiatga bunday mehrni mening qalbimga onam solib qo'ydi va qalbimda go'zallikni sevish, xushfe'l, xushtabiatli bo'lish, ozoda yurish kabi xislatlar uyg'ondi. (*Ibrohim Rahim*)

3-topshiriq. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarga to'rtta misol yozing, tinish belgilarining qo'yilishini tushuntiring.

4-topshiriq. *Uyga vazifa.* O'qing. Qo'shma gaplarni aniqlab, avval bog'lovchisiz qo'shma gaplarni, so'ng bog'langan va ergashgan qo'shma gaplarni ko'chiring.

Bolalik inson hayotining shunday poydevoridirki, umr binosining keyingi bo'y-basti, salobati unga bog'liq bo'ladi. Bolalarning eng yaqin tarbiyachisi – kitob. Shuni bilingki, u bolani ham aqlan, ham ma'naviy jihatdan boyitadi, shakllantiradi. Istiqlol davri bolalari g'ayratli, shijoatli; ko'zida chaqini, ko'ksida yolqini bor. Faqat mana shu shahd-u shiddatni to'g'ri yo'lga yo'naltira olishimiz kerak. Shundagina biz o'z maqsadlarimizga erishamiz va farovon hayot bizga muyassar bo'ladi. (*Dilshod Rajab*)

37-dars. BOG‘LOVCHISIZ QO‘SHMA GAPLARNING BOSHQA QO‘SHMA GAP TURLARI BILAN MA’NODOSHLIGI YUZASIDAN TAHLIL

160-mashq. O‘zbek xalq maqollarini o‘qing. Yaxshi va yomon so‘z haqida suhbatlashing. Tinish belgilarining ishlatalishiga e’tibor bering. Gaplarni bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplarga aylantiring, o‘rtadagi farqlarni tushuntiring.

1. Gapning qisqasi yaxshi, Qisqasidan hissasi yaxshi.
2. Donning achchig‘i yaxshi, So‘zning – shirini.
3. Duo olgan omondir, Qarg‘ish olgan yomondir.
4. Yomon gap – bosh qozig‘i, Yaxshi gap – jon ozig‘i.
5. Yomon til boshga balo keltirar, Yaxshi til davlat, dunyo keltirar.

161-mashq. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplarga aylantirib ko‘chiring. Farqlarini tushuntiring.

1. Traktorchilar tashvishlanib qolishdi: oziq-ovqat, yonilg‘i tugayapti.

2. Mana, shohona bo‘lmasa-da, boshpana kulbamiz bor, tanishib olamiz, gurunglashib chiqamiz.

3. Tashqarida sovuq zabitiga olgan, izg‘irin uvullab, qor bo‘ralab yog‘ardi.

4. Vaqt ham allamahal bo‘ldi, yigitlar, biz ham endi yotib uxlaylik.

(T. Shomurodov)

 **162-mashq.** Matnni ko‘chiring. Undagi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni yana qanday qo‘shma gaplarga aylantirish mumkin?

1. Har qanday yumushni boshlashdan oldin uchta qoidaga amal qil. Birinchidan, niyating pok bo‘lsin: Xudo seni qo‘llaydi. Ikkinchidan, borar manzilingni aniq belgilab ol: yo‘ldan adashmaysan. Uchinchidan, matonatli bo‘l: ortga chekinmaysan.

(O’.Hoshimov)



1. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar bog‘langan qo‘shma gaplarga aylantirilganda, uning qaysi tomoni o‘zgaradi?

2. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan qanday vosita yordamida bog'lanadi?
3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda qanday tinish belgilaridan foydalaniladi?

163-mashq. *Uyga vazifa.* Qo'shma gaplarni bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz kabi turlarga ajratib ko'chiring. Bir qo'shma gap turini boshqasiga aylantirishga harakat qiling.

1. Ko'chalarda odam siyrak, shuning uchun ular otlarini yo'rttirib borardilar. (*Tohir Malik*)
2. Omon ovchining ov sarguzashtlari ko'plarni qiziqtirardi: ko'plari hikoya eshitish uchun kelardi. (*Sh.Xolmirzayev*)
3. Qattiq charchagan edim, nima deb javob berganimni bilmayman. (*Said Ahmad*)
4. Agar biron asarim kitobxon og'ziga tushsa, mendan oldin u sevinib ketardi. (*Said Ahmad*)
5. Sizlar ketdingizlar-u, men bechora yetim boladek mung'ayib qolaverdim. (*Said Ahmad*)

38-dars. MATN VA LUG'AT USTIDA ISHLASH

164-mashq. She'rni o'qing. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni bog'langan qo'shma gaplarga aylantiring va ular orasidagi farqlarni tushuntiring.

Muruvvat-u ma'rifatdir buyuklikning nishonasi,
Qadam qo'ying, mana sizga asl yo'lning ostonasi.
Jahon ichra buyuk yurtni ulug' doston etaylik biz,
Zamon keldi, Vatan bag'rin go'zal bo'ston etaylik biz.
Ming-ming shukr, kelib davron istiqlolga erishdik biz,
Xarob bo'lgan xonadonni butlamoqqa kirishdik biz.
Iymon nuri oqib turar bir gavhar bor qonimizda,
Ne-ne buyuk bobolarning bardoshi bor jonimizda.
Oldindadir hali hikmat, oldindadir imkonimiz,
Yetishgaymiz kelajakka, pokizadir vijdonimiz.

Jahon ichra buyuk yurtni ulug‘ doston etaylik biz,
Zamon keldi, Vatan bag‘rin go‘zal bo‘ston etaylik biz.

(A.Oripov)

165-mashq. Quyida berilgan ergashgan qo‘shma gaplarni bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarga aylantiring va ular orasidagi farqlarni tushuntiring.

1. Kelinimga ko‘z tegmasin deb, isiriq tutatgandim. (*O‘.Hoshimov*)
2. Gazetani o‘qimagan bo‘lsangiz ham, mana, hammasidan xabardor ekansiz-ku. (*Erkin A’zam*)
3. Suhbatingizga sira to‘ymayman, chunki qalbingiz, tuyg‘ularingiz, muhabbattingiz ushbu qor singari beg‘ubor. (*Xurshid Do ‘stmuhammad*)
4. Dam oluvchilar sayrga ketishgan, shuning uchun atrofda shovqin yo‘q edi. (*Tohir Malik*)
5. Said G‘afforbek bunday murojaatni kutmagan edi, shu bois javobga shoshilib qoldi. (*Tohir Malik*)

✓ **166-mashq.** Quyida berilgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni ko‘chiring, ularda ilgari surilgan g‘oyalarga munosabat bildiring. Sabr haqida o‘z fikringizni ayting.

1. Har kim xato qilishi mumkin, faqat nodongina o‘z xatosini tan olmaydi. (*Sitseron*)
2. Ikki dunyo ham mard va saxiyarniki, mard bo‘l, ikki olam bo‘lur seniki. (*Nizomulmulk*)
3. Sabr bilan yumush bitar, sabrsizlar o‘z oyog‘idan ketar. (*Sa’diy*)
4. Zakovat qorong‘i tundagi mash‘al kabidir, bilim nur taratuvchi yorug‘likdir. (*Yusuf Xos Hojib*)
5. Ishni uning maqsadi boshqarib turadi; buyuk maqsadga qaratilgan ish buyuk ish deb hisoblanadi. (*A.P. Chexov*)

167-mashq. Qadimgi Rim faylasufi Senekaning «Yoshlikning o‘tayotganini hech kim his qilmaydi, lekin u o‘tib ketganidan keyingina hammaga seziladi» degan gapi asosida quyidagi savollarga javob bering. Javoblariningizda qo‘shma gaplardan foydalaning.

1. Yoshlik nima?
2. Yoshligingizni qanday foydali ishlarga sarf etmoqdasiz?
3. Yoshlikda inson qaysi fazilatlarga ega bo‘lishi kerak?

168-mashq. Quyidagi so‘zlarni lug‘at daftaringizga yozing va ular ishtirokida qo‘shma gaplar tuzing

BARDOSH 1 Chidam, sabr, toqat, dosh berish quvvati.
2 Iroda, qat’iyat.

MURUVVAT Odamgarchilik yuzasidan qilingan yaxshilik; saxovat, himmat.

SHIJOAT Harakat, faoliyatda mardona, jasoratlri intilish; mardlik, jasorat.

169-mashq. *Uyga vazifa.* Rasm asosida «Xush kelding, Navro‘z!» mavzusida matn tuzing, unda qo‘shma gaplardan foydalaning.



39-dars. KO'CHIRMA GAPLI QO'SHMA GAP HAQIDA MA'LUMOT

Topshiriq. Tinish belgilarining ishlatilishiga e'tibor bering. «*Hali ko'nglingiz g'unchaday yosh, ota*», – dedi Sayramov. (Oybek)



Bilib oling. So'zlovchi ba'zan o'z nutqida birovning gapini aynan keltiradi. Birovning aynan keltirilgan gapi *ko'chirma gap*, so'zlovchining gapi esa *muallif gapi* deyiladi. Muallif gapi va ko'chirma gapdan tashkil topgan qo'shma gapga ko'chirma gapli qo'shma gap deyiladi.

170-mashq. Ko'chiring. Gaplar tarkibidagi muallif gapi va ko'chirma gapni ajrating. Tinish belgilarini izohlang.

Bir kuni Durroj tuzoqqa tushib qoldi. U ovchiga yalinib dedi: «Sen meni qo'yib yuborsang, barcha do'stlarimni aldab kelib, tuzog'ingga tushirib beraman». Ovchi bu gapdan achchiqlanib dedi: «Yo'q, ovora bo'lmay qo'yaqol, men seni qo'yib yubormayman. O'z joningni qutqarmoq uchun do'stlaringga xiyonat qilmoqchisan. Sofdil qushlardan ko'ra xiyonatkor do'stning o'lgani yaxshi».

171-mashq. Matnni o'qing, ko'chirma gaplarni aniqlang, ularning muallif gapidan farqini tushuntiring.

Bir kishi ulug' bir hakimning ziyofatiga bordi. U behuda so'zlarni haddan ortiq ko'p gapirdi va so'z orasida: «Ko'p so'zladim. Endi so'zlashni bas qilay», – dedi. Hakim unga e'tiroz bildirdi: «Yo'q, sen hali so'z so'zlaganing yo'q!»

Dag'al tillar go'zal so'zlar bunyod etmas,
To'ti hech vaqt qarg'a nutqin irod etmas. («*To'tinoma*»)

172-mashq. Ko‘chiring. Muallif gapi va ko‘chirma gapni aniqlab, ularning joylashish o‘rniga va qanday tinish belgisi ishlatilganligiga e’tibor bering.

Payg‘ambardan bir kishi so‘rabdi: «Ey Rasululloh, men kimni hurmat qilay?» «O‘z onangni», – deb javob beribdi Payg‘ambar. U yana so‘rabdi: «Onamdan boshqa yana kimni?» Payg‘ambar: «Onangni», – deb javob beribdi. Haligi kishi uchinchi marta so‘raganida ham «Onangni» degan javobni olibdi. U to‘rtinchi marta o‘z savolini qaytarganida, Payg‘ambar: «O‘z otangni, so‘ngra yaqinlaringni va qarindoshlaringni», – deb javob beribdi. (*Hadis*)

173-mashq. Ko‘chirma gapli qo‘shma gapga to‘rtta misol keltirib, ko‘chirma gapning o‘rni va tinish belgilarini izohlang.

-  1. Qanday gaplarga ko‘chirma gapli qo‘shma gap deyiladi?
- 2. Ko‘chirma gaplar qanday tinish belgisi bilan yoziladi?
- 3. Muallif gapi va ko‘chirma gapning joylashishi haqida gapiring.

174-mashq. *Uyga vazifa.* O‘zingiz o‘qiyotgan badiiy asardan ko‘chirma gapli qo‘shma gapga to‘rtta misol yozing. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda qanday tinish belgilari ishlatilganini ayting.

40-dars. KO‘CHIRMA GAPLI QO‘SHMA GAPNING TUZILISHI

Topshiriq. Berilgan gapdan muallif gapi va ko‘chirma gapni ajrating. Tinish belgilarining qo‘llanilishini izohlang. «*Intilganga tole yor*», – deydi xalqimiz.

 **Bilib oling.** Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar doimo ikki qismidan – *muallif gapi* va *ko‘chirma gapdan* tashkil topadi.

175-mashq. Ko‘chiring. Muallif gapi va ko‘chirma gapni aniqlang. Ularning qo‘llanish o‘rniga e’tibor bering.

Donodan so‘radilar: «Ey donishmand, kishi uchun eng yaxshi narsa nima?» Aytди: «Jim turmoq, ortiqcha so‘zlarni aytmaslik». Yana so‘radilar: «Unda bu xislat bo‘lmasa-chi?» Dono javob berdi: «Unday odamning bo‘lmagani yaxshi».

176-mashq. Ko‘chiring. Muallif gapi va ko‘chirma gapni, ularning joylashish o‘rnini aniqlang. Tinish belgilarining qo‘yilishiga e’tibor bering.

1. «Rahmat, ona qizim», – dedi muharrir mehri tovlanib. (*Murod Muhammad Do’st*) 2. «Ke, picha dam ol, chirog‘im, toza charchabsan», – dedi bobom. (*Oybek*) 3. Kampir oyoq ostida o‘sigan o‘tdan yilib, kiyik tomon yura boshladi: «Ma, jonivor, ma!» (*Said Ahmad*) 4. «Shoshmang, Ahmadjon», – dedi yigit. (*Abdulla Qahhor*) 5. Xalil bobo nevarasiga gиргитton bo‘lib: «Hoy bolam, senga nima bo‘ldi? A? Nima qildi, toychog‘im-a?», – der edi. (*A. Muqimov*) 6. «Zab yigit ekansiz-da, Tursunalijon. Barakalla, barakalla», – dedi u. (*A. Muqimov*)

177-mashq. Gaplarni ko‘chiring, ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarning tuzilishiga e’tibor bering.

Abdulla Qodiriy bog‘da ishlayotganida, bir odam o‘tib ketayotib:

- Ha, ishlayapsizmi? – deb so‘rabdi.
 - Yo‘q, dam olyapman, – deb javob beribdi yozuvchi.
- Ma’lum vaqtдан keyin boyagi odam qaytib o‘tsa, Qodiriy bog‘da o‘ylanganicha aylanib yurgan ekan.
- Ha, dam olyapsizmi?
 - Yo‘q, ishlayapman, – deb javob qilibdi ijod olamiga sho‘ng‘igan yozuvchi. (*R. Obidov*)

178-mashq. O‘qing. Gaplarni qavs ichida berilgan muallif nomlaridan foydalangan holda ko‘chirma gapli qo‘shma gapga aylantiring. Qanday yo‘l bilan qo‘shma gapga aylantirganingizni ayting.

1. Xalqning ishonchini oqlash har birimizning muqaddas burchimizdir. (*Mirtemir*) 2. Ertangi kunimiz bundan ham go‘zal bo‘ladi. (*A. Oripov*) 3. Tabiatning betakror go‘zalliklari yuragimga juda yaqin. (*M. Ulug‘ova*) 4. Inson mehnati beiz qolmaydi. (*E. A’zamov*)

179-mashq. Matnni davom ettiring. Unda ko‘chirma va muallif gaplaridan foydalaning.

Qo‘shiq – qalb mulki. U hayotning qalbdagi aks-sadosi...



1. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar qanday qismlardan tashkil topadi?
2. Muallif gapi deb qanday gapga aytildi?
3. Qanday gapga ko‘chirma gap deyiladi?

180-mashq. *Uyga vazifa.* Ko‘chirma gapli qo‘shma gapga to‘rtta misol yozing. Ko‘chirma va muallif gaplarini aniqlang.

41-dars. KO‘CHIRMA GAPLI QO‘SHMA GAPLARDA TINISH BELGILARINING QO‘LLANISHI

Topshiriq. Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gapdagi muallif gapini turli o‘rinlarda qo‘llang. Tinish belgilariga diqqat qiling.

«*Biz yagona daraxtning butun bo‘lgan taqdirimizdagina kuch-qudrat kasb etamiz*», – dedi O‘zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyeva.



Bilib oling. Muallif gapi (M) va ko‘chirma gap (K) bir-biriga nisbatan turlichay joylashishi mumkin, bunda tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi:

- 1) M: «K». M: «K?» M: «K!»
- 2) M: «K», – m. M: «K?» – m. M: «K!» – m.
- 3) «K», – m. «K?» – m. «K!» – m.
- 4) «K, – m, – k».

181-mashq. O‘qing. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni tegishli tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

1. Biz tinchlik daraxtini ekdis. Uni endi do‘llardan, bo‘ronlardan asrashimiz kerak deydi Muhammad Ali. 2. Millatlarni elatlarni deydi M. Ulug‘ova buyuk do‘stlik birlashtiradi. 3. Donolar deydi bolaga mehrni buyruq bilan singdirib bo‘lmaydi. 4. Odamlarning manfaatiga kelsak bu narsa mustaqillikdan keyin chinakamiga ustuvorlik kasb etdi deydi Anvar Obidjon.

Esda saqlang. Ko‘chirma gaplar alohida abzas ko‘rinishida yangi qatordan emas, balki muallif gapi bilan ketma-ket bir qatorda berilgan bo‘lsa, qo‘shtirnoqqa olinadi: *Muning ustiga yana ta’na ham qilib qo‘ydi*: «Kim olardi endi u kampirni?» (Cho‘pon)

Agar ko‘chirma gap alohida abzas ko‘rinishida yangi qatordan berilgan bo‘lsa, qo‘shtirnoqqa olinmaydi va uning boshlanishi oldidan tire qo‘yiladi:

Shunda keksa olim dedi:

– *O‘g‘lingizning dunyoda tengi bo‘lmaydi.* (O‘.Umarbekov)

182-mashq. Matnni o‘qing. Ko‘chirma gaplarni aniqlang, kerakli tinish belgilarini qo‘yib, ko‘chiring.

Rustam orziqib kutgan kun keldi. O‘sha kuni Rustam mакtabdan chiqdi-yu, to‘g‘ri gulzorga o‘tdi. Maktab bog‘boni Rasul bувани izlab topdi-da, unga sekin pul uzatdi.

– Buva, shunga gul bering, kerak bo‘lib qoldi.

Bog‘bon ajablanib Rustamdan so‘radi:

– Nega kerak bo‘lib qoldi?

– Bugun oyimning tug‘ilgan kunlari, shunga...

– Juda yaxshi o‘ylabsan, pulingni cho‘ntagingga solib qo‘y.

Hozir senga ajoyib guldasta yasab beraman.

Birozdan keyin Rustam chiroyli guldastani quchoqlab uyga chopdi. (N. Najmiddinov)

183-mashq. Ko‘chirma gap va muallif gapini topib, ularning o‘rnini aniqlang. Tinish belgilarining qo‘yilishiga e’tibor bering.

1. «Hunari va odobi bo‘lмаган кишидан, – дейди Mahmud Koshg‘ariy, – бaxт va давлат ketади». 2. Abu Rayhon Beruniy aytadi: «Yaxshi xulq yaxshilikning alomatidir». 3. Alisher Navoiy shunday demish: «Oz-oz o‘rganib, dono bo‘lur, Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur». 4. «Temur tuzuklari»da shunday deb bitilmish: «Tajribamdan ko‘rilgankim, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli kishi mingta tadbirsiz, loqayd kишидан yaxshiroqdur».

-  1. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda muallif gapi bilan ko‘chirma gap qanday tinish belgilari bilan ajratilishi haqida so‘zlang.
- 2. Muallif gapi bilan ko‘chirma gapning o‘rni almashtirilsa, tinish belgilari o‘zgaradimi?

184-mashq. Uyga vazifa. Ko‘chirma gap va muallif gapini aniqlab, tinish belgilarini qo‘yib, ko‘chiring.

1. Odob o‘rgatsalar, qulq sol deydi Yusufiy Birov odob o‘rgatsa, o‘rganmagan kishi hayvon kabidir. 2. Alisher Navoiy deganlar Befoyda so‘zni ko‘p aytma va foydalig‘ so‘zni ko‘p eshiturdan qaytma. 3. Navbat o‘ziga kelganda, ayyondan turib Maxdum baqirdi Ra’no, akangning qo‘liga suv quy! (*Abdulla Qodiriy*) 4. Ha dedi Nafisa qat’iy qilib aytmoqchi emas edim, endi aytadigan bo‘ldim. (*Asqad Muxtor*)

42-dars. KO‘CHIRMA VA O‘ZLASHTIRMA GAPLAR

Topshiriq. Gaplarni solishtirib, farqlarini ayting. 1. «*Tabiat – bizning onamizdir*», – dedi muallim. 2. *Muallim tabiat onamiz ekanligini aytди*.

 **Bilib oling.** Hech bir o‘zgarishsiz nutqqa olib kirilgan o‘zganing gapi *ko‘chirma gap*, mazmuni saqlanib, shakli o‘zgartirilgan o‘zganing gapi esa *o‘zlashtirma gap* hisoblanadi.

185-mashq. O‘qing. Avval ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni, so‘ng o‘zlashtirma gaplarni ko‘chiring.

1. O. Hojiyeva xalqni og‘ir sinovlar, mashaqqatlar, ulug‘ o‘zgarishlar jipslashtirishini, uning kuch-qudratini imtihon qilishini yozadi. 2. Amakim bizga uqtirdi: «Bir-biringiz bilan ahil bo‘linglar!». 3. G‘afur G‘ulom Erkin Vohidovning mudragan aruzni uyg‘otib yuborganini, uni arab, fors so‘zlaridan tozalab, sof o‘zbek g‘azalini yaratayotganini gapirdi. 4. Abdulla Qahhor jilmayib: «Odamzod hasad qilmasligi kerak. Havas qilishi kerak. Havas qilgan odam murodiga yetadi», – dedi.

186-mashq. Gaplarni ko‘chiring, ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarni aniqlang.

1. Bir donishmand nasihatni olmaydigan odamning baxtsiz odam ekanligini ta’kidlagan edi. 2. Xurramiy deydi: «Chiroyli xulq bilan inson insondir». 3. Bobom shirinso‘zlik va muloyimlik har qanday baloni qaytarishga qodirligini aytdi. 4. «Yaxshi fe’l bilan kishilar ko‘nglini olib, o‘zingni yomon qiliqlardan saqlab yasha», – deydi Ahmad Yugnakiy. 5. Hadislarda yaxshi xulqdan boshqa oliv nasab yo‘qligi haqida aytib o‘tilgan.

187-mashq. O‘qing. Ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirib, ko‘chiring.

Uyimiz yaqinidagi jiydazorda mol boqardik. Kunlardan birida chakalakzor ichidan temir qoziq topib oldim. O‘sha kuni echkimning arqoniga temir qoziq bog‘lab, uyga keldim. Dadam ovqatdan keyin qoziqni ko‘rib qoldi.

- Kimniki?
- Topib oldim, – dedim.
- Qayerdan?
- Jiydazordan.
- Hozir joyiga oborib qo‘y. Qayerdan olgan bo‘lsang, o‘sha yerga olib borasan...

Qoziqni o'sha o'zim topgan joyga tashlab kelguncha o'takam yorilay dedi.

– Shunaqa bo'ladi, – dedi dadam. – Ikkinchi birovning narsasini olmaydigan bo'lasan. O'sha odam qoziqni qidirib yurgan bo'lsa, ertaga sening qo'lingda ko'rib tanib qolsa, nima degan odam bo'lamiz. (*O'. Hoshimov*)

188-mashq. To'rtta ko'chirma gapli qo'shma gap yozing. Bu gaplarni o'zlashtirma gapga aylantiring.



1. Qanday gapga o'zlashtirma gap deyiladi?
2. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

189-mashq. *Uyga vazifa.* Nuqtalar o'rniga ko'chirma gaplar qo'ying. Ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantiring.

1. Do'stim dedi: «...».
2. Sinfdoshim mendan so'radi: «...?»
3. O'qituvchimiz: «...», – dedi.
4. Maktab direktori o'quvchilarga qarata dedi: «...!»

43-dars. KO'CHIRMA GAPLARNI O'ZLASHTIRMA GAPGA AYLANTIRISH

Topshiriq. Berilgan ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantiring. Qanday qilib o'zlashtirma gapga aylantirganingizni aytинг.

Donolar deydiki: «Vaqting ketdi – baxting ketdi».



Bilib oling. Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda, ko'chirma gapli qo'shma gap sodda gap shaklini oladi.

190-mashq. Daftaringiz sahifasini ikki ustunga bo'ling. Ustunning chap tomoniga to'rtta ko'chirma gapli qo'shma gap yozing. O'ng tomonida esa bu gaplarni o'zlashtirma gapga aylantiring. O'zlashtirma gap shaklida qanday o'zgarishlar bo'lganini aytинг.

Namuna:

- | | |
|---|--|
| 1. – Qizim, umring uzoq
bo‘lsin, – dedi yo‘lovchi. | 2. Yo‘lovchi qizga umri uzoq
bo‘lishini tiladi. |
|---|--|

191-mashq. Matnni o‘qing. Ko‘chirma gaplarni aniqlab, ularni o‘zlashtirma gaplarga aylantiring.

Sinf bo‘yicha faqat Xolmatda motorli velosiped bor. U bolalarni velosipedi yoniga yo‘latmas, menga bo‘lsa hammaga eshittirib: «Ilhom, bir kataysa qilib kelmaysanmi?» – derdi. Bilaman, vazifani mendan ko‘chirayotgani uchun shunday qiladi.

Bir kuni qiziq bo‘ldi. Yozma ishimni u ko‘chirayotganida, Iskandar aka payqab qoldi:

«Sen do‘sit emassan, – dedi Iskandar aka, – do‘sit o‘rtog‘ini yengilning ostidan, og‘irning ustidan yurishga o‘rgatmaydi».

Tanaffusda Xolmatni bir chetga tortdim-da: «Bundan keyin o‘qi. Endi daftар berish yo‘q», – dedim. (A. Ko‘chimov)

192-mashq. Ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantiring va ular o‘rtasidagi farqlarni ayting.

1. Qadimgilar demishki: «O‘z uyim – o‘lan to‘shagim».
2. «Kamgaplik, – deydi Hamid Olimjon, – donolik yo‘lining boshlanishi».
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy: «Maktab dunyo imoratlarining eng muqaddasi va qadrlisidir», – deb yozadi.
4. «So‘z – qolip, fikr – uning ichiga quyilgan g‘isht», – deb yozadi Abdulla Qodiriy.

193-mashq. Matnni o‘qing, undagi g‘oya haqida suhbatlashing. So‘ng gaplarni ko‘chirma gapga aylantiring.

Yer – tabiatning in’omi. U xalqqa noz-u ne’mat beradi. Qish kunlarida yer miriqib dam oladi. U qor va yomg‘ir namlarini yig‘ib, kelgusi yil hosili uchun asrab turadi, o‘ziga kuch to‘playdi. Bahorda yer insonga o‘z bag‘rini ochadi, saxiy mehrini sochadi. (Y. Sa’dullayeva)

194-mashq. Matnni o‘qing, uni ko‘chirma gapga aylantiring.

Yiqilgan otingdan yurma o‘pkalab,
G‘anim ranjidan ham chekmagin alam.
Egarda sobitlik ilmini o‘rgan,
Dardingga ma’rifat davodir, bolam. (*Amirqul Karim*)



1. Darak gap shaklidagi ko‘chirma gap o‘zlashtirma gapga qanday aylantiriladi?
2. So‘roq va buyruq gap shaklidagi gaplar-chi?
3. Ko‘chirma gap tarkibidagi undalmaning o‘rni o‘zlashtirma gapda qanday bo‘ladi?

195-mashq. *Uyga vazifa.* «Bobolarimiz o‘gitlari» mavzusida insho yozing. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplardan foydalaning va ularni og‘zaki ravishda o‘zlashtirma gapga aylantiring.

44-dars. MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Ko‘chiring. Muallif gapi va ko‘chirma gaplarni aniqlang. Tinish belgilarni izohlang.

Do‘stimga dedim: «Senga sir emaski, gul bebah, guliston bevafodir». Donishmandlar deydilar: «Har narsaki bevafo bo‘lsa, u muhabbat qo‘yishga noravodir». Do‘stim dedi: «Xo‘sh, u holda qanday tadbir ko‘riladi?» Men unga javob berdim: «Mutolaa qilganlarga safo, tinglaganlarga shifo baxsh etadigan «Guliston» nomli kitob yozishim mumkin».

Shu so‘zlar og‘zimdan chiqar-chiqmas, do‘stim etagimga yopishib xitob qildi: «Karam sohibi bo‘lgan odam va’da berdimi, va’dasiga vafo qilmog‘i lozim!» (*Sa’diy*)

2-topshiriq. Otangiz aytgan nasihatlarni yozing. Ko‘chirma gaplarga izoh bering.

3-topshiriq. Ikki guruhga bo‘lining. «Topqirlar» guruhi ko‘chirma gapli qo‘shma gap aytsin, «Zukkolar» guruhi bu gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantirsin. Qaysi guruh to‘xtab qolsa, o‘sha guruh yutqizgan hisoblanadi.

4-topshiriq. *Uyga vazifa.* Ko‘chirma gapli qo‘shma gapga to‘rtta misol yozing va ularni o‘zlashtirma gaplarga aylantiring.

45-dars. MATN VA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

196-mashq. Matnni o‘qing, undagi g‘oya to‘g‘risida bahslashing. Ko‘chirma gaplar va ularda tinish belgilaringning ishlatalishiga diqqat qiling.

Bahromshohning uchta o‘g‘li bor ekan. U tirikligida farzandlaridan birini taxtga o‘tqazib, xotirjam bo‘lmoqchi bo‘libdi va ularga sinash uchun shunday debdi:

– O‘g‘illarim, menga dunyoda eng kuchli, o‘ta shirin va eng yoqimli lazzatbaxsh narsani topib keltiringlar.

Yigitlar o‘sha narsani izlab yo‘lga tushishibdi. Biri may, biri asal olib kelibdi. Kenjas esa til keltiribdi.

Shoh sukut saqlab hammasini qabul qilib olibdi va debdi:

– Endi menga tig‘dan o‘tkir, zahardan kuchli, eng achchiq va ziyonli narsani olib kelinglar.

Hamma tarqalib ketibdi. Kenjas yana til keltiribdi.

Bahrom shoh kenja o‘g‘lini taxtga loyiq deb topibdi. Chunki dunyoda tildan kuchli narsa yo‘q. (*H. Rahmatullayev. «Otamning rivoyatlari» kitobidan*)

197-mashq. Berilgan so‘zlarning ma’nolariga diqqat qiling. Ulardan foydalanib, «*Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi*» mavzusida savol-javob qiling. Unda ko‘chirma gaplardan foydalaning.

BAHRA OLMOQ 1 Foyda, manfaat, naf olmoq. 2 Lazzat, huzur, rohat olmoq. 3 Ilhomlanmoq, ruhlanmoq; ta’lim olmoq.

HIKMAT 1 Aql-zakovat, donolik va uning ifodasi bo‘lgan, uni aks ettiruvchi gap-so‘z; fikr; donolik belgisi. 2 Tagini anglash qiyin bo‘lgan, yashirin bir ma’no, yashirin bir sabab.

NAFOSAT Narsa va hodisalarining tashqi ko‘rinishidagi alohida mukammallikni, mutanosiblikni ifodalovchi belgilar majmuyi; nafislik, go‘zallik, latofat.

IBRAT Namuna, o‘rnak bo‘ladigan ish, xatti-harakat va shu kabilar.



198-mashq. «O‘tkan kunlar» romanidan olingan parchani o‘qing, «Yurgan – daryo, o‘tirgan – bo‘ryo emish» degan gapga munosabat bildiring.

- Savdo bilan qanday shaharlarga boardingiz, bek? – deb qutidor so‘radi.
- O‘zimizning shaharlardan ko‘pini ko‘rdim, – dedi bek, – o‘ris shahardan Shamayga ham bordim.
- Ha, ha, siz Shamayga ham boardingizmi? – deb Ziyo shohichi ajablandi.
- O‘tkan yili borg‘an edim, – dedi bek. – Borishim noqulay bir vaqtga to‘g‘ri kelib, ko‘b mashaqqatlar chekdim.
- Chin savdogar siz emishsiz, – dedi qutidor, – biz shu yoshqa kelib hali o‘zimizning kattaroq shaharlarimizni ham ko‘ralmadik; siz o‘risning Shamayigacha borg‘ansiz.
- Yurgan – daryo, o‘tirgan – bo‘ryo emish, – dedi Akram hoji. (*Abdulla Qodiriy*)

199-mashq. *Uyga vazifa.* Yuqoridagi matn asosida «Yurgan – daryo ...» mavzusida hikoya yozing.

46-dars. MATN VA UNING MAQSADI. HIKOYA MATNI

Topshiriq. Matnni o‘qing. Matn tuzuvchining maqsadini aniqlashga harakat qiling.

Otamning o‘gitlari

Tuman gazetasiga kichik-kichik xabarlar yozib turardim. Bir kuni rahmatlik otam yonlariga chaqirib:

– Mayda-chuyda xabarlar yozishingni qo‘y, o‘g‘lim. Endi kattaroq bir narsalar yozgin, to‘rt odam o‘qib, bir-biriga aytadigan bo‘lsin! – dedi. (A.Jo‘rayev)



Bilib oling. O‘zaro va tarkiban bog‘langan gaplar ketma-ketligidan iborat yozma yoki og‘zaki shakldagi yaxlit birlik *matn* sanaladi. Matn tuzuvchi muayyan voqeа-hodisa yoki narsa, shaxs haqida hikoya qilish, ularni tasvirlash yoki ular haqida muhokama yuritish kabi maqsadlarni ko‘zda tutishi mumkin.

! Esda saqlang. Mazkur maqsadlarga muvofiq matnlarning quyidagi turlari farqlanadi: 1) hikoya matni; 2) tasviriy matn; 3) muhokama matni.

200-mashq. Matnni o‘qing. Yozuvchining «Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q» matalining mazmuni borasidagi muhokamasiga munosabatingizni bildiring.

«Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q» deydilar. [P]Chindan ham shunday. Oldimizdan oqqan suvni uvol qilsak – chidaydi. Qo‘limizni yuvsak – chidaydi. Betimizni chaysak – chidaydi. Boringki, oyog‘imizni yuvsak ham – chidaydi. Ammo... Oldimizdan oqqan suvga tupursak, cho‘p tiqib loyqalatsak, boshidan mag‘zava ag‘darsak... Oldimizdan oqqan suvning gunohi nima o‘zi?! (O’.Hoshimov)

201-mashq. Matnni ko‘chiring. Matndagi hikoya maqsadini izohlang.

Shundan keyin har kuni kelib, xabar olib turish odatim bo‘lib qoldi. Uni davolayotgan shifokorlar bilan uchrashib, ahvoldidan xabar olib turdim, yaxshiroq qarashlarini iltimos qildim. Uchto‘rt kun o‘tgandan keyin o‘rnidan turib yuradigan bo‘ldi. Meni ko‘rganda, chehrasi ochilishini sezib, bir qadar sevinib qo‘ydim. Kasalxona bog‘iga chiqib o‘tirib, ancha-muncha suhbatlashadigan bo‘lib qoldik. Oramizdagি rasmiy munosabat xiyla arib, qandaydir inoqlik paydo bo‘ldi. (*U.Nazarov*)

! **Esda saqlang.** Muayyan voqeа-hodisa yoki narsa, shaxs haqida hikoya qilish maqsadida tuzilgan matn *hikoya matni* sanaladi. Hikoya matni ko‘proq so‘zlashuv va badiiy asarlarda qo‘llanadi.

202-mashq. Biror joyga borganingizda ko‘rganlaringizni bayon qilish maqsadida «*Sayohat zavqi*» mavzusida hikoya matni yozing.

203-mashq. Matnni ko‘chiring. Yozuychining maqsadiga ko‘ra matn turini izohlang. Matndagi fikrga munosabat bildiring.

Afrika qabilalaridan birida jinoyat qilgan odamni sazoyi qilish, qamab qo‘yish, qatl etish degan gaplar yo‘q ekan. Tanho o‘zini qabiladan haydab yuborisharkan, xolos... Aslida, odam uchun yolg‘izlik eng oliy jazodir. (*O’.Hoshimov*)



1. Matn deb nimaga aytildi?
2. Matnning turlarini sanang.
3. Hikoya matni qayerlarda qo‘llanadi?

204-mashq. *Uyga vazifa.* Matnni ko‘chiring. Hikoya matnini tavsiflashga harakat qiling.

Nihoyat, u uyquga ketgan bo‘lsa kerak, tush ko‘rdi. Go‘yo mehmonxonaning yonida yana bir hujra qura boshlagan emish.

Uni usta go‘yo kampir ikkisiga mo‘ljallagan, qarigan chog‘imizda osoyishtaroq kun kechiraylik, deb o‘ylarmish. Shuning uchun ham kecha-yu kunduz hordiqsiz ishlar, o‘ziyam juda charchagan emish. (*O. Yoqubov*)

47-dars. TASVIRIY MATN

Topshiriq. Matnni o‘qing. Matn tuzuvchining maqsadini aniqlashga harakat qiling.

Temurbek qaddi-qomati raso, baland bo‘yli, keng peshonali, qoshlari quyuq, ko‘zлari katta-katta bir yigit edi. Ko‘z qarashi mayin, muloyim bo‘lib, kuchli, o‘ktam ovoz bilan gapirar, shoshilmas, ovozida kishini o‘ziga tortuvchi qandaydir joziba, sehr yashiringandi. Qur’on tushirganda, ovozi nomdor qorilarniki singari shirali va yoqimli eshitilardi. Seyistonda zaxmdor bo‘lgan o‘ng qo‘li bitib ketgan, ammo vaqtı-vaqtı bilan, ayniqsa, yomg‘irli kunlarda og‘rib qo‘yar, azob berar edi. O‘ng oyog‘i esa bukilmaydigan bo‘lib qolgan, yurganda oqsoqlanganini bildirmaslik uchun shoshilmay bitta-bitta qadam tashlab yurardi. (Muhammad Ali)



Bilib oling. Muayyan voqeа-hodisa yoki narsa, shaxsni tasvirlash, tavsiflash, ta’riflash maqsadida tuzilgan matn *tasviriy matn* sanaladi. Tasviriy matn so‘zlashuv, badiiy asarlar va boshqa nutq shakllarida qo‘llanadi.

205-mashq. O‘z maktabingiz yoki uning bog‘chasini tasvirlab, matn tuzing. Tasvir aniqligiga yordam bergan so‘zlarni izohlang.

206-mashq. Matnni o‘qing va uning o‘ziga xosliklari haqida fikr yuriting.

Yarim kecha bo‘lib qolgan, atrof jimjit. Faqat olislarda it uliydi. Ayvon to‘sindagi uzun mixga ilig‘lik lampochka xira nur

taratadi. Chiroq atrofida o'ralashgan chivinlar bir zum tinmaydi. Hovlining yarmigacha tortib ekilgan qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi. Onda-sonda rang olgan qulupnaylar ko'zga tashlanib qoladi.

Qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yong'oq shoxlari bir guvullab qo'ydi. Shoikrom uyqu elita boshlagan ko'zlar bilan o'sha tomonga qaradi. (*O'.Hoshimov*)



207-mashq. Rasm asosida qadim va hamisha navqiron Xiva shahrini yoki o'zingiz bilgan tarixiy obidani tasvirlab bering. Tasvirlashda ishlatgan so'z va iboralar izingizni izohlang.



208-mashq. Jaloliddin Manguberdi haqidagi matnni o'qing va uni qayta hikoya qiling.

Taxtga o‘xshash o‘rindiqda yigirma yoshlardagi, bug‘doyrang chehrali, chiroyli qosh-ko‘zli, nigohi jiddiy va sinovchan boquvchi, burnida qora xoli bor yigit o‘tirardi. Uning vazmin qarashlari, qat’iy qimtilgan labi kuchli iroda, og‘ir tabiatli va havoyi hirslarg tamom begona kishi ekanidan guvohlik berib turardi. Kalta tarashlangan soqlol-mo‘ylabi ham istarasi issiq yuziga yarashib, yigitlik husni va salobatini oshirgan. Bu – sulton Alovuddin Muhammadning o‘g‘li, to‘ng‘ich shahzoda Jaloliddin edi. (*Baxtiyor Abdug‘afur*)

209-mashq. Matnni o‘qing, undan foydalaniб, sinfdoshlaringizni tasvirlab bering.

Gulniholning ismi jismiga monand: yuzi gul, qomati niholdek, ko‘zlar o‘ychan, qora qoshlari mayin, qayrilma. Chehrasi farishtali, ko‘zlar ma’nodor, iboli. Harakatlari yengil, nazokatli. Lekin uni yaxshilab kuzatgan sinchkov kishi shuncha husn-latofat, nafis qiliqlar aro botiniy bir kuch, qat’iyat mavjudligini sezmay iloji yo‘q. Bu kuch uning tomirida oqayotgan qondan – otameros. Otasi ... mard, cho‘rtkesar odam edi. (*Jo‘ra Fozil*)



1. Tasviriy matn qanday maqsad bilan tuziladi?
2. Tasviriy matnning o‘ziga xosliklari haqida gapiring.
3. Tasviriy matn qayerlarda qo‘llanadi?

210-mashq. *Uyga vazifa.* Matnni o‘qing. O‘z hovlingiz, uyingiz haqida tasviriy matn tuzing.

Kattagina mevazor hovli, bir chetida, supaning etagida bejirimgina hovuzcha. Bir tomonidan suv kirib, bir tomonidan chiqib ketadi. Unga keladigan ariqning ikki beti qator olcha. Undan narida bir tup ulkan olma. Mevasi shig‘il. Hovlining etagida turli savzavot: kashnich, ukrop, shovul, petrushka, barkashdek yerga o‘sma ham sochilgan. Tartib bilan o‘tqazilgan turli-tuman gullar chaman bo‘lib yotibdi... (*Shuhrat*)

48-dars. MUHOKAMA MATNI

Topshiriq. Matnni o‘qing. Matnni tuzishdan ko‘zlangan maqsadni aniqlashga harakat qiling.

Ba’zan «mirshikor» so‘zini «mirishkor» tarzida o‘rinsiz ishlata dilar. Holbuki, buning to‘g‘ri shakli «mirshikor» bo‘lib, «mir» va «shikor» so‘zlaridan yasalgandir. «Shikor» — ov degani, «mir» esa «mirob», «mirshab» so‘zlaridagi «mir» bo‘lib, «amir kabi boshliq» ma’nosini bildiradi. Aslida, «mir» «amir» so‘zining qisqargan shakli. «Amir»ning lug‘aviy ma’nosi «buyurguvchi»dir. «Mirshab» deb tungi qorovullarning, «mirob» deb suvchilarning, «mirshikor» deb ovchilarning boshlig‘iga aytildi. «Mirshikor» so‘zining dehqonlarga nisbatan «mirishkor dehqon» deb ishlatish to‘g‘ri emas. Ba’zi kishilarning nutqida «mirishkor dehqon» degan iboraning paydo bo‘lishiga «mirshikor» so‘zining ikkinchi qismini noto‘g‘ri tushunish sabab bo‘lgan. (A.Rustamovning “So‘z haqida so‘z” kitobidan)



Bilib oling. Muayyan voqeа-hodisa yoki narsa, shaxs haqida muhokama yuritish, mulohaza bildirish maqsadida tuzilgan matn *muhokama matni* sanaladi. Muhokama matni ko‘proq ilmiy asarlarda, shuningdek, badiiy, so‘zlashuv va boshqa nutq shakllarida qo‘llanadi.

211-mashq. O‘qing, matnda ifodalangan muhokama mohiyatiga diqqat qiling. Asosiy fikrga munosabat bildiring.

Dunyoda shunday hunarlar borki, birining xatosini ikkinchisi tuzatishi mumkin. Paksakash xatosini suvoqchi, suvoqchi xatosini bo‘yoqchi; to‘quvchi aybini bichiqchi, bichiqchi aybini tikuvchi «yopib yuborsa» yuborar...

Dunyoda shunday hunarlar borki, xatosini hech kim tuzata olmaydi. Bular – shifokor va huquqshunos. Ular inson hayotini, inson qismatini hal qiladi. (*O’.Hoshimov*)

212-mashq. Berilgan gaplardagi fikrga munosabat bildirib, «Insoniylik mehrdan boshlanadi» mavzusida muhokama matni tuzing va yozing.

Har bir ishga mehr kerak. Mehr bilan qilinmagan ish ertaga tashvish keltiradi. (*B.Otajonova*)

✓ **213-mashq.** Matnni o‘qing, muhokama mazmunini ta’kidlayotgan so‘zlarni aniqlang.

Somon suvoq chakki bo‘lмаган: faqat bir-ikki xонанинг бурчаклари нотекисроқ чиққанди. Буниң сабаби газчо‘п ишлатишни яхши бильмаслиқда эди. Уста буни айтмоқчи ham bo‘ldи-yu, keyin бу о‘дан қайтди, чунки нотекис жойларни ганж сувоқда то‘ғ’рилаб ўбориш қиын емас эди, уста умуман камчилік қидиришни юqtirmas, буни «қарilik kasali» deb биљарди. (*O.Yoqubov*)

214-mashq. Matnni o‘qing, johillikning nima ekanligi haqida mulohazalaringizni bildiring.

Bir mashhur tabibdan со‘rabdilar:

– Dunyoda eng og‘ir xastalik nedur?

Tabib aytibdur:

– Xastalikning яхши-йомони bo‘lmaydi, ammo eng dahshatlisi johillikdir. Siz nima deysiz?



1. Muhokama mazmuniga ega bo‘lgan matnlarning asosiy belgilari haqida aytинг.
2. Muhokama matnining qo‘llanishi haqida gapiring.
3. Muhokama va mulohaza nima?

215-mashq. *Uyga vazifa.* Alisher Navoiyning «*Oldiga qo‘yganni yemoq – hayvonning ishi, Og‘ziga kelganni demoq – nodonning ishi*» hikmati ustida o‘ylab ko‘ring. Shu haqda matn tuzing.

49-dars. MATN VA GAP

Topshiriq. Matnni o‘qing. Ular tarkibidagi sodda va qo‘shma gaplarni aniqlab, gaplar o‘rtasidagi bog‘lanishni tushuntirishga harakat qiling.

Bir kuni taomlar o‘zaro bahslashib qolishibdi. «Men hammangdan zo‘rman, – deb maqtanibdi norin, – eng aziz mehmonga meni tortishadi». «Yo‘q, men hammangdan zo‘rman, – debdi palov, – bejiz meni palovxonto‘ra deyishmaydi». Bir chekkada mung‘ayib o‘tirgan atalaning jahli chiqib ketibdi. «Bekor aytibsanlar, – debdi u, – hammangdan ham men zo‘rman – urush paytida hammang qochib ketib, dasturxonada bitta o‘zim qolganman». (X.Sultonov)

! Esda saqlang. Matn tarkibidagi gaplar tuzilishiga ko‘ra sodda ham, qo‘shma ham bo‘laverishi mumkin. Ular mazmunan va mantiqan bir-biri bilan bog‘langan bo‘ladi. Muayyan so‘z va grammatik shakllar bu bog‘lanishni ko‘rsatib turadi.

216-mashq. Azim Suyun qalamiga mansub ota-bola suhbatini o‘qing, qo‘shma gaplarni topib, izohlang. Gaplarning bog‘lanishi haqida fikr bildiring.

Bolaligimda otam bilan tog‘da cho‘ponlik qilar edim. Bir kuni ikkov buloq boshida o‘tirar edik, beixtiyor suvga tupurib yuboribman. «Suvga tupurma, bolam, – dedi otam, – harom bo‘ladi».

- Oqib ketayotgan suv ham harom bo‘ladimi? – dedim men.
- Ha, – dedi otam, – hamma haromlik bir tupukdan boshlanadi.

 **217-mashq.** Matnni o‘qing, vatanparvarlik haqida o‘z fikringizni ayting. Qo‘shma gaplarga izoh bering.

Vatan inson uchun muqaddas, uni hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi, u o‘z-o‘zidan sevilishga, ardoqlanishga va qadrlanishga loyiq.

Vatanparvarlik — bu shunday nozik, teran tuyg‘uki, u faqat ona suti bilan kirishi va jon bilan chiqishi mumkin. Fidoyilik vatanparvarlikning bosh belgisi hisoblanib, uning oliv ko‘rinishi jasoratdir.

Vatanparvarlik faqat harbiy xizmatda yoki jangda namoyon bo‘lmaydi, balki mana shu zaminda yashab turgan har bir insonning o‘z uyi, mahallasini asrashi ham vatanparvarlikdir. («*Milliy istiqlol g‘oyasi: Vatan ravnaqi» kitobidan*)

218-mashq. Atoqli yozuvchi Abdulla Qahhorning quyidagi gapini muhokama qiling va «*Xalqning asl farzandi kimlar?*» mavzusida og‘zaki matn tuzing. Matnda qo‘shma gaplardan foydalaning.

Shunday odamlar ham bo‘ladiki, tug‘ilganda hech kim sevinmagan bo‘lsa ham, o‘lganda butun yurt aza tutadi.

219-mashq. Agar bog‘lovchisi bilan boshlanuvchi gaplarni davom ettiring. Xulosalab, og‘zaki matn tuzing.

1. Agar adolatli inson bo‘lib qolishni istasangiz, ...
2. Agar sizni birov alday boshlasa, ...
3. Agar haqiqat sirini ochishni istasangiz, ...
4. Agar boshqalar gapingizni eshitishni xohlamay qolgan ekan, ...



1. Matn va gap munosabati haqida gapiring.
2. Matnda gaplarning mazmuniy bog‘lanishi haqida so‘zlang.
3. Matnda gaplarning bog‘langanini ko‘rsatadigan so‘zlar va grammatik shakllarni izohlang.

220-mashq. *Uyga vazifa.* Matnni ko‘chiring. Sodda va qo‘shma gaplarni aniqlab, gaplar o‘rtasidagi bog‘lanishni tushuntiring.

To‘rt tomondan sovuq izg‘irin esadi. Lager binolari tog‘ning baland joyiga qurilgan. Bu yerga qish erta tushadi, qor juda ko‘p

yog‘adi. Dekabr oylariga borib jilg‘alardagi suvlar to‘ng‘ib, oqmay qoladi, buloqlarning atrofini qalin muz qoplaydi. Albatta, bunday paytlarda tog‘da yolg‘iz o‘tirish yana ham qiyin. Xoliq buvaning o‘n besh yashar nevarasi Asqar ba’zi kunlari bobosini ko‘rgani keladi. Buvisi dasturxonga o‘rab-chirmab berib yuborgan palovni sovutmasdan yetkazib boradi. (*P. Qodirov*)

8-BO‘LIM

TINISH BELGILARINING QO‘LLANILISHI. TAKRORLASH

50-dars. TINISH BELGILARI VA ULARNING YOZMA NUTQDAGI AHAMIYATI

Topshiriq. Ahmad Yugnakiyning hikmatli so‘zida qo‘llangan tinish belgilarini izohlang va undagi g‘oya to‘g‘risida fikrlashing.

*Eshitgil bilimlik nima deb aytur:
«Adablar boshi tilni tiyib turishdur».*

! Esda saqlang. Yozuv madaniyatini takomillashtirish va savodxonlikni ta’minlashda tinish belgilari alohida ahamiyatga ega. Siz bilasizki, tinish belgilari va ularni yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llash yo‘l-yo‘riqlarini o‘rgatuvchi tilshunoslik bo‘limi *punktuatsiya* deb nomlanadi. Tinish belgilari tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, yozma nutqni to‘g‘ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta’minlashda benihoya zaruriy vositadir.

221-mashq. Matnni o‘qing. Tinish belgilarining vazifalarini izohlang.

Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy: «Ko‘ngil maxzanining qulfi til va ul maxzanning kalidin so‘z bil», – degan edilar. Darhaqiqat,

inson qancha bilim va boylikka ega bo'lmasin, uni so'z, nutq bilan ifodalab bera olmasa, bunday bilim, malakaning o'zgalarga nafi bo'lmaydi. (*Q. Abdullayeva*)

222-mashq. O'. Hoshimovning kitob haqidagi fikrlarini o'qing, gaplarda tinish belgilarining ishlatalish o'rinalarini izohlang. O'zingiz qanday kitoblarni o'qigansiz? Ko'p kitob o'qish inson nutqiga qanday ta'sir qiladi?

Deylik, konsertga tushdingiz. Sozanda soz chalyapti, xonanda qo'shiq aytyapti. Raqqosa raqs tushyapti. Siz tomoshani ko'zingiz bilan ko'rib, qulog'ingiz bilan tinglab zavqlanasiz. Endi, tasavvur qiling: siz kitob o'qiyapsiz. Oq qog'ozda qora chiziqlar – harflardan bo'lak hech narsa yo'q. Rang ham, ovoz ham, raqqosaning harakatlari ham... Ammo asarni o'qishga kirishishingiz bilan ko'z oldingizda rangin manzaralar paydo bo'ladi. Qulog'ingiz ostida ajib ohanglar jaranglay boshlaydi. Kitobdagi odamlarning qismatiga sherik bo'lib, o'zingiz bilmagan holda beixtiyor larzaga tushasiz... Hech shubhasiz, badiiy adabiyot – dunyodagi sakkizinch mo'jiza!

 **223-mashq.** Gaplarni o'qing, ogohlilik va hushyorlik haqida fikrlashing. *Tinchlik, halovat, fayzli, tarovatli* so'zlarining ishlatalish o'rinalariga diqqat qiling. Tinish belgilarining qo'llanilish o'rinalarini izohlang.

Xalqimizning birligi, jipsligi, tinch-totuvligi bizning bebafo boyligimizdir. Ogohlilik – davr talabi! Tinchlik – eng bebafo ne'mat, tinchlik bo'lsa, halovat bo'ladi, halovatli elning har bir kuni fayzli, tarovatli o'tadi. Biz – yoshlar baralla shunday deymiz: «O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi!»

224-mashq. Tog'ay Murod asarlaridan olingan gaplarda qo'llangan tinish belgilarini izohlang. Adibning qaysi asarlarini o'qigansiz? Sinfdoshlaringizga taassurotlaringizni aytib bering.

1. O‘smirlar davra qurib kurash tushdi. 2. – Odamlar, Oqjarda ko‘pkari bo‘ladi! – dedi Nabi oqsoqol. – Xohlaganlar borsin! Eslaringda bo‘lsin, kechasi olish bo‘ladi. 3. Oti Momosuluv emish. Yuzlari kulchadaymi yo suluvmi? 4. Kun yoyildi, olam munavvar bo‘ldi.

-  1. Tinish belgilarining ahamiyati haqida so‘zlang.
- 2. Tinish belgilarini tilshunoslikning qaysi bo‘limi o‘rganadi?
- 3. Tinish belgilarining sintaksis bilan qanday aloqasi bor?

225-mashq. *Uyga vazifa.* Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini o‘rniga qo‘yib, matnni ko‘chiring.

Sarsonboy ota javob bermadi. Uning bugun go‘yo niyatiga yetadigandek kayfi chog‘ edi. Lekin o‘rtog‘ining gapi bilan ko‘ngli buzildi. Sening nima ishing bor Choyingni sotsang-chi demoqchi ham bo‘ldi tili bormadi. Madumar akaning gapida jon bor edi. O‘g‘lidan qoraxat kelganidan keyin bechora o‘n yil kutdi. O‘zi cho‘p bo‘lib qoldi. Oxiri chidolmay aza ochdi. Ermagi — choyxona. (*O‘.Umarbekov*)

51-dars. NUQTA VA VERGULNING ISHLATILISHI

Topshiriq. Gapni o‘qing, nuqta va vergulning ishlatilish o‘rinlarini izohlang.

Shoshilish zo‘riqishga olib keladi. Qadamingni o‘rinsiz tezlashtirsang, qoqilib yiqilishing mumkin. Qo‘l harakatingga zo‘r bersang, uni bunga urishtirib yuborishing, tilingni shoshiltirsang, nokerak gapni aytib qo‘yishing, aqlingni shoshiltirsang, noto‘g‘ri xulosalarga kelib qolishing mumkin. (T. Sodiqova)

! Esda saqlang. Nuqta o‘zbek tilida, odatda, his-hayajonsiz aytilgan darak, buyruq gaplar, atov gaplardan so‘ng qo‘yiladi.

Vergul uyushiq bo'laklar, undalmalar, kirish so'z va birikmalar, ajratilgan bo'laklar, tasdiq, ta'kid, inkor va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi *ha*, *yo'q*, *rahmat*, *xo'sh*, *qani*, *xayr*, *ofarin*, *salom* kabi so'zlardan keyin qo'yiladi. Qo'shma gaplarni tashkil qilgan sodda gaplar orasida, ko'chirma gap bilan muallif gapini ajratishda ham vergul qo'llanadi.

226-mashq. Gaplarni ko'chiring, ularda ifodalangan g'oya to'g'risida bahslashing. Tinish belgilarining qo'llanishini izohlang.

1. Ish vaqtida ayyor, osh vaqtida tayyor bo'lib, sirtning yaltirab, iching qaltirab turib, tirikman degandan ko'ra o'lim afzal. (*Abay*) 2. Yuragida qo'ri bor odamning qo'llari ham issiq bo'ladi. (*Abdulla Qahhor*) 3. Kishini g'azab yoki shunga o'xshash his egallasa, uning qabul qilgan qarori, albatta, noto'g'ri bo'ladi. 4. Shunday harakat qilingki, birovga yuk bo'lman, balki hamroh bo'ling. (*Bahouddin Naqshband*)

227-mashq. Rasm asosida «Bizning oilamiz» mavzusida og'zaki matn tuzing. Og'zaki matnni ko'chirsangiz, qayerlarida nuqta va qayerlarida vergul ishlatishingizni tushuntirib bering.



228-mashq. Hikmatli so‘zlarni ko‘chiring, nuqta va vergulning ishlatalish o‘rinlarini izohlang.

1. Haqiqiy inson hamisha ilm va hunar olishga intiladi. Ilm bir daraxt bo‘lsa, odob uning mevasidir. Odobsiz olim mevasiz daraxtdir. (*Muhammad Zehniy*) 2. Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir... (*Cho‘lpon*) 3. Ilm ham, ijod ham bahs bilan tirik. Ma’rifat izlagan inson xato qilishdan cho‘chimaydi. Ma’rifatli inson birovning xatosidan kulmaydi. (*E. Vohidov*) 4. O‘zi haqida o‘ylamay, faqat elga bilim berish haqida o‘ylagan olim kishi xuddi shamga o‘xshaydi: u o‘zini yondiradi va xalqni ziyoli qiladi. («*Otalar so‘zi*») 5. Kimdaki bo‘lmasa zamona g‘ami, Yo olamdin emas, yo emas odami. (*Pahlavon Mahmud*)



1. Nuqtadan qanday o‘rinlarda foydalaniлади?
2. Vergul qaysi o‘rinlarda qo‘yилди?
3. Undalma, kirish so‘z va kirish birikmalardan so‘ng nima uchun vergul ishlatalidi?

229-mashq. *Uyga vazifa.* Matnni o‘qing, nuqta va vergulning qo‘yilish sabablarini ayting. Qaysi kasbni yoqtirasiz, shu haqda fikringizni yozing.

Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidir. El, yurt ravnaqi uchun kamarbasta bo‘ladigan o‘qituvchi, shifokor, muhandis, quruvchi, tabiatshunos ham zarur. Siz ezgu maqsadda yo‘lga chog‘lanyapsizmi, sira ikkilanmang. Ertaga, shubhasiz, kishilarga nafi tegadigan shifokor, me’mor yoki el tanigan olim bo‘lasiz. Ehtimol, qo‘li gul usta yoki ekolog bo‘larsiz. Ozorlanayotgan tabiatga sizning sa‘y-harakatlaringiz bilan jon kirar, go‘zal binolar qad rostlar.

Hozircha o‘qish-o‘rganish payida bo‘ling. Axir, inson ulug‘vor ishlarni qilishdek ko‘nikma va bilimga o‘z-o‘zidan ega bo‘lib qolmaydi-ku?!

52-dars. SO'ROQ VA UNDOV BELGILARINING QO'LLANISHI

Topshiriq. Aka va uka o'rtasidagi savol-javoblarni o'qing, so'roq va undov belgisining ishlatilish sababini tushuntiring.

- *Nima bu? – deydi aka.*
- *«Erali va Sherali», – deydi uka.*
- *Nima qilay?*
- *O'qi!*

! Esda saqlang. So'roq belgisi so'roq gaplarning oxiriga qo'yiladi. Shuningdek, gap yoki matn ichidagi birorta so'z yoki jumla mujmal, noaniq, tushunarsiz bo'lsa, undan so'ng qavs ichiga so'roq belgisi qo'yilishi mumkin.

Undov belgisi kuchli his-hayajon bilan aytilgan gaplardan so'ng qo'yiladi. Buyurish, yalinish, istak, xohish va shu kabi ma'nolarni ifodalovchi gaplarning oxirida ham ishlatiladi. Shuningdek, so'z boshida kelib, kuchli his-hayajon bilan aytilgan undalmalar, *ha, yo'q, xo'p, uzr, mayli, xayr, salom* kabi so'z-gaplar hayajon bilan aytiganda ham undov belgisidan foydalaniladi.

Aytlishi lozim bo'lgan fikr o'ta kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket uchtagacha undov belgisi qo'yilishi mumkin.

230-mashq. Hazil matnni o'qing. Undagi tinish belgilarini izohlang. Aytimoqchi bo'lgan fikr haqida suhbatlashing.

- Eshagim, harom o'lgur, hangrayverib jonga tegyapti. Mamarayim, nima qilsam bo'ladi-a?
- Yukni ko'proq ortsang, ovozi o'chadi! (*O'.Hoshimov*)

231-mashq. Gaplarni o'qing, tinish belgilarining qo'llanilishiga diqqat qiling. Birinchi gapga munosabat bildiring.

1. Navosiz ulusning navobaxshi bo'l, Navoiy yomon bo'lsa, sen yaxshi bo'l! (*Alisher Navoiy*) 2. Bor ekan-ku bunaqa yorug'

kunlar! Nihoyat, bizning ko‘kragimizga ham shadaba tegadigan bo‘ldi. (*O.Sharafiddinov*) 3. Muhammad Yusufning «Osmonning oxiri» dostonini o‘qiganmisiz? Unda shunday jumla bor: «Odam dunyoga bir marta keladi. Shu bir kalima so‘z bilan qancha savob ishlar qilish mumkin. Shu bir kalima so‘z pinjida qancha gunohga botish mumkin». (*D.Muhammadiyev*) 4. Ey bo‘tam! Tilingni yomon so‘zlardan saqla! (*Zamaxshariy*)

232-mashq. Zafar Diyorning «Kitob, mening do‘simsan!» she’rini yodlang. Undov belgisining ishlatalish sabablarini izohlang.

Yosh o‘ynoqi ko‘zlarim
Bilim olar kitobdan.
Tashkil topib so‘zlarim,
Shuur olar kitobdan.
Shuning uchun deymanki:
«Kitob, mening do‘simsan!»

233-mashq. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini joy-joyiga qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Tursunboy boshini egib yerdan cho‘p olib tishlab o‘tiraverdi
Onang o‘ldi dedi Ikromjon
Bilaman Ko‘mishga olib ketayotganlarida ko‘rib turgan edim
Ikromjon o‘zini yo‘qotib qo‘ydi Qarshisida o‘tirgan bolasini
yagona oyog‘i bilan tepib yubordi Tursunboy orqasiga ag‘darilib
tushdi. U to o‘rnidan turguncha Ikromjon emaklab borib boshiga
yuziga uraverdi U mushtlardi-yu allaqanday xunuk ovoz bilan
baqirardi

Onang qandoq xotin edi Qandoq xotin edi Nomard Ona
qabrga qo‘yilayotganda ko‘rib turib yoniga borolmagan oqpadar
(*Said Ahmad*)



1. So‘roq belgisi qaysi o‘rinlarda ishlataladi?
2. Undov belgisi ketma-ket nechtagacha qo‘llanishi mumkin?

3. Undov belgisi qanday hollarda qo‘llanadi?

234-mashq. *Uyga vazifa.* Behzod Fazliddinning quyidagi fikriga munosabat bildiriting va matn tuzing. Unda so‘roq va undov belgilardan foydalaning.

Ular qichqiraversin: «Hayot – bu lahza. O‘yna!»

Siz o‘zingiz uchun javob bering: «Hayot – bu lahza. O‘yla!»

53-dars. IKKI NUQTA VA NUQTALI VERGULNING ISHLATILISHI

Topshiriq. Gapni o‘qing, ikki nuqta nima uchun qo‘llangan? Sababini tushuntiring.

Hozirgi yoshlarga aytar so‘zimiz: o‘tgan ajdodlarimizga munosib farzand bo‘ling. (R. O‘rinboyev)

235-mashq. Ikki nuqta va nuqtali vergulning ishlatilish o‘rinlariga izoh bering.

Tinch va osuda yashash uchun:

- bir sutkada 7 soat uqlashga odatlaning;
- doimo yaxshilikni o‘ylang;
- foydali ijtimoiy mehnat bilan band bo‘ling;
- bo‘sh vaqtinuzni ko‘proq kitob o‘qish bilan o‘tkazing.

! Esda saqlang. Ikki nuqta shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda, shuningdek, ko‘chirma gapdan oldin kelgan muallif gapi, uyushiq bo‘laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan keyin ishlatiladi.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatidan tugal fikrni anglatib, bir-biriga yaqin bo‘lmagan hollarda bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda, uyushiq bo‘laklar guruhlanib,

o‘zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, nuqtali vergul qo‘llanadi.

236-mashq. Gaplarni o‘qing, ikki nuqta va nuqtali vergulning ishlatalish o‘rinlariga izoh bering.

1. Foydali so‘z go‘dakdan chiqsa ham qulq sol; yomon so‘z mo‘ysafiddan chiqsa ham qulq solma. («Avesto»dan)
2. Senga eng yaxshi maslahat: mutakabbirlik bilan yuzingni teskari burma va shon-shuhrating bilan faxrlanma. (Zamaxshariy)
3. Ishlar vaqtida bajarilishi kerak: vaqtida bajarilmagan ish sust bo‘ladi. (*Bobur*) 4. Har qanday tushuncha muhokamaning natijasidir; muhokama esa tajribaning natijasidir, tajriba esa sezgi a’zolarimizning faoliyati tufayli qo‘lga kiritiladi. (*Forobiy*)

237-mashq. Konfutsiy hikmatini o‘qing, siz ham bilmaganingizni boshqalardan so‘rab o‘rganishdan tortinmaysizmi? Ikki nuqtaning qo‘yilish sababini tushuntiring.

Muallif javob qildi:

– U zehni o‘tkir, bilimga chanqoq bo‘lgan va boshqalardan so‘rab o‘rganishdan uyalmagan, shuning uchun uni «ma’rifatli» deb ataganlar.

 **238-mashq.** Ko‘chirma gap va muallif gapi o‘rtasida ikki nuqtaning ishlatalish sababini tushuntirib bering. Matnni davom ettiring.

XX asr boshlarida ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniy: «Ilm biza o‘z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur», – deb yozgan edi.

239-mashq. Berilgan gaplarni ko‘chirma gaplarga aylantirib ko‘chiring. Tinish belgilaringin ishlatalishiga diqqat qiling.

1. Yigitning kuchi bilagida, ishlab charchamaydi, ammo keksaning kuchi yuragida bo‘ladi. Har qanday og‘ir dardni

ko‘tara oladi. (*Abdulla Qahhor*) 2. Yaxshilik yomonliksiz ham mavjud bo‘lishi mumkin, lekin yomonlik yaxshiliksiz mavjud bo‘la olmaydi. (*Avgustin*) 3. Hunarmand-u kosiblar ko‘pdir, biroq mohir-u qobiliyatilari ozdir. (*Zamaxshariy*) 4. Vaqt o‘tadi, lekin aytilgan so‘z qoladi. (*L.N. Tolstoy*)

240-mashq. Ikki nuqta va nuqtali vergulning ishlatilish sabablarini tushuntiring.

«O‘tkan kunlar» romanidagi Otabek timsoliga tavsif:

- a) Otabek – o‘z davrining ilg‘or fikrlovchi, tadbirkor yigit;
- b) Otabek – mard va jasur yigit;
- c) Otabek – vafodor yor, sadoqatli do‘sit va qobil farzand.

1. Ikki nuqtaning ishlatilish o‘rinlariga misollar keltiring.
2. Ko‘chirma gaplarda ikki nuqta qaysi o‘rinda qo‘yiladi?
3. Nuqtali vergulning ishlatilish sabablarini tushuntirib bering.

241-mashq. *Uyga vazifa.* Yuqoridagi reja asosida insho yozib keling.

54-dars. TIRE VA QO‘SHTIRNOQNING QO‘LLANISHI

1-topshiriq. Gapda qo‘shtirnoqning ishlatilish sababini tushuntiring.

Amir Temur bobomizning shunday hikmatli so‘zlari bor: «Eng baland minoralar ham birinchi g‘ishtdan boshlanadi».

2-topshiriq. Tirening qo‘yilishini izohlang.

Kitob – eng yaqin sadoqatli do‘stimiz. (Shodmonqul Salom)

! Esda saqlang. Tire dialoglardagi har bir gapning boshida, bog‘lamasiz qo‘llangan ot kesim bilan ega orasida, uyushiq bo‘laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin, muallif gapi bilan ko‘chirma gap orasida, ayrim so‘z yoki gaplar

izohlansa, ularning o‘rtasida, zid ma’noli bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar orasida ishlataladi.

Shuningdek, ajratilgan bo‘laklar har ikki tomonidan vergul yoki tire bilan asosiy bo‘laklardan ajratiladi. Tenglik, taqqosplash va hokazo ma’nolarni bildiruvchi so‘zlar orasida ham undan foydalaniladi.

Ko‘chirma gap qo‘shtirnoqqa olinadi. Iqtiboslar qo‘shtirnoq ichida yoziladi. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlar, ishlatalishi odad tusiga kirmagan, eskirgan yoki yangi qo‘llanayotgan, kesatiq, piching, do‘q-po‘pisa va shu kabi ma’nolarni bildiruvchi leksik birliklar qo‘shtirnoq ichida yoziladi. Badiiy asarlar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va kartina nomlari qo‘shtirnoq ichida beriladi. Korxona, muassasa, tashkilot, zavod, fabrika, mehmonxona, kema nomlari qo‘shtirnoq ichida yoziladi. Transport (mashina, samolyot, avtobus va sh.k.)larning markasini bildirgan so‘zlar, o‘simliklarning turini, mahsulotlarning nomini ifodalovchi leksik birliklar qo‘shtirnoqqa olinadi. Ayrim orden va medallar, faxriy unvonlar nomi qo‘shtirnoq ichida beriladi.

242-mashq. Matnni o‘qing, tire va qo‘shtirnoqning ishlatalish sabablarini aniqlang. «O‘tkan kunlar» romanini o‘qiganmisiz? U sizda qanday taassurot qoldirgan?

«O‘tkan kunlar» nashr etilishi bilan men uni darrov o‘qib chiqdim. Bir kuni Abdulla Qodiriy uyimizga mehmonga keldilar. Ziyofat chog‘ida so‘radilar:

- Xo‘s, mulla Asomiddin, «O‘tkan kunlar»ni o‘qidingizmi?
- Ha, o‘qidim, – dedim g‘ururlanib.
- Necha marta o‘qidingiz?
- Bir marta.
- Hm-m. Bu kitobni bir marta emas, besh marta o‘qish kerak. Shunda siz muomalani, odobni, hayotni, tarixni, tilni o‘rganasiz, – degandilar. (*Asomiddin Rasulmuhammad o‘g‘li*)

243-mashq. Gaplarni ko‘chiring, tire va qo‘shtirnoqning ishlatalish o‘rinlariga e’tibor qarating.

1. Aytadirlar: «Fazilat nasl-u nasab bilan emas, balki odob bilan topiladi». (*Muhammad Zehniy*) 2. Otalar so‘zi: «Odobli odam tabibga o‘xshaydi, u bilan suhbatlashish ko‘ngildagi g‘amni ketkazadi». 3. «Sharm-hayo – fazilatlarning ulug‘i», – deydi xalqimiz. 4. «Inson aqlining hamma narsani ochuvchi uchta kaliti bor – bilim, fikr va tasavvur», – deydi Viktor Gyugo.



244-mashq. Shuhratning «Oltin zanglamas» romanidan olingan parchani o‘qing. Qo‘shtirnoqlarning ishlatilish o‘rinlarini izohlang. Sizning mahallangizda ham shunday fazilatga ega nuroniy insonlar bormi?

Adolat xola tabiatan halimdek yumshoq, shirinso‘z ayol edi. «Siz» ham, «sen» ham bir og‘izdan chiqadi. «Siz»ni «sen» qilish yaxshimas», – derdi, o‘zi shu aqidasisiga amal qilar, ikki so‘zining birida «jon bolam» deb turardi. Shuning uchun butun mahalla uning ismini aytmay, «jonbolam xola» deyishar, bu so‘z xolaning qulog‘iga kirib qolsa, kulib qo‘ya qolardi.

245-mashq. Matnda qo‘llangan tinish belgilariga e’tibor qarating. O‘z muloqotingizda aytilgan fikrlarga rioya qilasizmi?

Kishi izzat-ikromini, obro‘-e’tiborini til orqali topadi. «Tilga e’tibor – elga e’tibor», «Bug‘doy noning bo‘lmasin, burro so‘zing bo‘lsin», «Achchiq til – zahri ilon, chuchuk tilga jon qurban», «Bemorga shirin so‘z kerak, aqlsizga – ko‘z», «Gapning qisqasi yaxshi, qisqasidan hissasi yaxshi» kabi xalq maqol va iboralarida ham muloqot qoidalari ifodalangan. («Milliy g‘urur – ma’naviy komillik mezoni» kitobidan)



1. Tire va chiziqcha o‘rtasida qanday farq bor?
2. Tire qaysi o‘rinlarda qo‘llanadi?
3. Qo‘shtirnoqdan qanday holatlarda foydalanamiz?

246-mashq. *Uyga vazifa.* «O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari» kitobi (Toshkent: «O‘zbekiston», 2015)dan olingan qoidani ko‘chiring va uni esda tuting.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida sabab-oqibat, asosxulosa munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo‘yiladi: *Sen borsan – men uchun bu hayot go‘zal, Sen borsan – men uchun dilbar koinot.* (A. Oripov) *Endi nima bo‘lib shundoq bo‘lganini aytib o‘tirishga fursatim yo‘q – idorada odamlar kutib o‘tiribdi.* (Abdulla Qahhor) *Uyda qadam bosgani joy yo‘q – hamma yoq o‘yinchoq.* (Sh. Boshbekov) *Qarasam, oshxonanomidan gup-gup etgan tovush kelyapti – oyim o‘g‘irda tolqon qilyapti.* (O‘. Hoshimov) *Narigi tomonda taraq-turuq boshlandi – quruvchilar ishga tushdilar.* (Nabi Jaloliddin)

55-dars. KO‘P NUQTA VA QAVSNING ISHLATILISHI

1-topshiriq. Gapni o‘qing, undagi fikrga munosabat bildiring. Muallifning ismi va familiyasi nima sababdan qavs ichida berilganini izohlang.

Kishi niyati, so‘zi, amaliy ishlari bilan qanchalik odamlarga foyda keltirsa, yomonlarni to‘g‘ri yo‘lga solsa, haq yo‘lida fido bo‘lsa, u shunchalik komil bo‘ladi. (U. Sattarov)

2-topshiriq. Ko‘p nuqtaning ishlatilish sababini tushuntiring. Yoz... *Issiq kunlar boshlandi. Butun atrof quyoshning olov taftida kuyadi.*

! Esda saqlang. Kiritma gaplar, remarkalar, izoh ma’nosidagi so‘z yoki so‘z birikmalari, shuningdek, shaxs, joy, asar, hodisa va shu kabilarning ikki xil shakli berilsa, ulardan biri qavsga olinadi.

Mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida, matn (jumla) qisqartirilsa; fikr bo‘lib-bo‘lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilsa, suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirilsa, tushirib qoldirilgan harf, so‘z yoki boshqalar o‘rnida ko‘p nuqta ishlatiladi.

247-mashq. Gaplarni o‘qing, ko‘p nuqta va qavsning ishlatalish sabablarini izohlang.

1. Yo alhazar!.. Salomni ham ravo ko‘rmadi-ya!.. Ishlab o‘rgan-gan odam, baribir, uyda o‘tirolmaydi... (*F.Salayev*) 2. Badiuzzamon (kulib). Men aytdim-a... Balki, Husayn Boyqarosiz Alisher Navoiy bo‘lmasdi. Lekin Alisher Navoiysiz Husayn Boyqaro ham bo‘lmasdi. (*Omon Muxtor*) 3. ... Dono bo‘lmoq uchun bilimsizdan ham o‘rganmoq kerak. (*Kaykovus*) 4. O‘n yoshimda kitob o‘qiy boshladim. «O‘qish kitobi», Oybekning «Qutlug‘ qon», G‘afur G‘ulomning benazir she’rlari... (*I. G‘afurov*)

248-mashq. Gaplarni o‘qing, ko‘p nuqta va qavsning ishlatalish sabablarini izohlang.

1. E-ee... O‘tloqdan otni keltirishni unutgan ekanman. O‘tloqqa yugurdim. Ot yo‘q! Bu qorong‘ida filni ham topib bo‘lmaydi. Buning ustiga, hamma yoq tog‘, archazor, jardara... (*Sh.Xolmirzayev*) 2. Bozorboy xatning bu yog‘ini o‘qiy boshladи: «...Kо‘zingni och, mehnatsiz topilgan pul hech kimga vafo qilmagan». (*Said Ahmad*) 3. Demak... demak, boshga tushganini ko‘z ko‘radi. Chidash kerak! Chidash... (*Omon Muxtor*) 4. Ba’zi qо‘lyozmalar sahifasining hoshiya qismiga oltin suvi sepib (purkab) ziynatlangan. (*M. Hakimov*)

249-mashq. Maktab... Insonning hayot yo‘llariga chiqib olishida zinapoya o‘rnini o‘tagan qutlug‘ dargoh! Matnni davom ettiring. Unda ko‘p nuqta va qavsdan foydalanishga harakat qiling.

✓ **250-mashq.** Gaplarni o‘qing, ko‘p nuqtaning ishlatalish sabablarini izohlang.

– Iye, iye, o‘ngimmi, tushimmi?.. – Shavkatjon quchog‘ini ochdi. – Marhabo, otaxon, onajonlarim, marhabo. Bardammisiz, otaxon? Tan-joningiz sog‘mi, onaxon? Qani, qani, o‘tiringlar.
... Chol-kampirga ertasi kuni ham ruxsat bo‘lmadi. (*A. Muqimov*)

251-mashq. Garlarni o‘qing, ko‘p nuqta va qavsning qo‘yilish o‘rinlariga diqqat qiling.

1. Xayrlashib ketarkan, yana ta’kidladi: – Albatta, uyga o‘ting, Hamzaxon bolam, birga boring. Kutaman... (*Q. Muhammadiy*)
2. Bahor... Bu kun olam uyg‘onmoqda. Ana, yam-yashil maysalar xuddi jajji qizaloqlar kabi qiqirlab bosh ko‘tarmoqda. (*Muhammad Nor*)
3. Haydar ota o‘tirib, duoga qo‘l ochdi: – Qani, omin, to‘rt ko‘z tugal bo‘lsin, ishqilib, hech kimning oftobi o‘chmasin, hamma vaqt charaqlab tursin!... (*S. Siyoyev*)
4. Men «Paxtakor» (Toshkent) futbol jamoasining chinakam muxlisiman.

-  1. Ko‘p nuqtaning ishlatilish o‘rinlariga misollar keltiring.
2. Qavsdan qaysi o‘rinlarda foydalanamiz?
3. *Alisher Navoiy (1441-1501) eski o‘zbek adabiy tilining asoschisi sanaladi.* Ushbu gapda qavsning ishlatilish sababini izohlang.

252-mashq. *Uyga vazifa.* Isajon Sultonning «Boqiy darbadar» asaridan olingen parchani o‘qing. Ko‘p nuqtaning ishlatilish sabablarini aniqlang.

– Odam bolasidan boshqa hamma bir tilda gaplashadi, o‘g‘lim, – dedi oqsoqol. – Aslida, bunday sirlarni qancha ko‘p anglaganing sayin shuncha chuqur sukutga tolasan. Chunki ba’zi bilimlar hatto halokatli bo‘ladi, bolam.

– Shamol hozir nima deyapti? – deb so‘radi o‘g‘lon.

Chol miyig‘ida jilmayib, dedi:

– Shamolmi? U gapirmaydi, balki qanotida bilimlarni tashib yuradi. Kerak joyiga qarab kerak narsangni olaverasan...

...Otaxon shamolning tog‘larda avliyo bilan suhbat qurbanini, shahri Haybar xarobalarining qumlarini to‘zg‘itib-sochib o‘tganini nevarasiga aytmadı...

56-dars. MUSTAHKAMLASH. TINISH BELGILARI. MATN USTIDA ISHLASH



1. Nuqtadan qaysi o‘rinlarda foydalaniladi?
2. Vergulning ishlatilish o‘rinlariga misollar keltiring.
3. So‘roq belgisi ishlatilgan gaplarga misollar aytинг.
4. Undov belgisi ishlatilgan gaplarga misollar keltiring.
5. Ikki nuqtadan qaysi o‘rinlarda foydalanamiz?
6. Nuqtali vergul qo‘llangan gaplarga misollar keltiring.
7. Tire qaysi o‘rinlarda ishlatiladi?
8. Qavsdan qanday maqsadlarda foydalanamiz?
9. Qo‘shtirnoqning qo‘llanilishiga misollar aytинг.
10. Ko‘p nuqtadan qanday maqsadlarda foydalaniladi?

1-topshiriq. Bobo va nabiraning suhbatini o‘qing, tinish belgilarining ishlatilish o‘rinlarini izohlang.

- Olam borgan sayin go‘zal bo‘lyapti-a, bobojon?
- Yashin tutgan suvoriy uyg‘oq-da, bolajon!
- Hamma odamlar halol, mehribon...
- Yashin tutgan suvoriy uyg‘oq-da, bolajon!
- Bobojon, yashin tutgan suvoriy kim o‘zi?
- Bu sen! Sening kelajaging, bolam.
- Yashin-chi?
- Sening gard yuqmagan vijdoning, bolam! (*Temur Ubaydullo*)

2-topshiriq. Yuqoridagi matn asosida «Vijdon nima?» mavzusida og‘zaki matn tuzing.



3-topshiriq. «O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari» kitobi (Toshkent: «O‘zbekiston», 2015)dan olingan qoidani ko‘chiring va uni esda tuting. Berilgan misollarga o‘xshash gaplar tuzing.

Undovlar gapning boshida kelganda, undan keyin, gap o‘rtasida kelganda, har ikki tomonidan, gap oxirida kelganda

esa undan oldin vergul qo‘yiladi: *Ajabo, sening qismating biznikidan farqli emasmidi? (Isajon Sulton)* Voy, muncha ochilib ketibsan! (O.Yoqubov) *Shu tobda bir g‘aram bedaning ustiga chiqib cho‘zilsang bormi, oh, buning gashtiga nima yetsin! (Murodjon Mansur)* Vaqt-soati yetganga o‘xshayapti, uf-f! (Xurshid Do‘stmuhammad) Ammo gapda undalmalardan oldin kelgan undovlar odatda undash, murojaatni kuchli darajada ifodalash uchun xizmat qiladi, shuning uchun undalmalar oldidan kelgan undovlardan so‘ng odatda vergul qo‘yilmaydi: *Kel, ey Furqat, suxanni muxtasar qil. (Furqat)* Ey qotil, nega shunday azim terakni nobud qilding? («El desa Navoiyni» kitobidan) Kunlar g‘animat, e og‘a, bu davr-u davron qaytmagay. (Anvar Obidjon)

4-topshiriq. Matnni yozma davom ettiring, tinish belgilarining ishlatilish o‘rinlariga diqqat qiling. Suvga nisbatan qanday munosabatda bo‘lasiz?

Suv – ilohiy ne’mat. Uni toza saqlash uchun, avvalo, suvga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish kerak. (Sh. Kenjaboyev)

5-topshiriq. Matnni o‘qib, mazmunini qayta so‘zlab bering. Tinish belgilarining ishlatilish o‘rinlariga e’tibor qarating.

Hayotning boshqalar ko‘rmagan tomonini ko‘rish – talant. Haqiqiy iste’dod boshqalar ko‘rmagan narsani topadi va o‘sha «narsa» insonni, xalqni, boringki, jamiyatni qayoqqa boshlashi mumkinligini tasvirlab beradi. No‘noq haykaltarosh tirik odamni shohsupaga chiqarib qo‘ysa ham o‘likka o‘xshaydi. Haqiqiy haykaltarosh o‘lik jondan yasagan haykal tirikka o‘xshaydi.

Talant degani shu! (O’.Hoshimov)

6-topshiriq. *Uyga vazifa.* Rasm asosida «O‘zbek me’morchiligi an’analari» mavzusida matn tuzing. Tinish belgilardan foydalaning.



57-dars. ISH QOG‘OZLARI USTIDA ISHLASH



Bilib oling. Ariza, bildirishnomा, tilxat, tushuntirish xati, bayonnomа, ishonchnomа va shu kabi hujjatlar rasmiy uslubda yoziladi.

! Esda saqlang. Muayyan nutqiy qolip, qat’iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega bo‘lgan nutq uslubi *rasmiy uslub* sanaladi.

253-mashq. Matnni o‘qib, qanday nutq uslubiga mansubligini ayting.

Toshkent shahar Sergeli tumanidagi 6-umumiy o‘rta ta’lim məktəbi direktori S.Yo‘ldoshevga

9-sinf o‘quvchisi Karimjon Salimovdan

TUSHUNTIRISH XATI

Men onamning qattiq betobligi tufayli o'n kun davomida darslarga kela olmadim. Qoldirgan darslarimni o'zlashtirib olishga va'da beraman.

Ilova: Onamning kasalligi haqidagi ma'lumotnoma.

(sana)

(imzo)

K. Salimov

254-mashq. Ko'chiring. O'ziga xos uslubiy belgilarning ostiga chizing.

Termiz tumani 16-umumiyl o'rta ta'llim maktabi direktori K.Komilova
9-sinf o'quvchisi H.Akbarovdan

ARIZA

Meni ingliz tili chuqurlashtirilib o'qitiladigan 9-«A» sinfiga o'tkazishingizni so'rayman.

(sana)

(imzo)

H. Akbarov

255-mashq. «Ish yuritish» amaliy qo'llanmasi (Toshkent: «O'zME» nashriyoti, 2015) kitobidan olingan parchani o'qing, ma'lumot-axborot hujjatlari haqidagi tavsiflarni esda saqlang.

Ma'lumot-axborot hujjatlari anchayin katta guruhni tashkil qiladi, ular ish yuritish jarayonida, ayniqsa, ko'p ishlatiladi. Bu guruh ariza, bayonnomha, bildirishnomha, dalolatnomha, ishonchnomha, ma'lumotnoma, tavsifnomha, tavsiyanomha, taklifnomha, tarjimayi hol, tushuntirish xati, hisobot kabi hujjatlarni o'z ichiga oladi. Xususan, ariza – muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat. Ariza amaliyotda eng ko'p qo'llanadigan va keng tarqalgan ish qog'ozidir. Maktab o'quvchisi va talaba, agronom yoki fermer, muhandis va olim, tadbirkor va mansabdor shaxs – jamiyatning barcha a'zosi ariza yozadi. Ariza yozuvchilarining yoshi va

lavozimi, ariza yo'llanayotgan muassasalar va idoralar g'oyat xilmashildir. Arizalar bog'cha mudirasiga, maktab direktoriga, oliy ta'lim muassasasi rektoriga, korxona direktoriga, tuman rahbariyatiga – xullas, oddiy arizachining taklif, iltimos yoki shikoyatini ko'rib chiqib, hal qila oladigan har qanday idora, har qanday boshliq nomiga yozilishi mumkin.



256-mashq. Do'stingizga xat yozing. Uning o'ziga xos uslubiy belgilarini, masalan, ariza, buyruqdan farqini ayting.



1. Ish yuritish hujjatlari nimalar kiradi?
2. Arizada nimalarga e'tibor beriladi?
3. Ish yuritish hujjatlari qanday turlarga bo'linadi?

257-mashq. *Uyga vazifa.* Sinfdoshlariningizdan biriga tavsifnomayozing.

58-dars. TAKRORLASH. QO'SHMA GAPLAR BO'YICHA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

1. Qo'shma gaplar deb nimaga aytildi?
2. Qo'shma gaplar necha turli bo'ladi?
3. Bog'lovchisiz qo'shma gap deb nimaga aytildi?
4. Bog'langan qo'shma gap deb nimaga aytildi?
5. Ergashgan qo'shma gap deb nimaga aytildi?

258-mashq. Gaplarni o'qing, tuzilishiga ko'ra turlarini ayting. Hikmatlardagi fikrlarga o'z munosabatingizni bildiring.

1. Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q. (*Alisher Navoiy*)
2. O'ylab so'zlagan kishining so'zi to'g'ridir, o'rinsiz ko'p vaysagan til shafqatsiz yovdir. (*Ahmad Yugnakiy*)
3. Har kishi kasb-korni yaxshi bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq-odob, fazilatlarga ega bo'lmog'i kerak. (*Forobiy*)
4. Gap

qancha yaxshi bo'lsa, u shuncha qisqa bo'ladi. (*Abdulla Qahhor*)
5. Vijdonli kishi xavfdan holi yashasa, xiyonat qilgan kishi behalovat yashaydi. (*Zamaxshariy*)

✓ **259-mashq.** O'qing. Gaplarni sodda va qo'shma gaplarga ajratib yozing, ularni nima asosda ajratganingizni ayting.

Odamning boshqa jonzotlardan farqi nimada? Odamda xotira bor, o'tganlarni eslab turadi. Odamda farosat bor, tez va to'g'ri fahmlab oladi. Odamda tasavvur bor, xayoliga nimaningdir yoki kimningdir suratini keltira oladi.

Odam harom bilan halolning farqiga bora oladi. Masalan, toza bilan pok tushunchalari o'rtasida katta farq bor. Ko'rinishdan toza ko'ringan narsa pok bo'lmasligi, aslida pok narsa top-toza ko'rinnmasligi mumkin. Buni anglay olish uchun odamda mantiq qudrati bor. Odam iffatni qadrlaydi, bu butun odamzodga xos fazilatdir. («*Vatan tuyg'usi* darsligidan»)

260-mashq. Moturidiy bobomizning o'gitlariga diqqat qiling, ularni o'zlashtirma gaplarga aylantiring va tinish belgilarining qo'llanishiga e'tibor bering.

1. Sabrli bo'l, murodingga yetasan.
2. Har bir ishda hamkor izla.
3. Kam gapir, oz yegin-u kam uxla.
4. Ilmda hammadan kamtar bo'l.
5. O'rgan va o'zgalarga o'rgatgin.
6. Rost gapir-u o'zgalarning aybini kovlama.
7. So'ramasalar javob berma, aytmagan joyga borma.
8. Qalbingni hasad o'ti bilan kuydirma.

261-mashq. Matnni o'qing, undan olgan taassurotingizni qayta hikoya qilib bering.

Bugungi kunda O'zbekistonimizda ertaklarda ham yo'q ulkan ishlar – bir yuz yigirma uch kilometr uzunlikdagi «Angren – Pop» temir yo'li qurib bitkazildi. Dengiz sathidan qariyb bir yarim ming metr balandlikda joylashgan, uzundan uzun tog'larni

kesib o‘tadigan, o‘n to‘qqiz kilometrdan ziyod tunneldan iborat yo‘lning foydalanishga topshirilishi juda katta tarixiy voqeа bo‘ldi. U nafaqat vodiyya yo‘l ochdi, ayni paytda Yevropa va Osiyo qit’alarini bir-biriga bog‘ladi. Bu yo‘l nafaqat oddiygina temiryo‘l, balki tom ma’noda oltin vodiyning oltin yo‘li bo‘ldi. (*Ziyovuddin Mansur*)

262-mashq. *Uyga vazifa.* Matnni o‘qing. Gaplarni turlarga ajrating.

Vatan – eng oliv tushuncha, xalqlarning tayanchi, o‘tmishi, buguni va ertasidir. Shuni aslo unutmaslik kerakki, Vatanga bo‘lgan muhabbat samimiyl, dildan bo‘lmog‘i lozim. O‘z Vatanini sevmoqlik har bir shaxsning muqaddas burchidir, ammo haqiqiy vatanparvar uni sevish bilan kifoyalaniб qolmaydi, balki Vatan ravnaqi, obodligi va obro‘yi uchun tinmay kurashadi.

Zero, hadisi sharifda aytilmishki: «Vatanni sevmoq iymondandir».

59-dars. KO‘CHIRMA VA O‘ZLASHTIRMA GAP, TINISH BELGILARI BO‘YICHA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

1. Ko‘chirma gapli qo‘shma gap deb qanday gapga aytildi?
2. Ko‘chirma gapli qo‘shma gap qanday qismlardan tashkil topadi?
3. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar qanday tinish belgilari bilan yoziladi?
4. O‘zlashtirma gap deb qanday gaplarga aytildi?
5. Ko‘chirma gaplar qanday qilib o‘zlashtirma gapga aylantiriladi?

263-mashq. Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantirib, yozing. Ko‘chirma gapli qo‘shma gap shaklida qanday o‘zgarishlar qilganingizni aytинг.

1. «Dunyodagi eng ulug‘ martaba, eng ulug‘ sharaf — Vatan ozodligi uchun xizmat qilish», – deydi A. Oripov. 2. «Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchi va rohati, – deb yozadi

Abdulla Avloniy, – yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir». 3. Oybek shunday deydi: «Xalqning chin o‘g‘illari uchun xalqqa samimiy xizmatdan ko‘ra yuksakroq, muqaddasroq narsa yo‘q».

264-mashq. Ko‘chirma gaplarni toping, ularni o‘zlashtirma gaplarga aylantiring va ular o‘rtasidagi farqlarni tushuntiring.

1. «Esli odam so‘z boshlamas «men» bilan...», – degan edi turkman shoiri Maxtumquli. 2. Kamoliddin Binoiy shunday demish: «Kishi yaxshiligi ishidan ma’lum, yaxshi yil bahor-u qishidan ma’lum». 3. O‘zbek xalq maqollaridan birida: «Odam qo‘li – gul, cho‘lni bo‘ston qiladi», – deyilgan. 4. «Tandan ham aql ortiq, biz ana shu aqlga tanni bo‘ysundirishimiz kerak», – deb yozgan edi qozoq shoiri Abay. 5. «Aql, – deb yozadi Jaloliddin Rumiy, – aqldan quvvat oladi».

265-mashq. O‘qing. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni topib ko‘chiring. Muallif gapi va ko‘chirma gapni aniqlang. Ko‘chirma gap qanday tinish belgisi bilan yozilganini ayting.

«Navbatdagi safarga hozirlik ko‘ryapmiz, – dedi Zokirjon aka. – Bu galgi yo‘nalishimiz – Hindiston. Sizning taklifingizni bilmoxchiman».

«Juda yaxshi, qalbi va ijodi Bobur ruhiga yaqin ijodkorlar ko‘p», – dedim men. Zokirjon aka gapimni bo‘ldi. «To‘xtang endi, – dedi u. – Siz menden ham fidoyi chiqib qoldingiz. Birinchi safarimizda bir-ikki gaplashdig-u, lekin, mening nazarimda, o‘zingiz uncha qiziqmadingiz. Ikkinchidan, bizda ham tajriba yo‘q, kimni olib, kimni qo‘yishni bilmay, rosa qiynalganman, shuning uchun bu gal o‘zingiz birga bo‘lsangiz. Boshqa o‘rtoqlar ham sizni tavsiya qilishyapti».

Ekspeditsiya rahbari Zokirjon Mashrabov uchinchi safarga uzoq, puxta hozirlik ko‘rdi. (*Qamchibek Kenja*)

266-mashq. Ilm haqida bilgan maqollaringizni o‘zlashtirma gap shaklida yozing.

267-mashq. *Uyga vazifa.* «Xayr, maktabim!» mavzusida matn tuzing.

60-dars. MATN USTIDA ISHLASH

Topshiriq. Quyida berilgan gapni o‘qing, unda qanday maqsad ifodalangani haqida matn tuzing. *Ahmoq kishi hikmat lazzatini bilmaydi, bamisoli tumov kishi gulning hidini sezmagandek.* (Zamaxshariy)

268-mashq. Matnni o‘qing. Unda ifodalangan g‘oya haqida fikrlashing. Muhokama matni borasidagi mulohazalariningizni bayon qiling.

Taqdir taqozosi bilan badaviylar oilasida tug‘ilsam, ellik darajali issiqda quturgan qum bo‘roni men uchun eng go‘zal manzara bo‘lur edi.

Taqdir taqozosi bilan eskimoslar oilasida tug‘ilsam, ellik darajalisov uqida qor bo‘roni men uchun eng go‘zal manzara bo‘lur edi...

Men O‘zbekistonda tug‘ilganim bilan faxrlanaman.
(O‘. Hoshimov)

269-mashq. Toshkent haqida bilganlariningizni ayting. Ular asosida og‘zaki matn tuzing.

270-mashq. Matnni o‘qing, mazmunini qayta so‘zlab bering. Siz ham o‘z qo‘lingiz bilan biror tup ko‘chat ekkanmisiz?

Qadimda bir boy o‘tgan ekan. Shu odam bozorga borganda, odamlar meva-cheva olgach: «Ekkanga rahmat, tikkanga rahmat», – deb ketayotganini eshitib qolibdi. Kelasi yili chorakorlariga buyurib, bog‘-rog‘ barpo etibdi. Vaqt kelib shu bog‘ning mevasidan odamlar bahramand bo‘lishibdi. Kelganlar: «Ekkanga, tikkanga rahmat!» dermish-u, «Egasiga rahmat!» deb aytmasmish. Shunda boy halol mehnatning savobi ulug‘ligini anglab yetib, kelasi yili o‘z qo‘li bilan bog‘ yaratibdi. (X. To‘xtaboyev)

271-mashq. Mashhur sportchi, olimpiada championi Ruslan Nuriddinovning gaplariga e’tibor bering. Siz ham champion bo‘lishni xohlaysizmi? Unda ko‘proq kitob o‘qing!

Tarixiy kitoblarni ko‘p o‘qiyman. Ular menga ilhom beradi, dunyoqarashimni kengaytiradi. Qayerga borsam, o‘scha yerning tarixini yaxshiroq o‘rganishga harakat qilaman. Tarix kitoblarida urushlar haqida ham yoziladi. Urushni yomon ko‘raman. Tinch yurtda tug‘ilib, tinchliksevar odamlar orasida ulg‘ayganim uchun eng qadrli ne’mat tinchlik-osoyishtalik ekani kitob o‘qiyotganimda ham xayolimdan ketmaydi.

- ?**
1. Matnda hikoya maqsadi deganda nimani tushundingiz?
 2. Voqeа-hodisalarни tasvirlash bilan bog‘liq matnlar qanday ataladi?
 3. Matnda mulohaza-muhokama maqsadi qay tarzda yuzaga chiqariladi?

272-mashq. *Uyga vazifa.* «O‘zbek farzandi bo‘lganimdan faxrlanaman!» mavzusida matn tuzing. Matnda qo‘llangan so‘zlar va tinish belgilariga izoh bering.



MUNDARIJA

KIRISH. DUNYO TILLARI VA O'ZBEK TILI. TAKRORLASH

Kirish	3
1-dars. Dunyo tillari orasida o'zbek tili.....	5
2-dars. Mustahkamlash. Matn va lug'at ustida ishslash	7
3-dars. Takrorlash. So'z birikmasi va gap bo'laklari bo'yicha o'tilganlarni takrorlash.....	9

4-dars. Uyushiq va ajratilgan bo'laklar bo'yicha o'tilganlarni takrorlash .	11
5-dars. Undalmali, kirish so'zli gaplar bo'yicha o'tilganlarni takrorlash ..	13
6-dars. Matn va lug'at ustida ishslash.....	15

QO'SHMA GAPLAR

7-dars. Sodda va qo'shma gaplar	17
8-dars. Qo'shma gap qismlari va ularni bog'lovchi vositalar	19
9-dars. Qo'shma gaplar tasnifi.....	21
10-dars. Mustahkamlash. Matn va lug'at ustida ishslash.....	23

BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR

11-dars. Bog'langan qo'shma gap haqida ma'lumot	26
12-dars. Biriktiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar	28
13-dars. Zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar	29
14-dars. Ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar. ..	32
15-dars. Inkor bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gaplar.....	34
16-dars. Bo'lsa, esa so'zları yordamida bog'langan qo'shma gaplar	35
17-dars. Mustahkamlash	37
18-dars. Matn va lug'at ustida ishslash	39

ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR

19-dars. Ergashgan qo'shma gap haqida ma'lumot	41
20-dars. Bosh va ergash gap	42
21-dars. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar	44
22-dars. Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gaplar.....	46
23-dars. Ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gaplar...	48

24-dars. Deb so‘zi yordamida ergashgan qo‘shma gaplar	50
25-dars. Shart mayli vositasida ergashgan qo‘shma gaplar	52
26-dars. Ko‘rsatish olmoshili ergashgan qo‘shma gaplar.....	54
27-dars. Nisbiy so‘zli ergashgan qo‘shma gaplar.....	56
28-dars. Ergashgan qo‘shma gaplarning sodda gaplar bilan ma’nodoshligi	58
29-dars. Matn va lug‘at ustida ishslash	60
30-dars. Mustahkamlash	61
31-dars. Ergashgan qo‘shma gaplar yuzasidan tahlil.....	62
32-dars. Matn va lug‘at ustida ishslash	64

BOG‘LOVCHISIZ QO‘SHMA GAPLAR

33-dars. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap haqida ma’lumot	67
34-dars. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi	69
35-dars. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning boshqa qo‘shma gap turlari bilan ma’nodoshligi	70
36-dars. Mustahkamlash	72
37-dars. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning boshqa qo‘shma gap turlari bilan ma’nodoshligi yuzasidan tahlil	74
38-dars. Matn va lug‘at ustida ishslash	75

KO‘CHIRMA GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

39-dars. Ko‘chirma gapli qo‘shma gap haqida ma’lumot	78
40-dars. Ko‘chirma gapli qo‘shma gapning tuzilishi.....	79
41-dars. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda tinish belgilarining qo‘llanishi	81
42-dars. Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar	83
43-dars. Ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantirish.....	85
44-dars. Mustahkamlash	87
45-dars. Matn va lug‘at ustida ishslash	88

MATN

46-dars. Matn va uning maqsadi. Hikoya matni	90
47-dars. Tasviriy matn.....	92

48-dars. Muhokama matni	95
49-dars. Matn va gap.....	97

TINISH BELGILARINING QO'LLANISHI. TAKRORLASH

50-dars. Tinish belgilari va ularning yozma nutqdagi ahamiyati	99
51-dars. Nuqta va vergulning ishlatalishi	101
52-dars. So'roq va undov belgilarining qo'llanishi	104
53-dars. Ikki nuqta va nuqtali vergulning ishlatalishi	106
54-dars. Tire va qo'shtirnoqning qo'llanishi.....	108
55-dars. Ko'p nuqta va qavsning ishlatalishi.....	111
56-dars. Mustahkamlash. Tinish belgilari. Matn ustida ishslash.....	114
57-dars. Ish qog'ozlari ustida ishslash.....	116
58-dars. Takrorlash. Qo'shma gaplar bo'yicha o'tilganlarni takrorlash	118
59-dars. Ko'chirma va o'zlashtirma gap, tinish belgilari bo'yicha o'tilganlarni takrorlash.....	120
60-dars. Matn ustida ishslash	122

Mahmudov Nizomiddin Mamadaliyevich.

Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik /N.M. Mahmudov, A. Nurmonov, A.Sh. Sobirov. – Toshkent: MCHJ «Tasvir», 2019. – 128-b.

I. 1,2 Muallifdosh.

ISBN 978-9943-5797-0-5

UO‘K: 811.512.133(075.3)

KBK 81.2O‘zb-922

O‘quv nashri

Mahmudov Nizomiddin Mamadaliyevich, Sobirov Abdulhay Shukurovich,

Nurmonov Abdulhamid

ONA TILI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik

(To‘rtinchchi nashri)

Original-maket «Tasvir» nashriyot uyida tayyorlandi.

Toshkent, Elbek ko‘chasi, 8.

Muharrir R. Xidirova

Badiiy muharrir A. Arakelyan

Musahhih D. Mamadaliyeva

Sahifalovchi L. Abkerimova

Bosishga 2019-yil 14-mayda ruxsat etildi. Bichimi 70x90^{1/16}.

«Tayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 8,0. 494 082 nusxada chop etildi.

Buyurtma № 19-152.

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

Darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

№	O'quvchining ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqovaga ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlarga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismdan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.

Mahmudov Nizomiddin Mamadaliyevich.

M 37 Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik /N.M. Mahmudov, A. Nurmonov, A.Sh. Sobirov. – Toshkent: MCHJ «Tasvir», 2019. – 128-b.

I. 1,2 Muallifdosh.

ISBN 978-9943-5797-0-5

UO‘K: 811.512.133(075.3)

KBK 81.2O‘zb-922

O‘quv nashri

Mahmudov Nizomiddin Mamadaliyevich, Sobirov Abdulhay Shukurovich,

Nurmonov Abdulhamid

ONA TILI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik

(To‘rtinchchi nashri)

Original-maket «Tasvir» nashriyot uyida tayyorlandi.

Toshkent, Elbek ko‘chasi, 8.

Muharrir R. Xidirova

Badiiy muharrir A. Arakelyan

Musahhih D. Mamadaliyeva

Sahifalovchi L. Abkerimova

Bosishga 2019-yil 14-mayda ruxsat etildi. Bichimi 70x90^{1/16}.

«Tayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 8,0. 59426 nusxada chop etildi.

Buyurtma № 19-153.

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.